

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA URTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Iqtisodiyot fakulteti

Iqtisodiyot kafedrası

TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT ASOSLARI

fanidan

TAYANCH MA'RUZA

Termiz – 2013

Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari fanining tayanch ma'ruzasi Termiz davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası umumiy yig'ilishining 2014-yil 27-avgustdagi № 1-sonli bayonnomasi qarori bilan muhokama qilinib, me'yoriy xujjat sifatida tavsiya etildi.

Kafedra mudiri _____ dots. E.X.Avazov

Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari fanining tayanch ma'ruzasi Termiz davlat universiteti "Iqtisodiyot" fakulteti ilmiy kengashining 2014-yil 29-avgustdagi № 1-sonli qarori bilan muhokama qilindi va me'yoriy xujjat sifatida tasdiqlashga tavsiya etildi

Ilmiy kengash raisi: _____ i.f.n. A..A.Avliyaqulov

Tuzuvchilar:

E.X. Avazov-- TermDU Iqtisodiyot kafedrası dotsenti.

Taqrizchilar:

«Iqtisodiyot» kafedrası katta o'qituvchisi, i.f.n: A. Q. Mirzaev

Ushbu ma'ruza matnida «Tashqi iqtisodiy faoliyat» fani bo'yicha materiallar chop etilgan.

© E.X. Avazov. Termiz: TerDU.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida ham iqtisodiyotimiz barqaror rivojlanishini yanada yuksaltirish imkonini bermoqda. Ayniqsa mamlakatimizning tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada izchil takomillashtirish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida milliy iqtisodiyotimizning barqaror sur'atlar bilan rivojlanishiga, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishga olib keladi.

Birgina 2013 yilda YaIM 8,2%ga, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 %ga, qishloq xo'jaligi 7%ga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9%ga oshdi.

“Eksport hajmi,-deb ta'kidlaydi prezidentimiz Islom Karimov,- sezilarli ravishda, ya'ni 11,6%ga o'sdi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib bormoqda. Buning natijasida xomashyo bo'lmagan tayyor tovarlarning ulushi 70%dan ziyodni tashkil etmoqda. Tashqi savdo aylanmasidagi ijobiy saldo 1 milliard 120 million dollardan oshdi.”¹

Talabalarga “Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari” fanini xususiyatlari doirasida Respublikamiz miqyosida eksport va import sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va firmalarning strategik to'g'ri yo'l tanlab olishlarida katta rol o'ynashini chuqur bilim berish bilan bir qatorda uni yanada erkinlashtirish, xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish, valyuta tushumlarini o'stirishga o'rgatishdan iboratdir.

Shu bilan bir qatorda, ushbu o'quv-uslubiy majmua “Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari” fanidan chuqur nazariy va amaliy bilimlarni egallashda, tashqi iqtisodiy muhitni chuqur tahlil qilishda, iqtisodiy rivojlanish strategiyalarni ishlab chiqishda, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur o'quv-uslubiy majmuani tayyorlash jarayonida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2012 yil 26 dekabrda 507-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga mos ravishda TDIU (prof. J.J. Jalolov) va O'zMU (prof. A.A. Vahobov) olimlari tomonidan ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy majmualardan foydalanib tuzildi. Shu bois ushbu mualliflarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

¹ I.A. Karimov “Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish”. Toshkent-O'zbekiston-2013y.-3b.

1-MAVZU Tashqi iqtisodiy faoliyat mohiyati maqsadi va vazifalari.

REJA.

1. Iqtisodiyotni rivojlantirishda tashqi iqtisodiyot faoliyatning tutgan o'rni.
2. Ochiq iqtisodiyot tushunchasi, uning ahamiyati va rivojlantirish omillari.
3. Xalqaro mehnat taqsimoti mazmuni va ahamiyati TIFning rivojlanish muammolari.

Tayanch iboralar:

Davlatning TIFni tartibga solish vazifalari, TIFning tashqi va ichki omillari, GATT (UST), bojxona tarif tartibga solishlari, tarifdan tashkari cheklashlar, TIFni miqdoriy va valyuta cheklamalari, TIF qatnashchilari tengligi, TIFni erkinlashtirish, TIF buyicha davlat dasturi.

1. Iqtisodiyotni rivojlantirishda tashqi iqtisodiyot faoliyatning tutgan o'rni.

Har qanday mamlakatdagi tashqi iqtisodiy faoliyatning tartibga solinishi boshqa mamlakatlar tashqi iqtisodiy faoliyati natijalarida, albatta, aks etadi, chunki jahonning har xil mamlakatlari ishlab chiqarishi, tovar almashinuvi va iste'moli bir-biriga bog'liqdir. Tashqi iqtisodiy aloqalarning chuqurlashishi va kengayishi bilan TIFni ko'p tomonli tartibga solish kuchaymokda. Har bir mamlakatda tashqi iqtisodiy faoliyat milliy huquq me'yorlari, ikki taraflama bitimlar, mintaqaviy hamda xalqaro tashkilotlar doirasidagi ko'p tomonli kelishuvlar asosida tartibga solinadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni xalqaro tartibga solish BMT tizimidagi va unga kirmaydigan xalqaro tashkilotlar doirasidagi shartnomalarda ko'rsatilgan. Bu 1947 yilda jahon savdosining bojxona-tarif masalalarini tartibga solish uchun tuzilgan ta'rif va savdo bo'yicha asosiy kelishuv—. Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) dir.

Barcha mamlakatlarining jahon savdosini erkinlashtirishga intilishi Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) doirasidagi kelishuvlarni ishlab chiqish va qabul qilish tamoyillarida aks etadi. Ular quyidagilardan iborat:

- kamsitmaslik, o'zaro eng qulay usullarni taqdim etish;
- milliy bozorlarni muhofaza qilishning ko'prok tarif vositalaridan foydalanish;
- bojxona tariflarini uzluksiz tarzda tushirish;
- savdo-siyosiy yon berishda hamkorlik qilish;
- mojarolarni kengash va muzokaralar yordamida yechish.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) 1948 yildan 1994 yilgacha yagona savdoni tartibga soluvchi xalqaro tashkilot edi. (YUNKTAD kabi boshqa xalqaro tashkilotlarning savdo-siyosiy masalalardagi qarorlari ko'proq tavsiyaviy xususiyatga ega). Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) "raund"larda ishlab chiqilgan va qabul qilingan qator kodeks va kelishuvlardan iboratdir. Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning mavjudligi davrida 8 ta raund o'tkazilgan. Ularning har birida sanoati rivojlangan mamlakatlarda bojxona tariflarini pasaytirish bilan bog'liq masalalar ko'rib

chiqilgan, natijada o'rtacha import tariflari stavkasi 1947 dagi 40-60% dan 1990 yillar boshida 3-5% gacha kamaydi.

TIFning bevosita qatnashchilari uchun tarifsiz (tarifdan tashqari) cheklashlarni, ya'ni chet el tovarlarining ichki bozorga kirishga har xil to'siqlarni tartibga solish bo'yicha Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning oxirgi ikki - Tokio va Urugvay raundlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning tasnifiga ko'ra, tarifdan tashqari cheklashlar besh guruhga bo'linadi.

1. Davlatning tashqi savdo tadbirlarida qatnashishi: eksport tovarlarini subsidiya qilish, tovarlar sotib olishning davlat tizimi.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning subsidiya va kompensatsiya choralari bo'yicha kelishuviga o'ziga xos, ya'ni bo'lak korxona yoki korxonalar guruhiga beriladigan subsidiya tushunchasi kiritilgan edi.

Agar import tovari davlat subsidiyasi bilan ishlab chiqarilgani aniqlansa, importchi mamlakat qat'iy belgilagan rasm-rusumlarga ko'ra olib kelingan tovarga badal bojini qo'yishga haqi bo'ladi, bunda milliy va import tovarlari bozorda bir xil mavqeda bo'ladi. Badal bojining miqdori davlat subsidiyasi miqdoriga qarab belgilanadi. yevropa Ittifoqi qonunchiligi davlat tomonidan subsidiya qilishning barcha ko'rinishini insofsiz raqobat turiga kiritadi va ushbu qonunlarga rioya qilishni nazorat etish maqsadida raqobat qoidalarini buzganligi uchun uchinchi mamlakatlar korxonalariga jarima solish huquqiga ega bo'lgan yel komissiyasiga topshiriladi.

2. Importning bojxona va ma'muriy rasmiyatchiliklari: antidemping bojlari, bojxona qiymatini baholash usullari, tovarni yetkazib berishda zarur bo'lgan hujjatlarga qo'yiladigan talab.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning tarifi bo'yicha demping – bir mamlakat mahsulotining ikkinchi mamlakat bozorida, o'sha mahsulot milliy ishlab chiqaruvchilarga ziyon keltirishi, yangi milliy mahsulot ishlab chiqarishni sezilarli darajada sekinlatishi, "o'rtacha baho" dan past bahoda sotilishidir. "O'rtacha baho" dan kam deganda jahondagi bahodan kam yoki shu mahsulot eksportchi mamlakatda sotilayotgan bahosidan past baho tushuniladi.

3. Iste'molchilar xavfsizligi, sanitariya me'yorlari bilan bog'liq o'lchov va talablar, o'rash-qadoqlashga bo'lgan talablar.

Hozirgi paytda ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq chegaralashlar kuchaymokda. Bular:

- tarkibida xavfli moddalar, belgilangan chegaradan ortiq bo'lgan mahsulotlarni import qilishni taqiqlash;

- o'rab-joylangan va ishlatib bo'lingan materiallarni qayta qabul qilish bo'yicha majburiyatlar;

- ekologik soliqlar va boshqalar.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) ning kelishuvlaridan biri sanitar va fitosanitar choralar bo'yicha qabul qilingan. Unga ko'ra, mamlakatlar o'z fuqarolarining hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maqsadida choralar ko'rish huquqiga egadirlar. Namunalarning standartlarini umumlashtirish bilan Xalqaro standartlar tashkiloti, Xalqaro elektro-texnika komissiyasi, O'lchov va og'irliklar

xalqaro tashkiloti, qonunchilik metrologiyasi xalqaro tashkiloti va boshqalar shug'ullanadilar.

4. eksport va importni miqdoriy va valyutaviy jihatdan cheklashlar.

Miqdoriy cheklashlar - to'g'ridan-to'g'ri import va eksportni cheklashga qaratilgan chegaralardir. Zamonaviy savdo-siyosiy amaliyotida miqdoriy cheklashlarning ikki asosiy turi qo'llanadi. Bular: kontinentlashtirish va litsenziyali tartib. Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) miqdoriy cheklashlardan kamsitadigan tarzda foydalanishni, ya'ni faqat qaysidir bir mamlakatlardan olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan qo'llashni taqiqlaydi. Agar miqdoriy cheklashlar barcha mamlakatlarga teng darajada qo'llanilmasa, u holda kamsitiladigan deb hisoblanadi. Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) miqdoriy cheklashlar ma'lum bir mamlakatlarga nisbatan faqat to'lov muvozanatini tenglashga erishish maqsadida va davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan qo'llashgagina ruxsat beradi.

Jahon bozorida raqobat ko'rashining kuchayishiga sabab bo'ladigan eksportchi o'ziga nisbatan "ixtiyoriy" miqdoriy cheklashlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

5. GATT tasnifi bo'yicha tarifdan tashqari cheklashlarning beshinchi guruhi - to'lovlar strukturasi bilan bog'liq cheklashlardir: import depozitlari–importchi bank tomonidan keyingi to'lovlar uchun kafolat sifatida qo'yiladigan mablag'lar bo'lib, bu pul vositalarini to'xtatishga olib keladi; soliqlar va soliq imtiyozlari o'z ta'siriga ko'ra bojxona bojlariga o'xshashdir, lekin bojlar xalqaro darajada tartibga solinadi va davlatlar bu bilan hisoblashishiga majburdirlar. Soliqlar faqat milliy darajada tartibga solinadi, qo'shimcha qiymat solig'i, aktsizlar va boshqalar - bu davlatning ichki ishidir. Ba'zan bojxona hududini kesib o'tayotgan tovarlar bahosidagi soliq 50% ni tashqil etadi. Soliq solish qoidaga ko'ra tovar ishlab chiqarilgan mamlakatda yoki jo'natilayotgan mamlakatda amalga oshiriladi. Ikki yoqlama soliq solinishining oldini olish maqsadida davlatlar o'zaro ikki tomonlama bitim tuzadilar.

GATT bitimlari orasida tovarlar bahosi, ularni ishlab chiqarish va eksport qilishga davlat tomonidan bir qancha cheklashlar qo'yiladigan ba'zi tovarlar bilan jahon savdosi bo'yicha bitimlar muhimdir. Masalan, sut mahsulotlari va mol go'shti bilan savdo qilish. Urugvay raundidagi muzokaralar natijasida spirtli ichimliklarning ba'zi turlari, qurilish va qishloq xo'jalik mahsulotlari, ofis jihozlari, o'yinchoqlar va farmatsevtik tovarlarga bo'lgan bojlar yo'q qilindi.

Urugvay raundida savdo munosabatlarini tartibga solishning yangi shartnoma-huquqiy tizimini yaratish to'g'risidagi va GATTning barcha asosiy bitim va tamoyillarini o'zida saqlagan yangi tashkilot - Umumjahon savdo tashkiloti (UST) tashqil etilishi to'g'risida bitim qabul qilindi, shuning uchun ham adabiyotlarda ko'p hollarda Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) UST deb yoziladi.

Shunday qilib, savdoning xalqaro qoidalariga rioya qilishni nazorat etish va tashqi savdo aloqalarini tartibga solishning kuchaytirilishi an'analarga rioya qilinmokda.

2.Ochiq iqtisodiyot tushunchasi, uning axamiyati va rivojlantirish omillari.

XXI asrning dastlabki yillaridanoq insoniyat hayoti va faoliyati jabhalarining barcha sohalarida ulkan o'zgarishlar sodir bo'layotgani quvonchli holdir. Bu o'zgarishlar mustaqil Respublikamizning fan va ilmiy tadqiqotlar, texnikani rivojlantirish, yangi materiallar, texnologiyalar yaratish va ishlab chiqarishni tashqil qilish va uni boshqarishda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Mustaqilligimizning o'n yiligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy va tashqi iqtisodiy faoliyat sohalarida olamshumul yutuqlarga erishildi. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va asoslab berilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari amalda o'z samarasini bera boshladi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat kishilarining farovonligi, ularning gullab yashnashi uchun qaratilganligi, odamlar - islohotlar uchun emas, balki islohotlar - odamlar uchun xizmat qilishi zarurligi yurtboshimiz tomonidan takror va takror ta'kidlanib kelinmoqda. Iqtisodiy islohotlarning natijalariga e'tibor qiladigan bo'lsak, barcha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar o'sib bermoqda. Jumladan, 2010 yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 8,5 foizni tashqil etdi. YAlpi ichki mahsulotning ishlab chiqarish tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar yuz berdi.

Mamlakatning to'lov balansi mustahkamlandi. Hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan import o'rnini qoplovchi va eksportga yo'naltirilgan tovarlar ishlab chiqarish siyosati natijasida eksport - import tarkibi tubdan o'zgartirilmoqda.

Respublikamizning tabiiy-iqtisodiy resurslari, transport tizimi, jug'rofiy jihatlari uning xalqaro hamkorlikda qay darajada ishtirok etishini belgilab beradi. O'zbekistonda hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral-xom ashyo turlarini o'z ichiga oladi, shundan 60 ga yaqini ishlab chiqarishga jalb etilgan, 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zahiralari 970 milliard AQSH dollarini tashqil etadi. SHu bilan birga, umumiy mineral-xom ashyo zahirasi 3,6 trillion AQSH dollaridan ortiqroq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak. Mavjud imkoniyatlardan samarali va oqilona foydalanish natijasida respublikamizning kuch va qudratini, iqtisodiy salohiyatini oshirish, xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rnini egallashida iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish, import o'rnini bosadigan va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar assortimenti, hajmini kengaytirish bugungi kunning asosiy vazifasidir.

Respublikamizning iqtisodiy salohiyati juda yuqori, erishilgan yutuqlar darajasi hali qoniqarli deb bo'lmaydi. Ayniqsa mashinasozlik, tekstil, kimyo, qishloq xo'jaligi mashinaozligi sanoatining rivojlanishi, eksport imkoniyatlaridan foydalanish bugungi kun talablariga javob bermaydi. Respublikamiz iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishda, iqtisodiy islohotlarni jadal amalga oshirishda bu tarmoqlarning hissasi juda yuqori bo'lishi lozim. Chunki zamonaviy texnika-texnologiya, asbob - uskunalar, nou-xou, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari va boshqa milliy iqtisodiyot rivojini ta'minlovchi tovarlar shu sohada yaratiladi. Ikkinchi jihatdan, xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari uchun ular ishlab chiqarish vositalari, asbob-uskunalar va boshqa xizmat qurollari yetkazib beradi. Shu jihatdan bu tarmoqlarning jadal rivojlanishi, jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning, eksport salohiyatini oshirishning zaruriy

omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bu masalalarni ijobiy hal etishda korxona, tarmoqva nihoyat respublika tashqi iqtisodiy faoliyatini to'g'ri tashqil etish va amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy taraqqiyotining hozirgi bosqichida ko'p ukkladli iqtisodiy tizimni tashqil etish, yangi davlat mustaqilligini mustahkamlash, uning jahon xo'jaligi tizimiga jadal kirib borishini ta'minlash sharoitida insonning jismoniy va ma'naviy salohiyatidan, uning aql-zakovatidan samarali foydalanish, ehtiyoj va manfaatlarni hisobga olish masalalari birinchi o'ringa chiqadi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iborat o'z yo'limiz va dasturimizni muvoffaqiyatli amalga oshirish, demokratik huquqiy davlat va fuqarolar jamiyati qurish vazifasini hal etish bevosita inson, uning professional bilimlari, mas'uliyati, milliy ma'naviyati, tadbirkorligi, tashabbuskorligi va boshqa bir qancha fazilatlariga bog'liqdir.

Hozirgi kunda yuzlab korxonalar, xususiy firmalar, kichik va o'rta biznes vakillari, fermer va dehqon xo'jaliklari qo'yingki har bir fuqaro respublikamizning iqtisodiy salohiyatini oshirishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, zamonaviy bilimlarsiz, yangi texnika va texnologiyalarsiz bozor sharoitida muvoffaqiyatga erishish mumkin emas. Shunday ekan iqtisodiyotni boshqarish, ishlab chiqarishni tashqil qilish, tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali amalga oshirish, jahon va ichki bozor kon'yunkturasini tadqiq qilish, talab va taklif munosabatlari, zamonaviy menejment va marketing bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni puxta egallash bugungi kun talabiga aylanib bormoqda. Bozor munosabatlari har bir ishtirokchisida o'z iqtisodiy faoliyatini baholash ko'nikmalarini hosil etish, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan shartnomalar tuzish, hamkorlarni tanlash, xalqaro marketing tamoyillaridan o'z faoliyatlarida foydalanish, shular asosida qarorlar qabul qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning, jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar chiqarishning qudratli omili sifatida maydonga chiqadi.

3. Xalqaro mehnat taqsimoti mazmuni va ahamiyati TIFning rivojlanish muammolari.


Har qanday ishlab chiqarish eng avvalo umuminsoniy iqtisodiy faoliyat bo'lib, unga xos belgilardan biri ixtisoslashuvdir. Ixtisoslashuv - ishlab chiqarishning muayyan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatishga moslashuvi bo'lib, uning asosida mehnat taqsimoti yotadi. Mehnat taqsimoti ijtimoiy mehnat faoliyatining sifat jihatidan ajralishini bildiradi. Har bir mehnat turi mustaqil vazifani bajaradi, lekin boshqa turlar bilan bag'langan holda ishlab chiqarishda qatnashadi. Ishlab chiqarishda har xil mehnatni bajaruvchi kishilar ishtirok etadi, ularni ingliz olimi A.Smit "iqtisodiy individlar" deb atagan. Mehnat taqsimoti ana shu individlarning o'zaro aloqada bo'li-shini taqozo qiladi. Faoliyat turlari bo'yicha qaralganda mehnat taqsimoti uch yo'nalishda rivojlanadi: umumiy, xususiy va qisman. Mehnatning faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi bilan birgalikda, uning muayyan maydon doirasida ham taqsimlanishi yuz beradi. Mehnatning hududiy miqyosda taqsimlanishi ikki xil bo'ladi:

- hududlararo mehnat taqsimoti - muayyan mamlakat doirasida ayrim

hududlar yoki mintaqalardagi mehnatning ixtisoslashuvi;

- xalqaro mehnat taqsimoti(XMT) - mehnatning miqdori va sifatini hisobga olib, uning mamlakatlar o'rtasida ma'lum nisbatda va iqtisodiy nafni ko'zlagan holda taqsimlanishi.

Xalqaro mehnat taqsimoti natijasida turli davlatlar o'rtasida ijtimoiy mehnat taqsimlanadi, ishlab chiqarish baynalminal miqyosda ixtisoslashadi, davlatlararo iqtisodiy aloqalarni zaruratga aylantiradi. Xalqaro mehnat taqsimoti natijasida ishlab chiqarish samaradorligi oshiriladi, ijtimoiy mehnat sarflari tejaladi, ishlab chiqarish kuchlarining tug'ri taqsimlanishiga erishiladi. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy va ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan omillar mavjuddir, bu omillar 1-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishiga mamlakatlarning tabiiy iqlim sharoitlari, resurslar, ishlab chiqarish imkoniyatlari, fan-texnikada erishilgan yutuqlar darajasi, texnika taraqqiyoti va boshqa omillar ta'sir ko'rsatar ekan. So'nggi yillarda XMT rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil bo'lib, texnikaviy taraqqiyot chiqmoqda. Fan-texnikaning rivojlanishi, yangidan-yangi asbob-uskunalarining yaratilishi, elektronika, mashinasozlik, samolyotsozlik, kimyo va tibbiyot sohalarida murakkab texnologik jarayonlarning vujudga kelishi davlatlar o'rtasida hamkorlik darajasini yanada chuqurlashuviga olib keldi.



1-rasm. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Mehnat taqsimoti chuqurlashuvi bilan korxonalar mahsulot yaratish uchun zarur bo'lgan ayrim qismlar va hatto detallarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadilar. Bunday ixtisoslashuv xududlararo va hatto davlatlararo yuz beradi.

Davlatlararo ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi o'z navbatida ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi deb yuritiladi. SHu o'rinda ilgari mavjud bo'lgan va hozirda takomillashtirilgan xalqaro ixtisoslashuv yoki xalqaro savdo nazariyalarini ta'kidlab o'tish joizdir.

Klassik iqtisodchilar A.Smit va D.Rikardlar XMT rivojlanishining, davlatlar o'rtasida savdo sotiq munosabatlari doimiy rivojlanib borishining nazariy asoslarini yaratdilar. Bu olimlar mutloq va nisbiy afzalliklar nazariyasida xalqaro savdo(XS) afzalliklari ustida fikr yuritadilar. Mamlakat ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda boshqa davlatga nisbatan mutloq afzalliklarga ega bo'lmasligi mumkin ammo nisbiy afzallikka ega bo'ladi. Bir mamlakat muayyan mahsulotni boshqasiga qaraganda samaraliroq ishlab chiqara olishi mumkin bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarishdagi mutloq afzalliklar vujudga keladi. Bir mamlakatda mahsulotni ishlab chiqarishning muqobil qiymati boshqasiniqiga qaraganda past bo'lsa, shu mamlakatning nisbiy afzalliklari to'g'risida so'z yuritiladi.

D.Rikardo biz hozirda qo'llaydigan nisbiy afzalliklar qoidalari deb ataydigan kontseptsiyani yaratgan. Ushbu afzalliklarni tahlil qilish orqali u shunday xulosa chiqardi: tovarlarni import qiluvchi bir mamlakat eksport qiluvchiga nisbatan kamroq xarajatlar bilan ishlab chiqara olsa ham, ularni boshqa mamlakatdan import qilishi mumkin. Bu o'rinda u nisbiy afzallikni nazarda tutadi.

$$K_T = \frac{\mathcal{E}_T}{\mathcal{E}_J} ,$$

бу ерда

K_T - тармоқнинг экспортга ихтисослашувининг нисбий коэффиценти;

$\mathcal{E}_T$ - мамлакат экспортида тармоқ товарларининг улуши;

$\mathcal{E}_J$ - жаҳон экспортида товарнинг улуши.

1930 yilda xalqaro savdoning asosini ifodalovchi yangi nazariya, Xeksher-Olin nazariyasi yuzaga keldi. Bu nazariyaga ko'ra "mamlakatlar o'zlarida oshiqcha bo'lgan omillardan tayyorlangan mahsulotlarni eksport qiladilar va ishlab chiqarish uchun kamyob bo'lgan omillar import qilinadi". Bu nazariya ham o'ziga xos kamchiliklarga ega, masalan YAponiya davlati, Janubiy Koreya yoki boshqa mamlakatni oladigan bo'lsak bu mam-lakatlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha xom ashyo va resurslarni chetdan sotib oladi, ularni qayta ishlab, turli xil mahsulotlar shaklida eksport qiladi. YOki yuqori darajada tabiiy va ishlab chiqarish omillariga ega bo'lgan mamlakat jahon bozoriga kirib kelishi uchun uzoq vaqt talab qilinadi. Masalan, respublikamiz bir qancha omillar bo'yicha boshqa mamlakatlardan ustun turadi, ammo tayyor mahsulotlarni eksport qilish endi-endi amalga oshirilmoqda. Chunki bu o'ziga xos texnologiyalarni, ishlab chiqarishni tashqil qilishni talab etadi.

Tarmoqlarning xalqaro ixtisoslashganligini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

Yuqoridagi eksportga ixtisoslashuv koeffitsienti orqali ma'lum bir mamlakatning xalqaro ixtisoslashgan tovarlari va tarmoqlarini aniqlash imkoni tug'iladi. $K_t \geq 1$ bo'lsa, tarmoq ma'lum tovarlar yoki tovarlar guruhi bo'yicha xalqaro ixtisoslashgan deyiladi, agar $K_t < 1$ bo'lsa, tarmoqni xalqaro ixtisoslashgan deyishga asos kam bo'ladi.

Mehnat taqsimoti xalqaro doiraga chiqqach, dastlab mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha, so'ngra mahsulotning turli qismlari va hatto ayrim detallarini ishlab chiqarish bo'yicha korxonalarining ixtisoslashuvi yuz beradi. SHunday sharoitda mahsulot yaratish uchun ixtisoslashgan mehnatning xalqaro miqyosda bir-biriga bog'lanishi yuzaga keladi. Bu mehnat kooperatsiyasi doirasi kengayib, milliy doiralardan chiqib, baynalminal tus olishini bildiradi.

Mehnat kooperatsiyasi(MK) - ixtisoslashgan mehnat faoliyatining o'zaro birlashib, yaxlit mehnat jaroyonini tashqil etishidir. U kishilar faoliyatining mahsulot yaratish yoki xizmatlar ko'rsatish yo'lida uyg'unlashuvini bildiradi.

MK ning eng oliy shakli bu xalqaro mehnat kooperatsiyasi(XMK) bo'lib, u mehnat taqsimotining baynalminal ko'lamda birlashishini mujassamlashtiradi.

XMK ning asosiy belgilarini quyidagicha ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- * tomonlar o'rtasida o'zaro hamkorlik shart-sharoitlarining oldindan shartnoma asosida kelishib olinishi;
- * turli mamlakatlar hamkor-korxonalarining ma'lum, o'zaro kelishilgan soha bo'yicha xo'jalik faoliyatini muvofiqlashtirib turilishi;
- * ishlab chiqarish kooperatsiyasining bevosita sub'ekti sifatida turli mamlakatlarning korxona/firma/lari ishtirok etishi;
- * tayyor mahsulot, texnologiya, qismlar ishlab chiqarishning shartnoma asosida kelishib olinishi;
- * ishtirokchilar o'rtasida topshiriqlarning o'zaro kelishilgan dastur asosida taqsimlanishi, hamda ularning ishlab chiqarish ixtisoslashuvini ta'minlash.

Respublikamizning jahon hamjamiyatiga qo'shilishining shart-sharoitlari va tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari mustaqilligimizni qo'lga kiritish bilan vujudga kela boshladi. Vujudga kelgan vaziyat tashqi iqtisodiy majmuani boshqarishning o'ziga xos tizimini shakllantirish, aloqalarni yo'lga qo'yish borasida qoida va tamoyillarni ishlab chiqish, respublikamizning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilish yo'llarini belgilashni taqazo etdi.

Respublikamiz prezidenti I.Karimovning "O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li", "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" va "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarlarida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy tamoyillari o'z aksini topgan. "O'zbekiston o'zining tashqi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda milliy xususiyatlaridan kelib chiqib, yaratilgan tamoyillarga qat'iy rioya qiladi, ularni boyitib va kengaytirib borib, tashqi siyosiy hamda iqtisodiy

faoliyatning asosiy yo'nalishlarini qat'iyat va izchillik bilan turmushga tadbiiq etadi"¹, deb ta'kidlaydi Prezidentimiz.

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotida va jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etishining asosi ochiq turdagi iqtisodiyotni vujudga keltirishdir. Hozirgi kunda O'zbekistonni 170 ga yaqin davlat tan oldi, dunyodagi 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatik aloqalar o'rnatilgan, Toshkentda 35 dan ortiq mamlakatning elchixonalari faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz to'la huquqli asosda eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo, masalan: BMT ning iqtisodiy muassasalari, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, yevrupo qayta tiklash va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo qayta tiklash va taraqqiyot banki, hamdo'stlikning mintaqaviy iqtisodiy tashkiloti va boshqalar. Bundan tashqari Umumjahon savdo tashkiloti (VTO) ga kuzatuvchi maqomini oldi. Agar respublikamiz bu tashkilotga haqiqiy a'zo bo'lib qo'shilsa, uning ishtirokchilari bo'lgan 128 ta mamlakat bilan savdo-sotiq qilish uchun imkoniyat va imtiyozlarga ega bo'ladi.

Mavjud imkoniyatlardan samarali va oqilona foydalanish natijasida respublikamizning kuch va qudratini, iqtisodiy salohiyatini oshirish, xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rnini egallashida iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish, import o'rnini bosadigan va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar assortimenti, hajmini kengaytirish bugungi kunning asosiy vazifasidir.

1- jadvalda respublikamizning tashqi savdo oboroti to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki mamlakatimizning tashqi iqtisodiy faoliyati yil sayin kengayib bormoqda. Masalan, yalpi tashqi savdo oboroti 2010 yilda 21842,4 mln.doll.ni tashqil qildi, bu 1997 yildagiga nisbatan 4.1 barobarga, 2008 yilga nisbatan esa 14,1% ga o'sdi. Mustaqil hamdo'stlik davlatlari bilan savdo-sotiq 2010 yilda 9424.5 mln.doll.ni tashqil qildi Uzoq xorij mamlakatlari bilan savdo aloqalari jadal o'smoqda, 1997 yilda bu ko'rsatkich 2199.4 mln.doll.ni tashqil etgan bo'lsa, 2010 yilda esa bu 5,6 martaga oshdi. Sof eksport 2010 yilda ijobiy saldoga ega bo'lib, 4246,6 mln.doll.ni tashqil qildi.

1- jadval.

O'zbekiston respublikasining tashqi savdo oboroti
(mln.AQSH dol. hisobida).

Ko'rsatkichlar	1997 yil	2008 yil	2010 yil
Yalpi tashqi savdo oboroti	5299.4	19077,0	21842,4
shundan: MDH bilan	3100.0	7214,5	9424,5
Xorijiy davlatlar bilan	2199.4	11862,5	12417,9
Yalpi eksport	2689.9	11572,9	13044,5
MDH bilan	1683.5	4010,8	5898,7
Xorijiy davlatlar bilan	1006.4	7562,1	7145,8
Yalpi import	2609.5	7504,1	8797,9
MDH bilan	1416.5	3203,7	3525,8
Xorijiy davlatlar bilan	1193.0	4300,4	5272,1
Sof eksport	+80.4	+4068,8	+4246,6

¹ И.А.Каримов. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. Т.: Ўзбекистон, 1992. 24-27 бетлар.

MDH bilan	+267.0	+807,7	+2372,9
Xorijiy davlatlar bilan	- 186.6	+3261,7	+1873,7

Manba: Respublika makroiqtisodiyot va statistika vazirligi ma'lumotlari.

Hozirgi sharoitda, eng avvalo, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlanish sur'atlaridagi salbiy jarayonlarni bartaraf etish lozim. Ayniqsa, bu milliy iqtisodiyot asosiy tarmoqlarining rivojlanishida, tashqi savdoning o'sish sur'atlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tashqi savdoni rivojlanishida so'nggi yillarda ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Ijobiy o'zgarishlarga: eksport-import bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarni ro'yxatga olish amaliyotini soddalashtirilishi; tashqi iqtisodiy aloqalar import kontraktlarini dastlabki ro'yxatga olishning bekor qilinishi; qo'shimcha qiymat solig'idan tashqari barcha turdagi soliq va yig'implarni to'lashdan ozod qilingan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan raqobatbardosh tayyor iste'mol tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha choralarning qo'llanilishi; Davlat bojxona qo'mitasi (DBQ), Markaziy Bank (MB) va Davlat soliq qo'mitasi (DSQ) o'rtasida tashqi savdo amaliyotlarida ayriboshlashning yagona elektron tizimining yaratilishi; joriy xalqaro amaliyotlar bo'yicha milliy valyutani (so'mni) erkin ayirboshlash, konvertastiyaning kiritilishi; yuridik shaxslar, shuningdek eksport-import amaliyotlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar uchun yog'och va yog'och mahsulotlarini import qilishda bojxona to'lovi stavkasi nolga tenglashtirilishi bo'ldi.

Eksport tarkibida sifat o'zgarishlari ro'y berdi. energiya va neft mahsulotlaridan tashqari tovarlarning barcha guruhlari bo'yicha 2010 yilga nisbatan eksport hajmining ko'payishi kuzatildi. Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar (mashina va uskunalar, engil sanoat mahsulotlari, boshqa tayyor buyumlar) mavqei yaxshilandi. Shu tariqa, avtomobilsozlik sanoati mahsulotlari hisobiga mashina va uskunalarni eksport qilish hajmi 2,1 marta oshdi. Yil davomida respublikaning asosiy eksport tovarlariga qulay baho kon'yunkturasi kuzatildi. Paxta va oltinning jahon bozorlarida yuqori baholar saqlanib turdi. Xitoy, Avstraliya va Afrikaning bir qator hududlarida kam paxta hosili olinishi oqibatida, jahon bozorida bir tonna paxta tolasining bahosi ko'tarildi. Paxta xom ashyosini eksport hajmi 2009 yilga nisbatan 46,4%, rangli va qora metallar 52,7%, oziqg'ovqat mahsulotlar 77,1% ga oshdi. eksportdagi paxta tolasining ulushi 2,7 foiz darajaga oshdi va 11,3%ni tashqil etdi, energetik resurslarning ulushi esa 19,8 foiz darajaga kamaydi. Rangli va qora metallar ulushi 6,8%ni tashqil etdi va 2009 yilga nisbatan 1,8% oshdi.(2- jadval).

Respublikamiz tashqi savdosida nafaqat miqdoriy o'zgarishlar yuz berib qolmasdan, balki tarkibiy o'zgarishlar ham amalga oshirildi. Asta sekinlik bilan

eksport tovarlari tarkibida xom-ashyo emas tayyor mahsulotlar ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda, shu bilan birga import tarkibi ham o'zgarib bormoqda. Asosiy e'tibor mashina va asbob- uskunalar, yangi texnologiyalar va "nou-xau" keltirishga qaratilmoqda.


2- jadval

O'zbekiston Respublikasining eksportining tarkibiy o'zgarishi
(2008-2012 yillar) jami eksportga nisbatan foiz hisobida

	Yillar				
	2008	2009	2010	2011	2012
Export	100	100	100	100	100
paxta tolasi	17,2	12,5	9,2	8,6	11,3
oziq-ovqat mahsulotlari	7,9	8,5	4,4	6	9,7
kimyo sanoati mahsulotlari	5,6	6,8	5,6	5	5,1
energiya va neft mahsulotlari	13,1	20,2	25,2	34,2	24,8
qora va rangli metallar	12,9	11,5	7	5	6,8
moshina va uskunalar	10,1	10,4	7,5	2,9	5,5
xizmatlar	12,1	10,7	10,4	8,8	9,1
boshqalar	21,1	19,4	30,7	29,5	27,7

Tashqi iqtisodiy faoliyatda Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p tomonlama aloqalarni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Respublikamizning Yaqin Sharq va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarga yaqinligi va chegaradoshligi, yevropa va Osiyo mamlakatlari savdo yo'lida joylashganligi tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu eksportga ixtisoslashgan qo'shma korxonalarni yaratish, tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha chegaradosh xo'jaliklarni tashqil qilish, erkin iqtisodiy mintaqalarni shakllantirish negizida tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada rivojlantirish imkoniyatlari vujudga keladi.

Mamlakatimiz tashqi savdo geografiyasi ham yildan –yil kengayib bormoqda. Mamlakatimiz eksportini barqarorlashtirishda uning tarkibini diversifikatsiyalash bilan bir qatorda eksport qilinadigan bozorlarni diversifikatsiyalanishi ta'minlash muhimdir. SHu bois ham mustaqillik yillarda mamlakatimiz korxonalari eksportini amalga oshiruvchi davlatlar ko'payib bormoqda. An'anaviy MDH mamlakatlari bozorlar bilan bir qatorda uzoq xorij mamlakatlariga eksportini yo'lga qo'yish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda O'zbekiston eksportining asosiy qismi Rossiya, SHvetsariya, Afg'oniston, Ukraina, eron, Xitoy, Qozog'iston, turkiya kabi mamlakatlarga to'g'ri keladi (3-rasm).



3-rasm O'zbekiston Respublikasi eksportining mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishi (2009 yil % hisobida)

Respublikamizning qadimiy “Buyuk Ipak Yo’li” da joylashganligi sababli yevroosiyo iqtisodiy va madaniy ko’prik vazifasini o’tashi mumkin. Ana shunday ko’prik doirasida tovarlar, texnologiyalar, sarmoyalar, ishchi kuchi, madaniy qadriyatlarining harakat qilishi va ayriboshlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratilishi mumkin.

Hozirgi kunda respublikamizda importni o’rnini qoplash va eksportga yo’naltirilgan ishlab chiqarishni qo’llab-quvvatlash dasturi amalga oshirilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xorijiy sarmoyalarni ustuvor yo’nalishlarga jadalroq jalb qilish, ularga kafolat va imtiyozlar berish, litsenziya, “nou-xau”lar sotib olishda, kadrlarni tayyorlashda valyuta tushumlarini sarflashda erkinliklar berishga qaratilgan izchil siyosat olib borilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish ushbu sohada boshqaruvni takomillashtirish, eng avvalo sanoat korxonalarining boshqarish va iqtisodiy rag’batlantirish tizimini yaratishga ko’p jihatdan bog’liqdir. Prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganidek: “Jahon talablari darajasidagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, ularning raqobatga bardoshlilikini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun korxonalarni zamonaviy ilg’or texnologiya, eng yangi uskunalar, ayniqsa kichik va o’rta korxonalar uchun mo’ljallangan ixcham uskunalar bilan jihozlash talab qilinadi”¹. Haqiqatdan ham jahon bozori tovarlarga, ularning sifatiga yuksak talab qo’yadi, raqobat kurashida yenga olgan korxonagina o’z tovarini sota oladi.

¹ И.А.Каримов. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Т.: Ўзбекистон, 1995. 102-103 бетлар.

1997 yilning oktyabrida e'lon qilingan prezidentimizning "Tovar(ishlar, xizmat) lar eksportini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni va keyingi yillarda uni bajarilishi jarayonida kiritilgan me'yoriy xujjatlar respublikamiz korxonalarining eksportga tovar ishlab chiqarishini yanada kuchaytirishga olib keladi. Farmonga ko'ra, o'sha yilning 1 noyabridan boshlab O'zbekistonda barcha eksport bojxona soliqlari bekor qilindi va uning o'rniga eksport qiluvchilar uchun yangi imtiyozlar berildi. Bu imtiyozlarning ayrimlarini keltiradigan bo'lsak, ular:

- * korxona o'zi ishlab chiqargan mahsulotini erkin almashtiriladigan valyutada sotadigan bo'lsa, u holda oldindan to'lov va akkreditivsiz eksport qilish huquqi beriladi;

- * tovar eksporti ichki bozor bahosidan past bahoda amalga oshirilganda, soliqqa tortish haqiqatda sotilgan baho yuzasidan amalga oshiriladi;

- * eksportga chiqarilayotgan tovarlar hajmi umumiy sotish hajmining 30 foizini yoki undan ortig'ini tashqil qilsa, daromadga solinadigan soliq miqdori ikki marta qisqartiriladi;

- * MHD ga mahsulot eksport qiladigan korxonalar 1998 yil 1 yanvardan boshlab aktsiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadilar;

- * mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha ishlab chiqarish korxonalari chet davlatlarda o'zlarining savdo uylarini, vakolatxonalarini ochishlari mumkin, shu bilan birga ularga konsignatsiya shartlari asosida tovar yetkazib berishlariga ruxsat berildi.


Yuqorida sanab o'tilgan imtiyozlar respublikamizning eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab quvvatlash, korxonalarning eksportga mahsulot chiqarishidan moddiy manfaatdorligini oshirish, eksport tarkibida tayyor mahsulotlar miqdorini ko'paytirish bo'yicha ko'rgan navbatdagi tadbirlaridir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, hamda zarur bo'lgan infrastrukturallarni yaratishga katta ahamiyat berilmoqda. Bular jumlasiga Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Xorijiy sarmoyalar bo'yicha agentlik, "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi, AqSH bilan hamkorlikda tuzilgan "O'zAIG" interneyshnl sug'urta kompaniyasi va hokazolarni kiritishimiz mumkin. Bu tashkilot va muassasalar respublikamizga xorijiy sarmoyalarning kirib kelishini tezlashtirishda, ustuvor yo'nalishlarni aniqlashda, ularni sug'urtalashda, bank va konsalting xizmatlari ko'rsatishda o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Xorijiy sarmoyalarning ulushi yil sayin oshib bormoqda

Xorijiy sarmoyalarni jalb qilish orqali ko'p miqdordagi loyihalar amalga oshirildi. xorijiy mamlakat sarmoyalari bilan tuzilgan qo'shma korxonalar soni 3061 tadan oshib ketdi, shulardan hozirgi kunda 1950 taga yaqini faoliyat olib bormoqda. 2010 yilda mamlakatimizda ishlab chiqarigan sanoat mahsulotining 33,1 % qushma korxonalarda yaratildi.

Shu bilan birga tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi, shuningdek ekport hajmini oshishi mamlakatimizning barcha hududlarida bir hil emas. Respublika eksportniyu asosiy qismi Toshkent shahri, Qashqadaryo viloyati va Toshkent viloyatlariga to'g'ri keladi ushbu hudular mamlakatimiz eksportining 74 foizimni

ta'minlaydi. (2-rasm). Bu esa mamlakatimizning aksriyat yilhudularidagi ko'plab korxonalar tashqi iqtisodiy jarayonlarda sust ishtirok etayotganidan dalolat beradi. Shuning mazkur hududlarda eksport diversifikatsiyasi xam sezilarli emas, eksportning sosini xanuz paxta tolasi tashqil etadi. Xususan, Surxondaryo viloyati eksportning tahlil qiladigan bo'lsak,



2-rasm O'zbekiston eksportining mamlakatlar bo'yicha tarkibi (2009yil, % hisobida)

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rnini topishi va eksport salohiyatini yanada rivojlantirishi uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- * respublikaning eksport imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishga sharoit yaratish, eksportga yo'naltirilgan milliy iqtisodni shakllantirish;
- * mablag'larni eksportga mo'ljallangan, raqobatbardosh, fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoatning ustuvor yo'nalishlarida jamlash;
- * tashqi iqtisodiy faoliyat tarmoqlari majmuini - ixtisoslashtirilgan savdo uylari, lizing, konsalting, franchayzing va sug'urta firmalarini; bank, transport, kommunikatsiya tizimini yanada takomillashtirish;
- * mahsulotlarni standartlash va sertifikatsiyalash xalqaro tizimiga jadallik bilan o'tishni ta'minlash;
- * tarmoq ichida eksportga mahsulot ishlab chiqaruchi maxsus tsex yoki korxona tashqil qilish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish;
- * texnopark yoki texnopolislar tashqil qilish asosida ilmiy tadqiqot va tajriba - loyiha ishlarini bevosita ishlab chiqarish bilan qo'shib olib borish;
- * milliy litsenziyalash va patentlash tizimini bugunning talabi asosida tashqil qilish;
- * doimiy ravishda ichki va tashqi bozor kon'yunkturasi marketing tadqiqotlarini amalga oshirish, xaridorlar ehtiyojiga mos keladigan tovarlar gammasini yaratish va hokazolar.

Nazorat uchun savollar:

1. TIF mohiyati va shakllari.
2. Tashqi iqtisodiy siyosatdagi ikki yondashuv.
3. TIFni tartibga solish predmeti.
4. Tarifsiz cheklamalar nima ?
5. TIFni bojxona cheklamalari tushunchasi.
6. UST buyicha TIFni erkinlashtirish printsiplari.
7. TIFni tartibga solishda standartlarning roli.
8. TIFdagi mikdoriy va valyuta cheklamalarning ahamiyati.

2-Mavzu. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashqil etish va boshqarish.

REJA.

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning mohiyati va xususiyatlari.
2. Davlatning tashqi savdo siyosati, tashqi savdo strategiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosati mohiyati va tamoyillari

Tayanch iboralar:

Davlatning TIFni tartibga solish vazifalari, TIFning tashqi va ichki omillari, GATT (UST), bojxona tarif tartibga solishlari, tarifdan tashkari cheklashlar, TIFni mikdoriy va valyuta cheklamalari, TIF qatnashchilari tengligi, TIFni erkinlashtirish, TIF buyicha davlat dasturi.

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning ahamiyati va xususiyatlari.

Boshqaruv umumiy va universal tushuncha bo'lib, sub'ektlarga va shu sub'ektlar orqali ularning faoliyatiga ta'sir qilishni anglatadi. Boshqaruvning mazmuni uning *sohasi* (TIF, sanoat, transport va boshqalar) hamda *darajasi* (davlat, mintaqaviy, sohalar, korxona va b.) bilan belgilanadi. Har qanday soha va har qanday darajadagi boshqaruv munosabatlarning har xilligini qamrab oladi va ob'ektiv va sub'ektiv omillar yig'indisi ta'siri ostida bo'ladi. Boshqaruvning harakati va uning uslublari, tamoyillari, rivojlanishi aniq iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi.

Bozor sharoitida davlatning butun iqtisod va tashqi iqtisodiy faoliyatga ta'siri xususiyati qisman o'zgaradi: u tartibga solish, ya'ni asosan iqtisodiy usullar bilan butun iqtisod va uning tashqiliy qismlarining foydali harakatini ta'minlovchi ma'lum sharoitlarini yaratuvchanlik shaklini oladi. "Tartibga solish" atamasi bilan bir qatorda Savdo va ta'riflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) va qator mamlakatlar hujjatlarida "reglamentatsiya" atamasi ham ishlatiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat davlat tomonidan tartibga solinishining ob'ektiv zaruriyati, iqtisodiy nazariyada tan olingan va sanoati rivojlangan mamlakatlar xo'jalik yuritish amaliyoti bilan tasdiqlangan. TIFning davlat tomonidan tartibga solinishi butun jahonda keng qo'llaniladi. Bozor xo'jaligi sharoitlarida u milliy iqtisod manfaatlaridan kelib chiqqan holda TIFni takomillashtirishni rag'batlantiruvchi, amalga oshiruvchi va nazorat qiluvchi qonuniy chora-tadbirlar

tizimini tashqil etadi. Bu chora-tadbirlar davlat korxonalari hamda ijtimoiy tashkilotlar tomonidan ham amalga oshiriladi. Tartibga solishdan maqsad – mamlakat tashqi iqtisodiy kompleksini xalqaro mehnat taqsimotining o'zgaruvchan sharoitlariga moslashtirish va barqarorlashtirishdir.

Davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifasi-TIFning zamonaviy kontseptsiyalarini ishlab chiqishdir. Kontseptsiya-nazarda tutilgan sohaning rivojlanish maqsadlari, natija va foyda olish yo'nalishlarini, (masalan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning) vazifalarni belgilashni o'z ichiga oladigan umumiy g'oyadir.

Tashqi va ichki omillar har doim tashqi iqtisodiy siyosatga ikki xil yondashishni talab qiladi. Bular savdo erkinligi va proteksionizmdir. Savdo erkinligi deganda, tashqi savdo masalalari bo'yicha qaror qabul qilinishida xorijiy tovarlarning milliy bozorga cheklanmagan kirish imkoniyati tushuniladi. Proteksionizm esa davlatning tashqi iqtisodiy, tashqi savdo faoliyatiga aralashuvini, milliy ishlab chiqarishni qo'llab- quvvatlash maqsadida xorijiy tovarlarga nisbatan har xil chegirmalar amalga oshirishni taklif etadi. Har xil davrlarda har xil mamlakatlarda bu ikki yondashuv bir vaqtda mavjud bo'lgan, ammo ularning o'zaro munosabatlari har xil, ya'ni tashqi va ichki omillardan kelib chiqib belgilanadigan bir-biridan ustunligidir.

Zamonaviy sharoitlarda tashqi iqtisodiy siyosat-davlat hokimiyatining xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, fan-texnika, ishlab chiqarish va boshqa aloqalarni rivojlantirishga va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning strategik vazifalarini yechish maqsadida mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashishini chuqurlashtirish va kengaytirishga qaratilgan davlat hokimiyati tadbirlari tizimidir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinishi milliy iqtisodning boshqa doiralarini tartibga solish bilan qiyoslaganda o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Bu o'ziga xoslik har bir davlat xalkaro savdoning me'yor va tamoyillari bilan hisoblashishi zarurligidan kelib chiqadi. Har qanday davlat o'zining rivojlanishi, iqtisodiyotining foydaliligini oshirishda, o'z milliy manfaatlarini amalga oshirish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda boshqa mamlakatlar manfaatlariga putur yetkazmasligi va xalkaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar darajasidan chiqmasligi zarur.

SHunday qilib, davlatning TIFni tartibga solish chegaralari bir tomondan, milliy eksportni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ehtiyoj bilan belgilansa, boshqa tomondan, xalqaro tashkilotlar qoidalari bilan belgilanadi.

TIFning tartibga solish predmeti quyidagilardir:

- milliy eksportchilarni rag'batlantirish;
- jahon bozorida milliy eksportchilarning mavqeini mustaxkamlash uchun har xil tashqiliy choralarni amalga oshirish;
- milliy firmalarga xorijiy kapital qo'yishning o'sishiga yordam berish.

Agar shularni hisobga oladigan bo'lsak yuqorida ko'rsatilgan vazifalar ancha qiyindir.

Bundan tashqari, barcha davlatlar o'z milliy firmalarining raqobatchilari faoliyatini cheklash uchun har xil usullardan foydalanadi, masalan, ularning ichki

bozorga kirib kelishiga to'sqinlik qilish, ularning ish olib borishi uchun og'irroq sharoit, yuqori ekologik talablar va boshqalar yaratish.

Mintaqaviy kirib boruvchi guruhlarining paydo bo'lishi shunga olib keldiki, milliy darajadagi tartibga solish bilan birga, mintaqaviy guruhlar ichida, ya'ni tashqi iqtisodiy faoliyatni mintaqaviy darajada tartibga solish amalga oshirila boshlandi.

2. Davlatning tashqi savdo siyosati, tashqi savdo strategiyasi.

Har qanday mamlakatdagi tashqi iqtisodiy faoliyatning tartibga solinishi boshqa mamlakatlar tashqi iqtisodiy faoliyati natijalarida, albatta, aks etadi, chunki jahonning har xil mamlakatlari ishlab chiqarishi, tovar almashinuvi va iste'moli bir-biriga bog'liqdir. Tashqi iqtisodiy aloqalarning chuqurlashishi va kengayishi bilan TIFni ko'p tomonli tartibga solish kuchaymokda. Har bir mamlakatda tashqi iqtisodiy faoliyat milliy huquq me'yorlari, ikki taraflama bitimlar, mintaqaviy hamda xalqaro tashkilotlar doirasidagi ko'p tomonli kelishuvlar asosida tartibga solinadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni xalqaro tartibga solish BMT tizimidagi va unga kirmaydigan xalqaro tashkilotlar doirasidagi shartnomalarda ko'rsatilgan. Bu 1947 yilda jahon savdosining bojxona-tarif masalalarini tartibga solish uchun tuzilgan ta'rif va savdo bo'yicha asosiy kelishuv—. Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) dir.

Barcha mamlakatlarining jahon savdosini erkinlashtirishga intilishi Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) doirasidagi kelishuvlarni ishlab chiqish va qabul qilish tamoyillarida aks etadi. Ular quyidagilardan iborat:

- kamsitmaslik, o'zaro eng qulay usullarni taqdim etish;
- milliy bozorlarni muhofaza qilishning ko'prok tarif vositalaridan foydalanish;
- bojxona tariflarini uzluksiz tarzda tushirish;
- savdo-siyosiy yon berishda hamkorlik qilish;
- mojarolarni kengash va muzokaralar yordamida yechish.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) 1948 yildan 1994 yilgacha yagona savdoni tartibga soluvchi xalqaro tashkilot edi. (YUNKTAD kabi boshqa xalqaro tashkilotlarning savdo-siyosiy masalalardagi qarorlari ko'proq tavsiyaviy xususiyatga ega). Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) "raund"larda ishlab chiqilgan va qabul qilingan qator kodeks va kelishuvlardan iboratdir. Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning mavjudligi davrida 8 ta raund o'tkazilgan. Ularning har birida sanoati rivojlangan mamlakatlarda bojxona tariflarini pasaytirish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan, natijada o'rtacha import tariflari stavkasi 1947 dagi 40-60% dan 1990 yillar boshida 3-5% gacha kamaydi.

TIFning bevosita qatnashchilari uchun tarifsiz (tarifdan tashqari) cheklashlarni, ya'ni chet el tovarlarining ichki bozorga kirishga har xil to'siqlarni tartibga solish bo'yicha Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning oxirgi ikki - Tokio va Urugvay raundlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning tasnifiga ko'ra, tarifdan tashqari cheklashlar besh guruhga bo'linadi.

1. Davlatning tashqi savdo tadbirlarida qatnashishi: eksport tovarlarini subsidiya qilish, tovarlar sotib olishning davlat tizimi.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning subsidiya va kompensatsiya choralari bo'yicha kelishuviga o'ziga xos, ya'ni bo'lak korxona yoki korxonalar guruhiga beriladigan subsidiya tushunchasi kiritilgan edi.

Agar import tovari davlat subsidiyasi bilan ishlab chiqarilgani aniqlansa, importchi mamlakat qat'iy belgilagan rasm-rusumlarga ko'ra olib kelingan tovarga badal bojini qo'yishga haqi bo'ladi, bunda milliy va import tovarlari bozorda bir xil mavqeda bo'ladi. Badal bojining miqdori davlat subsidiyasi miqdoriga qarab belgilanadi. yevropa Ittifoqi qonunchiligi davlat tomonidan subsidiya qilishning barcha ko'rinishini insofsiz raqobat turiga kiritadi va ushbu qonunlarga rioya qilishni nazorat etish maqsadida raqobat qoidalarini buzganligi uchun uchinchi mamlakatlar korxonalariga jarima solish huquqiga ega bo'lgan yel komissiyasiga topshiriladi.

2. Importning bojxona va ma'muriy rasmiyatchiliklari: antidemping bojlari, bojxona qiymatini baholash usullari, tovarni yetkazib berishda zarur bo'lgan hujjatlarga qo'yiladigan talab.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning tarifi bo'yicha demping – bir mamlakat mahsulotining ikkinchi mamlakat bozorida, o'sha mahsulot milliy ishlab chiqaruvchilarga ziyon keltirishi, yangi milliy mahsulot ishlab chiqarishni sezilarli darajada sekinlatishi, "o'rtacha baho" dan past bahoda sotilishidir. "O'rtacha baho" dan kam deganda jahondagi bahodan kam yoki shu mahsulot eksportchi mamlakatda sotilayotgan bahosidan past baho tushuniladi.

3. Iste'molchilar xavfsizligi, sanitariya me'yorlari bilan bog'liq o'lchov va talablar; o'rash-qadoqlashga bo'lgan talablar.

Hozirgi paytda ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq chegaralashlar kuchaymokda. Bular:

- tarkibida xavfli moddalar, belgilangan chegaradan ortiq bo'lgan mahsulotlarni import qilishni taqiqlash;

- o'rab-joylangan va ishlatib bo'lingan materiallarni qayta qabul qilish bo'yicha majburiyatlar;

- ekologik soliqlar va boshqalar.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) ning kelishuvlaridan biri sanitar va fitosanitar choralar bo'yicha qabul qilingan. Unga ko'ra, mamlakatlar o'z fuqarolarining hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maqsadida choralar ko'rish huquqiga egadirlar. Namunalarning standartlarini umumlashtirish bilan Xalqaro standartlar tashkiloti, Xalqaro elektro-texnika komissiyasi, O'lchov va og'irliklar xalqaro tashkiloti, qonunchilik metrologiyasi xalqaro tashkiloti va boshqalar shug'ullanadilar.

4. eksport va importni miqdoriy va valyutaviy jihatdan cheklashlar.

Miqdoriy cheklashlar - to'g'ridan-to'g'ri import va eksportni cheklashga qaratilgan chegaralardir. Zamonaviy savdo-siyosiy amaliyotida miqdoriy cheklashlarning ikki asosiy turi qo'llanadi. Bular: kontinentlashtirish va litsenziyali

tartib. Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) miqdoriy cheklashlardan kamsitadigan tarzda foydalanishni, ya'ni faqat qaysidir bir mamlakatlardan olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan qo'llashni taqiqlaydi. Agar miqdoriy cheklashlar barcha mamlakatlarga teng darajada qo'llanilmasa, u holda kamsitiladigan deb hisoblanadi. Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) miqdoriy cheklashlar ma'lum bir mamlakatlarga nisbatan faqat to'lov muvozanatini tenglashga erishish maqsadida va davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan qo'llashgagina ruxsat beradi.

Jahon bozorida raqobat ko'rashining kuchayishiga sabab bo'ladigan eksportchi o'ziga nisbatan "ixtiyoriy" miqdoriy cheklashlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

5. *GATT tasnifi bo'yicha tarifdan tashqari cheklashlarning beshinchi guruhi - to'lovlar strukturasi bilan bog'liq cheklashlardir*: import depozitlari–importchi bank tomonidan keyingi to'lovlar uchun kafolat sifatida qo'yiladigan mablag'lar bo'lib, bu pul vositalarini to'xtatishga olib keladi; soliqlar va soliq imtiyozlari o'z ta'siriga ko'ra bojxona bojlariga o'xshashdir, lekin bojlar xalqaro darajada tartibga solinadi va davlatlar bu bilan hisoblashishiga majburlarlar. Soliqlar faqat milliy darajada tartibga solinadi, qo'shimcha qiymat solig'i, aktsizlar va boshqalar - bu davlatning ichki ishidir. Ba'zan bojxona hududini kesib o'tayotgan tovarlar bahosidagi soliq 50% ni tashqil etadi. Soliq solish qoidaga ko'ra tovar ishlab chiqarilgan mamlakatda yoki jo'natilayotgan mamlakatda amalga oshiriladi. Ikki yoqlama soliq solinishining oldini olish maqsadida davlatlar o'zaro ikki tomonlama bitim tuzadilar.

GATT bitimlari orasida tovarlar bahosi, ularni ishlab chiqarish va eksport qilishga davlat tomonidan bir qancha cheklashlar qo'yiladigan ba'zi tovarlar bilan jahon savdosi bo'yicha bitimlar muhimdir. Masalan, sut mahsulotlari va mol go'shti bilan savdo qilish. Urugvay raundidagi muzokaralar natijasida spirtli ichimliklarning ba'zi turlari, qurilish va qishloq xo'jalik mahsulotlari, ofis jihozlari, o'yinchoqlar va farmatsevtik tovarlarga bo'lgan bojlar yo'q qilindi.

Urugvay raundida savdo munosabatlarini tartibga solishning yangi shartnoma-huquqiy tizimini yaratish to'g'risidagi va GATTning barcha asosiy bitim va tamoyillarini o'zida saqlagan yangi tashkilot - Umumjahon savdo tashkiloti (UST) tashqil etilishi to'g'risida bitim qabul qilindi, shuning uchun ham adabiyotlarda ko'p hollarda Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) UST deb yoziladi.

SHunday qilib, savdoning xalqaro qoidalariga rioya qilishni nazorat etish va tashqi savdo aloqalarini tartibga solishning kuchaytirilishi an'analarga rioya qilinmokda.

3. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosati mohiyati va tamoyillari

Tashqi iqtisodiy siyosat tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish rejimini aniqlash va mamlakatning halqaro mehnat taqsimotida ishtirokini optimallashtirish bo'yicha davlat va uning organlarining maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini ko'zda tutadi. TIS ning asosiy tashqil etuvchilari qo'yidagilar: tashqi savdo siyosati (eksport va import siyosatini o'z ichiga oladi), chet el investitsiyalarini jalb qilish

va xorijda ilmiy kapital qo'yilmalarni tartibga solish sohasidagi siyosat, valyuta siyosati. Bundan tashqari TIS alohida davlat va mintaqalar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarning geografik muvofiqligi bo'yicha muhim masalalarni hal qilishni ko'zda tutadi. Tashqi iqtisodiy faoliyat aynan TIS yordamida aniqlanadi va tartibga solinadi. mamlakatlarida samarali TISni shakllantirish uchun uning asosiy tamoyillarini aniq va ravshan aniqlash zarur. Bunda TIS da Markaziy o'rinni tashqi iqtisodiy faoliyatni qatnashchilarining xulqini iqtisodiy - huquqiy tartibga solish egallaydi. U umummilliy manfaatlarga javob berishi lozim. Ichki bozorda xorijiy raqobatni tartibga solishda mamlakat bojxona qonunchiligi bazasidagi bojxona tarifi asos bo'lib xizmat qiladi. Bu mamlakatga halqaro savdo-siqtisodiy tizimga umum qabo'l qilingan qoidalar bo'yicha integartsiyalashuviga imkon yaratib, Umumjahon savdo tashkilotiga yo'l ochadi. Bunda murakkab inqiroz sharoitida milliy iqtisodiyotning jahon

iqtisodiyotiga kirishi bosqichma-bosqishlab chiqarish bo'lishi zarur. SHuning uchun mamlakatlarining avvalambor qo'yidagi amoyillarga asoslanib kuriladi:

- davlatning tarmoq va mintaqalar rivojlanish siyosatini ishlab chiquvchi shakllantiruvchi roli, unga asosan mamlakatning TIS, shu bilan birga bojxona instrumentlari va chet el investitsiyalari rejimini shakllantiriladi;
- turli mamlakatlar firmalarning TIS ni doimiy, o'zoq muddatli aloqalarga hamda tashqi bozorlarni saqlab turish va kengaytirishga yo'naltirish;
- TIS ning hukumat tarmoqlari, vakolatxonalari, hamda o'rtasida aniq taqsimlanishi;
- TIS - mamlakat tashqi siyosatining tarkibiy qismi. Bu bog'liklik iqtisodiy diplomatiya sohasida ko'proq namoyon bo'lib, u asosan savdo jarayoniga xizmat qiladi. SHuning uchun mamlakat eksporterlar uchun jahon bozorida qulay sharoitlar yaratish mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosatning markaziy masalalardan biri bo'lishi lozim. Zamonaviy tashqi iqtisodiy siyosatini ko'rib chiqib, birinchi navbatda uning qo'yidagi vazifalariga e'tibor qaratish lozim:
- xorijiy mamlakatlar va ularning savdo - iqtisodiy guruhlari, tashkilot va ittifoqi bilan bo'ladigan munosabatlarda qulay savdo - siyosiy rejimga erishish, mavjud diskriminatsion cheklashlarni bartaraf etish;
- milliy korxonalarga jahonning mashina va uskuna, texnologiya va axborot, kapitallar, mineral xom ashyo resusrlari, transport kommunikatsiya bozorlariga murojaat etish imkoniyatini ta'minlash. Bunda mamlakat korxonalari mahsulotini transmilliy kompaniyalar tomonidan nazorat qilinadigan bozorlarda ilgari surilishi uchun siyosiy, moliyaviy, axboot ko'magini ko'rsatish muhim ahamiyatga ega;
- kreditor-mamlakatlar, halqaro tashkilotlar va MDX mamlakatlari qarzdorlari bilan munosabatlarda valyuta - moliyaviy muammolarni o'zoq muddatga tartibga solish;
- mamlakatimiz tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishning samarali tizimini shakllantirish. Jahon tajribasida TISni tartibga solishning ikki modeli mavjud. Birinchi model - eksportga, ikkinchi model mavjud. Birinchi model - eksportga, ikkinchi esa- import o'rnini boshiga yo'naltirilgan. Birinchi modelga avvalambor AQSH, ikkinchi jahon urushidan so'ng-g'arbiy yevropa mamlakatlari, YAponiya, ulardan keyin - yangi industrial davlatlar amal qilishdi. MDX

mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasida samarali strategiya bo'lib iqtisodiyotni eksportni faol o'sishiga yo'naltirilgan qayta qurish hisoblanadi. Jahon tajribasi ko'rsatganidek, TIS samaradorligini asosi va iqtisodiy xavfsizlik sharti bo'lib eksport salohiyatini rivojlantirish va milliy eksportlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. MDX mamlakatlari uchun bu ayniqsa muhim, negaki eksportni rivojlantirish orqali savdo balansining ijobiy saldosi saklab solishga erishish va tashqi qarzorlikni qoplash mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boshqarilishining xalqaro tajribasi hozirgi vaqtda O'zbekistonda qo'llanilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishdagi yangilik – davlatning rolga yondashishidadir. Bu yangi yondashuv davlatning ahamiyatini asoslaydigan tamoyillar, TIFni tartibga solishning vazifalari, mazmuni va ularning o'zaro nisbati tubdan o'zgartirmoqda. TIFni davlat tomonidan boshqarishning asosiy vazifasi – uning qonunchilik asoslarini yaratish, TIFning barcha ko'rinish va shakllarini rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashqiliy sharoitlarni yaratish va uning foydaliligini oshirishdir. Hozirda davlatning TIF sub'ektlari tomonidan mavjud qonunchilikka rioya qilinishi va milliy xavfsizlikni ta'minlashni nazorat qilish vazifasi mustahkamlanmoqda.

TIFni davlat tomonidan boshqarishning tamoyillari "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi va "Tashqi savdo to'g'risidagi" qonunlarda ko'rsatilgan. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

- TIF qatnashchilarining tengligi va ularning kamsitilmasligi;
- TIF qatnashchilari huquq va manfaatlarining davlat tomonidan muhofaza qilinishi;
- davlat va uning organlari korxonalar tashqi savdo faoliyatiga asossiz aralashuviga chek qo'yish;

TIFni davlat tomonidan boshqarish uni moliyaviy, valyuta, kredit, bojxona-tarif va tarifdan tashqari tartibga solish, eksport nazoratini ta'minlashni, tovarlarni olib kirish va olib ketish munosabati bilan sertifikatsiyalash sohasidagi siyosatini belgilab olishdan iborat. Bunday boshqarishning barcha yo'nalishlari amalagi qonunchilikka asoslanadi.

Davlatning eng muhim vazifalaridan biri tashqi iqtisodiy faoliyat va u asosida tashqi iqtisodiy siyosatning boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik qiladigan qoidasini ishlab chiqishdir.

Davlat tomonidan boshqarish (tartibga solish)ning maqsadi-barcha darajadagi foydali tashqi iqtisodiy faoliyatni ta'minlovchi huquqiy iqtisodiy va tashqiliy sharoitlarni yaratishdir. Bu bosqichda eksportni rivojlantirish davlat dasturida belgilangan strategik maqsadni amalga oshirish uchun sharoit yaratish zarur: eksport qilinadigan mahsulot sifatini yaratish, eksportning tovar va geografik strukturasini takomillashtirish kerak.

Xalqaro amaliyotga ko'ra, O'zbekiston o'z strategik maqsadlarga erishishiga yordam beradigan tashqi savdo sohasidagi masalalarni yechishi zarur. Bunda, birinchidan, Respublikaning Umumjahon Savdo Tashkilotiga kirishi to'g'risida boradi, ya'ni O'zbekistonning har kanday mamlakat bilan ikki tomonlama tashqi savdo siyosati borasida UST tizimlarida savdo bahslarini ko'rib chiqish

imkoniyatlari, O'zbekiston tovarlariga miqdoriy cheklashlar kiritish jarayonini murakkablashtirish, qarshi talablarni kelishish va boshqa ko'plab imkoniyatlarni beruvchi ko'p tomonlama siyosatga aylandi.

Ikkinchidan, bu xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro savdoni erkinlashtirish, manfaatdor mamlakatlar orasidagi savdo oqimining tuzilishi va o'zgarishi masalalarini savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyalar darajasida yechishdir.

O'zbekiston va yel orasida imzolangan hamkorlik to'g'risidagi bitim o'zbek tovarlarining yelga a'zo mamlakatlar bozorlariga kirishiga yordam beradi, uning asosida O'zbekiston va bir qancha yevropa mamlakatlari o'rtasida milliy buyumlarni GFR xududiga kiritishning sharoitlari to'g'risidagi bitim imzolandi.

Uchinchidan, tashqi siyosat sohasidagi vazifa mintaqaviy guruhlariga a'zo mamlakatlarning kollektiv proteksionizmga qarshi turish imkonini beruvchi savdo-siyosiy birlashmalar tuzishdir. Ikki tomonlama soliq solishni istisno qilish va kapital kiritishni himoya qilish, TIF qatnashchilarining konsultatsiyasi va xabardorligi bo'yicha o'zbek savdo vakolatxonalari hamda davlat organlari va ijtimoiy birlashmalar masalalari bo'yicha tuzilgan bitimlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Savdo-iqtisodiy munosabatlar sohasida islohotlar erkin savdo mintaqasini shakllantirish jarayoni va Bojxona ittifoqini yaratish jarayonida amalga oshiriladi. 1993 yil dekabrda a'zo davlatlar korxona va sohalarining ishlab chiqarish hamkorligini qo'llab quvvatlashning umumiy sharoitlari va tuzilishi to'g'risidagi bitim katta ahamiyatga egadir.

Unga ko'ra quyidagilar ishlab chiqarish hamkorligi va ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish darajasidagi tovar va xizmatlar olib borilishida qo'llanilmaydi:

- olib kirish va olib chiqish bojlari;
- soliqlar;
- aktsizlar;
- miqdoriy cheklamalar.

TIF davlat tomonidan boshqarilishini faqat qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishni emas, balki milliy manfaatlarga rioya qilishni nazorat etish iqtisodiy xavfsizlik ta'minlanishini bildiradi.

Evropa Iqtisodiy komissiyasining 1997 yil 27 maydagi qaroriga ko'ra, 1 iyuldan yelga a'zo-mamlakatlarda temir va po'latdan cheksiz quvurlarning olib kirilishiga vaqtinchalik dempingga qarshi bojlar o'rnatildi. Boj miqdori juda baland, bojxona qiymatining 32,9% ni tashqil etadi.

Valyutani tartibga solish - davlatning milliy manfaatlarini himoya qilish maqsadida TIF qatnashchilariga ta'sir qilishning ko'rinishlaridan biridir. Bu ta'sir O'zbekiston Respublikasining "Valyuta operatsiyalarining tartibga solish va valyuta nazorati to'g'risida"gi qonuni asosida amalga oshiriladi.

Tashqi savdoni valyutani tartibga solishning eng ko'p tarqalgan usullaridan biri – bu valyuta tushumlarining bir qismini milliy valyuta evaziga sotish majburiyatidir. "Valyuta cheklamalari" deb atalmish vositalar valyuta jihatidan tartibga solish usullaridir: valyuta operatsiyalarining davlat tomonidan nazorat

qilinishi, valyuta operatsiyalarini vakolatli banklarda jamlash, kapitalni olib chiqishni cheklash va boshqalar.

Eksportni rivojlantirishning davlat dasturida O'zbekiston iqtisodini rivojlantirishning zamonaviy bosqichdagi tashqi iqtisodiy aloqa va xususiyatlarning milliy xossalari inobatga olingan jaxon amaliyotidan foydalanilgan. Bu dasturga kura milliy iqtisodni jaxon iqtisodiga kirib borishini tartibga solish eksportni kengaytirish va uning tuzilishini takomillashtirish import tizimini mukammallashtirish, hamda xar xil kurinishdagi kushma tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sharoit bilan ta'minlashga karatilgan iqtisodiy, tashqiliy - xuquqiy siyosiy xarakterga ega bulgan choralari majmuasini uz ichiga oladi.

Eksportni ragbatlantirishning iqtisodiy choralari kredit berish, sugurta, davlat kafolati berishlarni uz ichiga oladi. SHuni ta'kidlash kerakki bu choralari avvalo vatan mashina texnik eksportining eng yaxshi jaxon namunalari darajasidagi, yukori ishlov berilgan tovarlari ishlab chikaruvchi korxonalarning korxonalarni ragbatlantirishga karatiladi. Davlat dasturiga kura birinchi ragbatlantirish choralari kurilgan ob'ektlari orasida ishlab chikarish xamkorligining: tovarni tayyorlash, yigish, boshqa tovarlarga moslash; kayta ishlash va tovarlarga ishlov berish; ularni kayta tiklash va tartibga solishni uz ichiga oladigan, tovarlarni ta'mirlash; maxsulotni ishlab chikarish va kayta ishlashga yordam beradigan ba'zi tovarlardan foydalanish kabi turlari ajratilgan.

Eksportga moliyaviy yordam berish kuyidagi choralarni uz ichiga oladi:

- Respublika xukumatining moliya vazirligi orkali eksportga yunaltirilgan ishlab chikarish va tashkilotlarni aylanma vositalari bilan ta'minlash uchun vakil qilingan banklarni jalb etish buyicha kafolat majburiyatlarini berilishi;

- tijorat va siyosiy xatarlardan eksporterlari himoyasini ta'minlash uchun davlat kafolat va majburiyatlarni berish va eksport kreditlarini sugurta qilish;

- eksport ishlab chikarishni rivojlantirish uchun jixozlari sotib olish (loyixalarni uzini koplash muddatiga karab uzoq muddatli kreditlari); respublikada ishlab chikarilmaydigan xom ashyo, materiallari va butlovchi buyumlarni uz ichiga olgan uzoq jarayonli eksport maxsulotini ishlab chikarishni kreditlash;

- 180 kundan oshik muddatli tijorat kreditlash asosida eksport tashuvini mablag' bilan ta'minlovchi banklarga davlat kafolatlarini berish;

- xalqaro savdoda katnashishni kreditlash buyicha davlat kafolatlari bilan ta'minlash;

- tashqi bozorlarni uzlashtirish buyicha operatsiyalarni sugurta qilish;

Soliq ragbatlantirishining sanoati rivojlangan mamalakatlarda qabul qilingan xar xil turlariga muhim axamiyat beriladi.

Eksportga yunaltirilgan, eksport va ishlab chikarishning kullab kuvvatlash choralaridan biri - investitsiya loyixalarini lizingdan foydalanib mablag' bilan aralash - davlat tijorat ta'minlashidir.

Eksportni ragbatlantirish choralari kuyidagilarni uz ichiga oladi:

- ishbilarmonlari doiralarini eksportni ragbatlantirish buyicha kushma tadbirlari utkazishga keng jalb etish;

- davlat organlarining eksportning faol xarakati va xorijdagi vatan tadbirkorlari mafaatlari himoya qilish borasidagi faol ishini tashqil etish;

- milliy eksport tovarlari reklamasini takomillashtirish;
- kurgazma yarmarka ixtisoslashtirilgan simpozium va konferentsiyalar tashqil etish;
- TIF sohasidagi ilmiy tadqiqodlar utkazish;
- malakali kadrlar tayyorlash.

TIF rivojida davlat byudjeti mablag'lari xisobiga ta'minlanadigan tashqi savdo axborotining yagona tizimini yaratish katta rol uynaydi. Davlat organlari (DBK(GTK) MVES(TIAV)) hamda maxsus xizmatlar tomonidan olib boriladigan maslaxat ishlarini olib borilishi xam eksport operatsiyalarini faol olib borish uchun zarur sharoitdir.

Eksportni davlat tomonidan tartibga solish va yangicha yondashish va uni kullab kuvvatlashning ishlab chikilgan amaliy choralar natijasida tashqi iqtisodiy kompleksi potentsiali usmokda, tashqi bozorda O'zbekistonning mavkei mustaxkamlamokda.

Nazorat uchun savollar:

1. TIF printsiplari.
2. Tashqi iqtisodiy siyosatdagi ikki yondashuv.
3. TIFni tartibga solish predmeti.
4. Tarifsiz cheklamalar nima ?
5. TIFni bojxona cheklamalari tushunchasi.
6. UST buyicha TIFni erkinlashtirish printsiplari.
7. TIFni tartibga solishda standartlarning roli.
8. TIFdagi mikdoriy va valyuta cheklamalarning axamiyati.

3-Mavzu: Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish tizimi va mexanizmi.

REJA.

1. Tashqi savdo jarayonlarining tasniflanishi.
2. Tashqi iqtisodiy faoliyatda vositachilik operatsiyalari va ularning tasnifi.
3. Tashqi iqtisodiy faoliyatda hamkorlik munosabatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi.
4. Tashqi iqtisodiy faoliyatda ijara munosabatlari.

1. Tashqi savdo jarayonlarining tasniflanishi

Tashqi iqtisodiy faoliyatning muhim shakllaridan biri – tashqi savdo bo'lib, uni to'g'ri rejalashtirish, tashqil etish, boshqarish va amalga oshirish, aniqligiga erishish uchun tasniflash lozim. *Tasniflash* deganda xalqaro tijorat kelishuvini oldi-sotti va tovar almashish kelishuvlariga ajratishni tushunish mumkin. Bu tasnif oldi-sotti kelishuvlarida sotuvchi (tashqi savdo kelishuvlarida eksportchi deb ataladi) kelishuv ob'ekti bo'lgan tovarni kelishuvning bevosita qatnashchisi bo'lgan xaridorga (tashqi savdo kelishuvlarida importchi deb ataladi) qandaydir pul

summasini to'lash majburiyatini olgan taqdirda, berish majburiyatini oladi, tovar almashish kelishuvlarida esa bir tovar kelishuv turiga bog'liq shartlarga rioya qilingan tarzda ikkinchisiga almashtiriladi. Tabiiyki, oldi-sotti va tovar almashtirish to'g'risidagi kelishuvlarda tovarni chet elga olib ketish (eksport) yoki chet eldan olib kelish (import) bo'ladi.

Xalqaro savdoda reeksport va reimport tushunchalari ham mavjuddir. Reeksport operatsiyalari mamlakatga oldin olib kirilgan tovarlarni qayta ishlovsiz olib ketish va sotishni nazarda tutadi. Tovarlarini o'ziga olib kelgan va keyin uchinchi mamlakatga olib chiqqan mamlakat (yoki undagi tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari) reeksportchi deb ataladi. Reeksport operatsiyalari reeksportchi bilan ikki tashqi savdo shartnomasining tuzilishini nazarda tutadi. Birinchi shartnomaga ko'ra, u tovarni sotib oladi, ikkinchisiga ko'ra esa sotadi.

Reeksportchi bitimlarining eng asosiy sharti shuki, reeksportchi tovarlarni qayta ishlashga yo'l qo'ymaydi, tuzilishi va dizayniga hech qanday o'zgartirish kiritmaydi. Reeksport operatsiyalari asosan oxirgi importchining buyurtmasiga binoan amalga oshiriladi. Agar u eksportchi mamlakat bozoriga chiqa olmasa va bu chiqish uchun xarajatlarni hohlamasa, unga eksportchi bilan yaxshi aloqada bo'lgan reeksportchiga murojaat qilish osonroq, balki reeksportchi oxirgi importchi oldidagi qandaydir boshqa majburiyatlar uchun unga sotuvning foydaliroq shartlarini taklif etishi mumkin. Ba'zan alohida mamlakatlarga nisbatan eksport yoki importni cheklovchi savdo-siyosiy sharoitlar reeksport operatsiyalariga sabab bo'ladi.

Agar sotuvchi uchinchi mamlakatda tovarni sotish huquqini cheklamoqchi bo'lsa, odatda bu narsa o'z sotish bozorlari manfaatini himoya qilish bilan bog'liq bo'ladi, bu narsa oldi-sotdi shartnomasida aniq ko'rsatilishi kerak.

Reimport operatsiyalari o'z mohiyatiga ko'ra – amalga oshmagan eksport operatsiyalaridir, ular mamlakatga undan oldin olib ketilgan tovarlarni qayta olib kelishni bildiradi. Ularga xaridor tomonidan brak qilingan, auksionda sotilmagan, konsignatsion omborlar orqali sotilmagan tovarlarning qaytarib kelishi kiradi. Reimport operatsiyalarining asosiy belgilaridan biri mamlakatda chiqarilgan tovarlarning o'z mamlakati chegarasini ikki marta, ya'ni olib chiqishda va olib kelishda kesib o'tishidir. Ko'rgazma va yarmarkadan qaytarilayotgan tovarlar reimport qilishga kirmaydi.

Kompensatsiya operatsiyalarining barter operatsiyalaridan farqi shundaki, unda har ikkala tomondan bir qancha tovarlar almashiladi. "Konvertatsiya qilinmaydigan saldo" tushunchasi kompensatsiya bitimlari bilan bog'liqdir.

Kompensatsiya bitimlarini amalga oshirish mexanizmi quyidagicha bo'ladi:

- har bir kontragent tovarlarning ikkita ro'yxatini tayyorlaydi: birida u sotmoqchi bo'lgan tovarlar ro'yxati, ikkinchisida esa u xarid qilmoqchi bo'lganlari ko'rsatiladi;

- uchrashgach, kontragentlar tovarlar ro'yxatini muhokama qiladi va natijada ikki ro'yxat aniqlanadi: birinchisida Daniya firmasi yetkazib beradigan tovarlar, ikkinchisida esa o'zbek firmasi yetkazib beradigan tovarlar ko'rsatiladi;

- tovarlar ro'yxatini kelishgach, kontragent-tomonlar ro'yxatning har bir bandi bo'yicha baholarni kelishib oladilar;

– yetkazib berish bahosi va boshqa shartlarni kelishgach, tomonlar ikki ilovali shartnomalar imzolaydilar: bitta ilovada O'zbekistonga yetkazib beriladigan tovarlar ro'yxati, ikkinchisi esa – Daniyaga yetkazib beriladiganlari bo'ladi. Ilovalarda har bir tovar nomi bo'yicha baho ko'rsatiladi, shartnoma matnida esa o'zaro yetkazib berishlarning umumiy summasi beriladi.

Oxirgi paytda kompensatsiya asosida keng ko'lamli operatsiyalar rivojlanib ketdi. Bunday operatsiyalarning mohiyati shundaki, bir mamlakat boshqa mamlakatning jihoz va texnologiyasidan foydalanib, o'z hududida masalan, yerida sanoat ob'ekti quradi. Bu ob'ekt qurib ishga tushirilgach, uning mahsuloti bilan yetkazib berilgan jihoz va texnologiya uchun hisob-kitob qiladi. YUqorida ta'riflangan oddiy kompensatsiya operatsiyalaridan keng ko'lamli operatsiyalar quyidagilar bilan farq qiladi:

– kompensatsiya operatsiyalari odatda mablag' jihatdan kam summada bo'lgan paytda, keng ko'lamli operatsiyalar yuz minglab, xatto millionlab dollar hajmida bo'lishi mumkin;

- keng ko'lamli operatsiyalarga kredit (kredit bo'lganda ham uzoq muddatli va katta summalarga) berishni amalga oshirish uchun yirik banklar jalb etiladi;

- odatda keng ko'lamli operatsiyalar to'g'risidagi bitimdan oldin mamlakatlararo davlat darajasidagi bitim imzolanadi;

- odatda keng ko'lamli operatsiyalar uzoq muddatli xususiyatga ega bo'ladi (10 yilgacha va undan ortiq). Bundan tashqari ob'ektning qurib bo'linishi va kreditlar to'lab bo'lingandan so'ng ham kontragentlar orasidagi munosabatlar ham davom etadi.

2.Tashqi iqtisodiy faoliyatda vositachilik operatsiyalari va ularning tasnifi.

Xalqaro savdodagi bitimlarning juda ko'p miqdori vositachilik ishini olib borayotgan korxonalar yordamida amalga oshiriladi. Bu bo'limda savdo-vositachilik operatsiyalarining asosiy turlari, ularni amalga oshirishning mexanizmi yoritib beriladi, ularning o'ziga xosligi ochib beriladi. Savdo-vositachilik operatsiyalari deganda, ishlab chiqaruvchi va iste'molchining topshirig'i bilan ular bog'liq bo'lmagan, ular orasidagi bitim yoki maxsus topshiriq asosida ish ko'ruvchi savdo vositachisi tomonidan bajariladigan oldi-sotdi operatsiyalariga aytiladi. Iqtisodiy ma'nodagi savdo vositachiligi-ancha keng tushuncha bo'lib, asosan chet el kontragentini izlash, bitimlarni tayyorlash va bajarish, tomonlarni kreditlash va xaridorga tovarga to'lash uchun kafolat berish, transport va operatsiyalarni amalga oshirish va tovarlarni tashishda tovarlarni sug'urta qilish, bojxona rasmiyatchiliklarini bajarish, tovarlarni chet el bozorlariga yuritish uchun reklama va boshqa tadbirlar o'tkazish, texnik xizmat ko'rsatish va boshqa operatsiyalarni o'tkazishlarni o'z ichiga oladi.

Vositachini jalb etish:

– tovar sotish tezligini oshirish va kapital aylanishini tezlashtirish hisobiga foydani ko'paytirish;

- bevosita kon'yunkturani yaxshilash davrida xorij bozorida tovarni sotish hisobiga foydani oshirish, chunki vositachilar oxirgi iste'molchilar bilan birga talabning har qanday o'zgarishiga sezgirlik bilan javob beradi;

- mahsulot birligiga qaratilgan chiqimlarni kamaytirish hisobiga foydani ko'paytirishni o'z ichiga oladi.

Vositachilik operatsiyalari savdo va fuqarolik huquqiy me'yorlari bilan tartibga solinadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik kodeksi" ikki turdagi vakillikni (bir shaxsning ikkinchi shaxs o'rniga ma'lum yuridik harakat qilish uchun vakil qilinishi) ko'zda tutadi. O'zbek korxonalarini xorijiy vositachilarga murojaat qilishda shartnoma shartnomalaridagi xususiy huquq me'yorlari yoki xalqaro xususiy huquq me'yorlari o'zbek korxonalarining eksport-import operatsiyalariga to'g'ri kelishi yoki kelmasligiga qaraydi.

Tashqi savdodagi vositachilarni o'zlariga berilgan vakolatlaridan foydalanish usuli va bozordagi o'rniga qarab tasnif qilish mumkin. Vositachining huquq va majburiyatlari ularning vakolat beruvchilar bilan shartnomasida belgilanadi. Bunda vositachi uchinchi shaxs bilan bitim imzolay oladimi, kimning hisobidan va kimning nomidan u bu ishni qila oladi kabi savollar hal qilinadi.

SHuning uchun vositachilarni to'rt asosiy guruhga bo'lish mumkin:

- uchinchi shaxslar bilan bitim tuzish huquqiga ega bo'lmagan vositachilar (agent vakil, broker, dallollar);
- o'z nomidan, lekin vakil qilingan shaxs hisobidan uchinchi shaxs bilan bitim imzolaydigan vositachilar (komissionerlar, konsignatorlar);
- vakil qilgan shaxs nomidan va hisobidan uchinchi shaxs bilan bitim imzolaydigan vositachilar (vakil agentlar, savdo agentlari);
- o'z nomi va o'z hisobidan uchinchi shaxs bilan bitim imzolaydigan vositachilar (savdogarlar, distribyutorlar, dilerlar). Agent, vakil faqat ma'lum bozorda tovarlarni kelishilgan baho bo'yicha printsiptial (vakil qilingan shaxsni) ning manfaatini himoya qiladi. U na o'zi va na printsiptial nomidan agent tovar uchun shartnoma imzolash huquqini olmaydi.

Agent-vakillikka katta firmalar yoki ishbilarmonlar doiralarda yetarli darajada yuqori o'rinni egallaydigan jismoniy shaxslar jalb etiladi. Agar shu agent yordamida shartnoma imzolansa unga 2-5% miqdorida mukofat to'lanadi, bitim summasi katta bo'lganda esa bu summa katta miqdorni tashqil etib, agentning qilgan xarajatlaridan ancha yuqori bo'ladi. Ammo printsiptial bu bitimga kelajakda shu xarid bilan agent-vakilning qatnashuviziz bitim tuzish maqsadida rozi bo'ladi.

Brokerlik operatsiyalari – aniq belgilangan tovar yoki operatsiyalar bo'yicha ishlaydigan mutaxassis vositachi-brokerlar tomonidan amalga oshiriladi.

Brokerlar – tovarlarni sotish va sotib olish bo'yicha harakat hiluvchi shaxslar bo'lib, o'zlari shartnoma tomonida ham sotuvchi ham xaridor bo'lib ishtirok etmaydi. Ularning vazifasi sotuvchi uchun xaridorni topish va ular orasida shartnoma tuzilishida yordam berishdir. Tovarlarni bo'yicha ishlovchi brokerlarga misol – Angliyadagi yog'och mahsulotlari bo'yicha brokerlardir. Angliyadagi yog'och mahsulotlari bo'yicha operatsiyalarning deyarli hammasi brokerlar orqali amalga oshiriladi.

Operatsiyalar bo'yicha ishlaydigan brokerlar bular birja brokerlaridir. Broker ishini shu tarzda sxematik tarzda tasvirlash mumkin.

Komission operatsiyalarida komitent va komissioner kontragentlar bo'ladi. Buning mohiyati shundaki, komitent komissionerga komissioner qoshida, ammo komitent hisobidan uchinchi kontragent bilan oldi-sotdi operatsiyasini amalga oshirishni topshiradi.

Distribyutorlar o'z nomi va o'z hisobidan tovar sotish bilan shug'ullanadi, ularni o'zi tovarlarning buzilish yoki yo'qolishi, hamda xaridorlarning to'lovga qobiliyatsizligi natijasida vujudga keladigan tavakkallarni o'z bo'yinlariga oladi.

Distribyutorlik agentlik bitimlar printsiptial uchun shunisi bilan qiziqki, ular unga yangi bozorlarga chiqish imkonini beradi, bir necha yillar davomida uning tovari reklamasini bu bozorlarda bo'lishini ta'minlaydi, o'z sotish tarmoqlari yoki ularni yaratish uchun mablag'i bo'lgan firmalar bilan tuziladi, tovar yetkazib berish uchun oldi-sotdi shartnomalari bilan bo'ladi, konsignatsiya shartnomalaridan farq qilib, tovarni yetkazib bergandan so'ng tezda tovar uchun to'lovni olinishini kafolatlaydi (agar tovar kreditga yetkazib berilayotgan bo'lmasa), begona mamlakat xududida tovarning shikastlanishi yoki yo'qotilishi bilan bog'liq xarajatlarning bo'lishini istisno qiladi, chunki uni sotib olgach distribyutor uning egasi bo'ladi.

Sotishning katta va doimiy hajmlarida agent bosh agent deb ataladi. Bo'lak aholi punktlariga xizmat ko'rsatuvchi dilerlar va ma'lum regionlarda ishlovchi subagentlardan iborat o'z sotish tarmog'ini tashqil etadi. Agentning mukofati tovarni printsiptialdan sotib olgandagi baho bilan uni qayta sotishdagi bahosi orasidagi farq bo'ladi. Bozordagi o'rniga ko'ra vositachi-agentlar "birinchi qo'l" huquqiga ega bo'lgan oddiy agentlarga va monopol yoki eksklyuziv (maxsus) agentlarga bo'linadi. Oddiy agentlik to'g'risidagi bitim vositachiga kelishilgan hududda printsiptial tovarlarning ma'lum ro'yxatini sotish va undan foyda olishdir. Bunday bitim mustaqil yoki boshqa agentlar yordamida xuddi shu bozorga oddiy agentga qandaydir mukofot yoki to'lov to'lamay chiqa oladigan printsiptialning huquqlarini cheklamaydi. Agentlik bitimida printsiptialning mustaqil yoki boshqa vositachilar orqali shu bozorda manfaatliroq tijorat shartlarida sotmasligi to'g'risidagi majburiyati ham yoziladi. Oddiy agentlik bitimi vositachiga bozordagi barqaror mavqe kafolatini bermaydi, printsiptial esa agentning faol ishiga umid qila olmaydi. Shuning uchun ham oddiy agentlik shartnomalari odatda eksportchi yangi bozorga chiqayotganda qisqa muddatga (bir yilgacha), ba'zan esa yaxshiroq sherik tanlab olish va qobiliyatini baholash uchun bir necha agentlar bilan ham tuziladi.

3. Tashqi iqtisodiy faoliyatda hamkorlik munosabatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi

Biror-bir tovarni sotish yoki xarid qilish niyatida sotuvchi va xaridorlardan sherik qidirish va tanlash borasida katta ish olib boradilar. Bunda ularning imidji (nufuzi), asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini to'liq, o'zaro o'rganish amalga oshiriladi. Har qanday tashqi savdo bitimlarining tuzilishidan oldin ko'p ish

qilinadi, tayyorlov bosqichida eksportchining ham importchining ham asosiy vazifasi kontragentni tanlash va topishdir.

Tabiiyki hamma firmalar ham yuqorida sanalgan ma'lumotlarni ola olmaydi, lekin ular tijorat siri hisoblanmaydi va axborot nashrlarida chop etiladi, qanchalik ko'p ma'lumotlar yig'lsa bunday firma bilan ishlash osonroq va ishonchliroq bo'ladi, firmaning moliyaviy hisoboti bo'lajak sherik to'g'risidagi qimmatli axborotlardir, ularni o'rganish bo'lajak kontragentning moliyaviy ahvolini baholash imkonini beradi. Har xil ko'rgazma va yarmarkalarda qatnashish savdo sherigini tanlashda juda katta foydalidir. Qiziqtirgan sohadagi firmalar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqqach va mumkin bo'lgan kontragentni tanlagach, u bilan aloqa o'rnatishga o'tish mumkin. Buning yo'llaridan biri-bu bo'lajak kontragentga tijorat taklifi (oferta) jo'natishdir.

Oferta - bo'lajak bitimning barcha asosiy shartlarini o'z ichiga oladi, bular tovar nomi, miqdori, sifati bahosi, yetkazib berish shartlari, yetkazib berish muddatlari, to'lov shartlari, idish va o'rash xususiyati, qabul qilish-topshirish tartibi, yetkazib berishning umumiy shartlaridir. Oferta yordamida bitim tuzish qoidolari BMTning 1980 yil 1 iyulda qabul qilingan halqaro oldi sotdi shartnomalari to'g'risidagi konventsiyasi yordamida tartibga solinadi. Xalqaro savdo amaliyotida ofertaning ikki xil turi mavjud, bular: qat'iy va erkin ofertalardir. qat'iy oferta – sotuvchi (oferent) tomonidan bir xaridorga ma'lum bir tovarni sotish uchun qilgan taklif bo'lib, unda oferentning amal qilish muddati, ya'ni oferentning ofertada sanab o'tilgan shartlarga o'zini majbur deb hisoblanadigan vaqt ko'rsatilgan bo'ladi. quyida qat'iy oferta namunasi berilgan.

Bozorni foyda bilan sotish yoki foydali xarid maqsadida o'rganish-bu marketing deb ataladigan xo'jalik faoliyatining yagona kompleks yo'nalishidir. Har xil sohalarda, bunday tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi ko'plab firmalar mavjud, tezkor tashqi savdo xizmatchilarining vazifasi esa marketing tadqiqotlari natijalarini eng ko'p samara bilan shilatilishidir. Banklar ma'lumotlari, ixtisoslashgan ma'lumot kompaniya va tashkilotlar ma'lumotlari, yillik hisobotlari, reklama nashrlari, prospektlar, ko'rgazmalar ro'yxatlari, firmalar ro'yxatlari, har xil ma'lumotnomalar, hamda firmalar to'g'risida xabarlar beriladigan davriy matbuot materiallari mumkin bo'lgan kontragentni topishda qizg'in bahsga sabab bo'ladi. Savdo uylari, assotsiatsiyalar, ma'lumot-informatsiya agentlari tomonidan nashr etiladigan firma ma'lumotnomalari axborot manbalari orasida muhim o'rin egallaydi. Bir mamlakat firmalarini o'z ichiga olgan, halqaro hamda bo'lak sohalarda bo'yicha ma'lumotlar bordir. Bunday ma'lumotnomalarga asosan: AVS Evropa Prodiotion (eksportchilarning umumevropa ma'lumotnomasi, GFRda nashr etiladi), Kelly's Business Directory (Buyuk Britaniya), Austria Export Data(Avstriya), Melbourne Bia (Avstraliya), Wer Baut Masehinen und Aniagen(GFR), Trade Directory fon Denmavk (Daniya), Italia Tedevexpoit (Italiya), Katalog dev itannovev Messe(Gannoverdagi ko'rgazma katalogi, GFR), World Aidlar kiradi. Ma'lumotnomalardan bo'lajak kontragentlar to'g'risida bilish mumkin bo'lgan ma'lumotlar asosan quyidagilar: to'liq va qisqartirilgan nomlar; pochta va telefon manzillari; teleks, telefon, faks raqami; firmaning tashqil topgan yili va rivojlanish bosqichlari; faoliyati sohasi va asosiy savdo yoki ishlab

chiqarish tovarlari, xizmat turlari; firmaning o'z operatsiyalarini amalga oshiradigan banklar; firmaning egalari yoki asoschi kompaniyalar; rahbar organlar tarkibi; firmaning joylashgan joyi va soni; dochernie i assotsirovanno'e firmo'; firmada bandlar soni; faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (savdoning yillik hajmi, foyda, aktivlar, xususiy kapital va boshqalar); kapitalda qatnashishi orqali boshqa firmalar bilan aloqalar; boshqa firma va tashkilotlar bilan shaxsiy aloqalar; firmaning ish obro'si va rahbarlari to'g'risida ma'lumotlar.

Tabiiyki xamma firmalar ham yuqorida sanalgan ma'lumotlarni ola olmaydi, lekin ular tijora siri hisoblanmaydi va axborot nashrlarida chop etiladi, qanchalik ko'p ma'lumotlar yig'lsa bunday firma bilan ishlash osonroq va ishonchliroq bo'ladi, firmaning moliyaviy hisoboti bo'lajak sherik to'g'risidagi qimmatli axborotlardir, ularni o'rganish bo'lajak kontragentning moliyaviy ahvolini baholash imkonini beradi. Har xil ko'rgazma va yarmarkalarda qitnashish savdo sherigini tanlashda juda katta foydalidir. qiziqtirgan sohadigi firmalar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqqach va mumkin bo'lgan kontragentni tanlagach u bilan aloqa o'rnatishga o'tish mumkin. Buning yo'llaridan biri-bu bo'lajak kontragentga tijorat taklifi (oferta) jo'natishdir. Oferta Oferta bo'lajak bitimning barcha asosiy shartlarini o'z ichiga oladi, bular tovar nomi, miqdori, sifati narxi, yetkazib berish shartlari, yetkazib berish muddatlari, to'lov shartlari, idish va o'rash xarakteri, qabul qilish-topshirish tartibi, yetkazib berishning umumiy shartlaridir. Oferta yordamida bitim tuzish qoidalari BMTning 1980 tilda qabul qilingan xalqaro oldiqsotdi shartnomalari to'g'risidagi konvetsiyasi yordamida tartibga solinadi. Xalqaro savdo amaliyotida ofertaning ikki xil turi mavjud bular: qattiq va erkin ofertalardir. qattiq oferta qattiq ofer-bu sotuvchi (oferent) tomonidan bir mumkin bo'lgan xaridorga ma'lum bir tovarni sotish uchun qilgan taklifi bo'lib, unda oferentning amal qilish muddati, ya'ni oferentning ofertada sanab o'tilgan shartlari o'zini majbur deb hisoblanadigan vaqt ko'rsatilgan bo'ladi. quyidagi qattiq oferta namunasi berilgan, OBI Inc., Remington dr Sunnywell, California, USA Oferta №1 20 may 1998 yil "Mozaika" ishlab chiqarish tijorat firmasi Sizga quyidagi tovarni, quyida sanalgan shartlarda sotib taklif etadi: Tovar nomi: charmdan tikilgan sport sumkalari. Miqdori: o'n ming dona Bahosi donasi o'n to'rt AqSH dollaridan: Umumiy summasi: bir yuz qirq ming AqSH dollari Etkazib berish shartlari: Franko-tashuvchi Toshkent aeroportida. To'lov shartlari: 60 kunga ochiladigan chaqirilmaydigan xujjatli akkreditiv, "Mozaika" firmasi foydasiga bizning tushirib olish to'g'risidaga xabarnomani olingan kundan boshlab o'n kun ichida ochiladigan va Toshkentdagi O'zbekiston Milliy bankida ijro etiladigan. To'lov quyidagi hujjatlar ko'rsatilgandan so'ng amalga oshiriladi: - hisob faktura; - tushirish ixtisosi; - avtotransport yo'l qog'ozi. Etkazib berish muddati 1998 yil iyun. Oferta xarakati: qattiq oferta, ofertaning amal qilish muddati- uch oy "Mozaika" ICHTF direktori. A.A. Sidirov agar xaridor ofertaning barcha shartlariga rozi bo'lsa, oferentga oferta aktsentiga tasdiq jo'natadi, ya'ni oferta shartlariga tasdiq jo'natadi. Agar xaridor ofertaning bir yoki bir necha shartlariga rozi bo'lmasa sotuvchiga uning taklifiga javob yoki o'zini tlari bo'yicha ozod deb xisoblaydi yoki xarodorga uning barcha fikrlari hisobga olingan oferta jo'natadi. Bitimni tuzilishidan manfaatdor bo'lgan tomonlar to'liq kelishuvga erishguncha oferta va

kontrofertalar aralashuvi yo'li bilan tomonlar shartlarni kelishishadi. Agar ofertaning amal qilish muddati tugaguncha xaridordan javob olinmasa, bu xaridor sotib olish niyati yo'qligini bildiradi va bu sotuvchini qilgan taklifidan ozod qiladi. Erkin oferta Erkin ofertaning amal qilish muddati bo'lmaydi, sotuvchini ofertada ko'rsatilgan shartlariga qandaydir muddat davomida rioya qilishga majbur qilmaydi. Xaridorning oferta shartlariga roziligi uning shartlari ko'rsatilgan qattiq kotroferta bilan tasdiqlaydi. Agar sotuvchi kontrofertani qabul qilsa va bundan xaridorni yozma ravishda ozod qilsa, bitim tuzilgan deb hisoblanadi va tomonlar kontrofertada ko'rsatilgan barcha shartlarni bajarishga majburdirlar. Agar ofertda uni chaqirib olinmaydiganligi yozilmagan bo'lsa shartnoma tuzilguniga qadar taklif sotuvchi tomonidan qaytarib olinishi mumkin, ammo bu narsa xaridor uni qabul qilganligini tasdiqlagunicha qinishi mumkin. Agar tasdiq kechikib jo'natilgan bo'lsa va u holda u faqat sotuvchi rozi bo'lsa va u xaridorni bu to'g'rida yozma ravishda xabardor qilsagina o'z kuchini saqlab qoladi. So'rov Agar importchi biror bir tovarni sotib olishdan manfaatdor bo'lsa, mumkin bo'lgan kontragentni topib u bilan aloqa bog'lashning eng yaxshi yo'li uning nomiga so'rov yuborishdir (2-rasmga qarang). Namunadan ko'rinib turibdiki so'rovning asosiy maqsadlaridan biri-bu eksport firmalaridan tijorat takliflarini olishdir. Odatda so'rovda kerakli tovarning aniq nomi, uning sifati, navi, miqdori ko'rsatiladi va tova olib kelish va to'lov shartlari to'g'risida mumkin qadar to'liq axborot so'raladi. So'rovlarni bir yoki bir nechta mamlakatlarning bir qancha firmalarigajo'natilgan ma'quldir. Bu bir qancha raqobatli takliflar olish maqsadida qilinadi va keyinchalik ulardan foydalirog'i tanlab olinadi. Tribba Vision GmbH Holbachstr., 27 Affenbura, BRD 8.02.98 SO'ROV Hurmatli janoblar yevropa savdo ma'lumotnomasidan Sizning firmangiz doim taqiladigan kontakt linzalari ishlab chiqaruvchilar orasida ilg'orlaridan biri ekanligini bilib oldik. Sizning yangiliklarni joriy etish markazingiz yumshoq kontakt linzalarni sotib olishdan manfaatdor. Shuning uchun sizdan o'n mingta kontakt linzalari jo'natishdan iborat tijorat taklifingizni yo'llashingizni so'raymiz. yetkazib berish sharti "Toshkentgacha olib borish to'langan" bo'lgani ma'qul. Bizni akkrediti bilan to'lov qanoatlantiradi. So'raladigan partiya ancha kattaligini inobatga olib bizga ulgurji chegirmalar berishingizga umid qilamiz. Oramizda uzoq muddatli va samarali hamkorlik paydo bo'lishiga ishonamiz. "Rux" Ya.T.M. direktori: V.V. Valiev__Buyurtma Eksportchining vakillari bilan shaxsan suhbatlar yoki o'tgan muzokaralar, o'zishma va xaridlar natijasida eksportchining yetkazib berish shartlari bilan tanish bo'lgan xaridor sotuvchiga xaridorning tovarni unga ma'lum shartlari asosida jo'natish iltimois bilan buyurtma jo'natishi mumkin. Agar sotuvchi buyurtma shartlariga rozi bo'lsa u buyurtmaga tasdiq jo'natadi. buyurtmaning tasdig'i bu buyurtma shartlarini to'liq qabul qilganligini bildiruvchi tijorat xujjatidir. Tasdiq quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin: Sizni tokarkarusel stankolari yetkazib berish uchun qilingan buyurtmangizni qabul qilganligiei tasdiqlaymiz va ijro etishga yo'llaymiz. Sizning buyurtmangizni puxtalik bilan va belgilangan muddatda bajaramiz". Muhim so'zlar: oldi-sotdi bitimi, tovar almashish bitimi, eksport, import, reeksport, reimport, barter, qarshi xaridlar, to'lov operatsiyalari, to'lov asosidagi kengsh miqyosli operatsiyalar, berilgan xom ashyo

operatsiyalari, eskirgan maxsulotlarni sotib olish, agent-vakil, brokerlik operatsiyalari, komission operatsiyalari, konsignatsiya shartnomasi, oferta, qattiq oferta, erkin oferta, so'rov, buyurtma.

Nazorat savollari:

1. Oldi-sotdi bitimi nima.
2. Tashqi savdo operatsiyalari klassifikatsiyasi.
3. Barter operatsiyalarining mohiyati nima.
4. qarshi xaridni amalga oshirish tartibi.
5. Kompensatsion operatsiyalar qanday amalga oshiriladi.
6. Kompensatsiya asosidagi katta miqyosli operatsiyalarning ahamiyati.
7. T.I.F.ning qanday maxsus shakllari amaliyotda mavjud.
8. Jahon bozorida faoliyat olib borayotgan firmalar qanday klassifikatsiya qilinadi.
9. Ish munosabatlarini o'rganish uslublari va ularni rasmiylashtirish tartibi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimov A. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati. T. O'zbekiston 1995. 6-20,34-51 betlar.
2. Rubinskaya e.T. tashqi savdo faoliyatini boshqarish. M. 1998.
3. Korxonalar tashqi bozorlarda: tashqi savdo ishi. qo'llanma. Prof. S.I.Dolgova, prof. I.I. Kretoy. Muharrirligi ostida. M. BEK,1997,

4-Mavzu: Tashqi iqtisodiy faoliyatda transport ta'minoti .

REJA:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi transport operatsiyalari.
2. Tashqi savdodagi yuk tashuvini xuquqiy tartibga solish.
3. Transport operatsiyalariga xarajatlarni baholash.

1.Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi transport operatsiyalari.

Mohiyatdan transport operatsiyalari tashqi savdo bitimlarini amalga oshirishni boshlaydi va tugatadi. Korxonaning eksport maxsuloti sifati qanchalik yuqori bo'lmasin, agar transport xizmati yaxshi tashqil qilinmagan bo'lsa, bu korxonaning ishlari yurishmasligi mumkin.

Yuklarni xalqaro tashish umumiy foydalanishdagi transportlar dengiz, daryo, temir yo'l, avtomobil, xavo va truboprovod transportlari orqali ta'minlanadi.

Eksport yuklarini paket va konteyner shaklida tashish keng tarqalgan. Aralash holda tashishlar ham keng tarqalgan. Bunda bir necha transport turlari qatnashadi. Bunday xollarda yuklarning o'g'irlanishi kamayadi. Konteynerdagi yuk "eshikdan eshikkacha" tashuvining muxri ostida yetkazib berilishi mumkin.

Transportning normal ishlashi kontrakt tuzgan tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarishlarini ta'minlaydi. Agar bu majburiyatlar bajarilmasa,

ancha yo'qotishlar kelib chiqadi. Bu esa ham tovarlarning, ham ularni tayyorlovchilarning raqobatbardoshligiga ta'sir etadi.

Xorijiy mamlakatlar bilan savdoda yuk yetkazib berishni tezlashtirish bitimning amalga oshirilishini tezlashtiradi. Bu esa xorijiy valyutaning tezroq tushishi degan gap. Tez yetqazib berish oborot mablag'larining aylanishini tezlashtiradi.

Yuklarni tashish xalqaro amaliyoti shuni ko'rsatdiki, transport xarajatlari keyingi paytda o'sib bormoqda va xalq xo'jaligi sezilarli yo'qotishlarga duch kelmokda. Bu avvalambor, transport vositalarining yetishmasligi, yuk tashish tezligining kamligi, yuklarning tashishga ta'sir tayyor emasligi, tashuvchilarning yo'lda yuklarning buzilishi uchun javobgarlikni xam qis qilishlari va q.k. larga bog'liq.

2. Tashqi savdodagi yuk tashishlarni xuquqiy tartibga solish.

O'zbekistonda transport tashqiliy va boshxaruv jihatdan ko'p o'zgarishlarga uchradi. O'zbekistonda Respublika transport vazirligi tuzildi. Daryo, avtomobil va xavoda yuk tashishlar uning ixtiyoriga berilgan. Temir yo'lda yuk tashishlar "O'zbekiston temir yo'llari" milliy kompaniyasi ixtiyorida. Bundan tashqari, magistral transportlarda tezkor yuk tashish uchun aktsionerlik jamiyatlari tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1995 yil 15 martda "O'zbekistonda transport majmuining davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi farmonga imzo chekdi.

OLDI-SOTDI SHARTNOMALARI BAZIS SHARTLARINING UMUMIY TAVSIFI

Etkazib berish shartlari tashqi savdo bitimining asosiy shartidir. U shartnomani bajarishda sotuvchi va oluvchining majburiyatlarini belgilab beradi. Bu shart shuning uchun ham bazis sharti deb ataladiki, uning asosida shartnoma bo'yicha tovarning narxi, avvalambor, bu narxga yetkazib berish bo'yicha xarajatlar kirish kirmasligidan kelib chiqib o'rnatiladi.

Xalqaro oldi-sotdi shartnomalarini tuzish va bajarishda yetkazib berishning bazisiga kiradigan pozitsiyalarning mazmuni va ularni sharhlash bir qator normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Bu. avvalambor, BMTning 1980 yilgi Tovarlarini olish-sotishning xalqaro konvensiyasi (Vena konvensiyasi)dir. Bu hujjatga 50 ga yaqin davlatlar, jumladan, Rossiya, Belarus, Ukraina estoniya, Litva, Moldova va boshqalar imzo chekkan. Konvensiya, qisman, tovarni yetkazib berish va hujjatlarni berish, yukni xaridorning qabul qilib olishi va shartnomaning bazis shartlariga kiruvchi boqa bir qator qoidalarni sharhlaydi.

Sharqiy yevropa mamlakatlari, shuningdek, Kuba, Mongoliya va Vetnam uchun O'IYOK (1988 yilgi tahrirda O'IYOKning OUPi)ga a'zo mamlakatlar tashkilotlari o'rtsidagi yetkazib berishning umumiy shartlari tavsiya hujjati sifatida

o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Unda har bir transport turi uchun yektazib berishning bazis shartlari ifodalangan.

Ba'zi mamlakatlarning milliy qonunchiligi ham oldi-sotdi shartnomalarining shartlarini tartibga soluvchi normativ hujjatlarga ega. Masalan. RFda yetkazib berishning bazis qartlariga tegishli bir qancha qoidalar 1994 yilgi Fuqarolik kodeksining II qismi bilan tartibga solinadi. Unda ilk bor yuridik shaxslarning shartnoma tuzish va uning shartlarini, jumladan bazis shartlarini tomonlarning ixtiyoriga ko'ra belgilashdagi erkinligi to'g'risidagi muhim qoida mustahkamlab qo'yilgan. Bunda RF Fuqarolik kodeksining 7-moddasi xadqaro huquqning umum e'tirof etgan normalari va xalqaro shartnomalar mamlakat huquq tizimining tarkibiy qismi ekanligini nazarda tutadi.

Oldi-sotdi shartnomasining tomonlari o'rtasidagi munosabatlarning navbatdagi, jumladan yektazib berishning bazisi bo'yicha ham tartibga soluvchisi *savdo odati yoki ishbilarmonlik muomalasi odatlari* hisoblanadi. 1980 yilgi Vena konventsiyasining 9-moddasida odatlarning ma'nosi mustahkamlab qo'yilgan. Bunda, qisman, tomonlar o'zlari kelishib olgan har qanday odatlar va o'zaro munosabatlarida o'rnatishgan amaliyot orqali bir-birlariga bog'langanliklari belgilab qo'yilgan.

RFning Fuqarolik kodeksida (I qism) shuningdek, tomonlarning munosabatlarida ishbilarmonlik odatlari qo'llanilishi mumkinligi nazarda tutilgan. Lekin bunda 5-moddada agar bunday odatlar bitimning tomonlari uchun qonunlar yoki shartnomaning majburiy bo'lgan qoidalariga zid kelsa, ular haqiqiy emasligi haqida izoh berib o'tiladi. Jahon savdo amaliyotida *Savdo terminlarini sharhlash qoidalari* eng ko'p qo'llaniladi. U bazislarning ma'nosini aniqlashtirib beradi. U Xalqaro savdo palatasi tomonidan bazislarning ma'nosini bir xillashtirish va turli mamlakatlardan qatnashayotganlarning shartnomalarni tuzish va ularni bajarishlarini bir xilda tushunishlari maqsadida ishlab chiqiladi. Bunday qoidalarning oxirgi tahriri 1990 yilda qilingan edi va Inkotermos 1990 kodi bilan ma'lum.

Savdo terminlarining bu tahririni ishlab chiqishning muhim sabablaridan biri xalqaro savdoda yuklarni yiriklashtirilgan yuk joylari yordamida tashish bo'ldi. Bu birinchi navbatda konteynerlar yordamida yuk tashishi, shuningdek, yetkazib berishini tashqil qilishning yangi usullari – intermodal va aralash holda yuk tashishlar edi. Bunday yuk tashishlar ulardan foydalanish ustunligini to'la joriy qilishga imkon beradigan yuk tashishi shartlarini ishlab chiqarish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Inkotermos-1990ni oldi-sotdi shartnomalarini tuzishda tijorat amaliyotida qo'llash quyidagi xususiyatlaribilan tavsiflanadi.

1.Huquqiy nuqtai nazardan bu hujjat fakultataiv yoki tavsiya xususiyatiga ega. Shuning uchun bu hujjatni o'z ishida qo'llovchi tomonlar shartnomada ushbu hujjatga havola qilishlari kerak.

Agar Inkotermosning biror qoidasi shartlashayotgan tomonlarni qoniqtirmasa, sharhlashdagi farqlarga yo'l qo'ymaslik uchun bu holat shartnomada alohida qayd etiladi.

Lekin bir qator mamlakatlarda Inkotermsdagi savdo terminlarni sharhlashning alohida qoidalari shartnomada ularga havola qilinmagan bo'lsa ham, amalda bo'laveradi. Buni bitimlarni bajarishda inobatga olish lozim.

Shuniyodda tutish muhimki, shartnoma savdo terminlarini umum qabul qilgan yoki Inkotermsdagidan boshqacha izohlasa, shartnomaning shartlari ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi.

2. Inkoterms–1990 ning qoidalari ko'p masalalar bo'yicha umumiy xususiyatga ega bo'lib, printsiptial yondashuv yoki qarorni taklif qiladi, xolos. SHu munosabat bilan oldi-sotdi shartnomasining tegishli bo'limlarida tomonlar o'zaro majburiyatlarni taqsimlashni aniqlab olishlari va batafsil yoritishlari zarur.

3. Tomonlar shartnoma bo'yicha yetkazib berishning Inkoterms –1990 dan farq qiladigan har qanday boshqa shartlarini ifodalashlari va qo'llashlari mumkin. Jumladan, Xalqaro savdo palatasi tomonidan oldingi nashrlarda (1936, 1953, 1976, 1980 yillardagi) tavsiya etilgan shartlar ham qo'llanilishi mumkin. Biroq bunda shartnomaning barcha bandlari aniq kelishib olinishi va yozma shaklda qayd etilishi kerak. Bu shartnoma shartlarini variativ (turlicha) sharhlashning oldini olish maqsadida qilinadi. CHunki shartlarni turlicha sharhlash qo'shimcha xarajatlarga olib keladi. Bu birinchi navbatda majburiyatlarni taqsimlab olish va transportirovka bo'yicha sarf-xarajatlarga taalluqli.

4. Inkotermsning jahonning barcha mamlakatlarida tan olinishi munosabati bilan bojxona hujjatlarini to'ldirishda "Yetkazib berish shartlari" bandida, qoida tariqasida, shartnomaning bazis shartlarini aynan Xalqaro savdo palatasi qabul qilgan tasnifga (klassifikatsiya) binoan to'ldirish talab qilinadi. Buning ustiga tovarning bojxona qiymatini hisoblab chiqarishda bitim narxi, ya'ni tovarning shartnoma bo'yicha narxi qo'llaniladi. Bu narx darajasi va tuzilishi yetkazib berishning bazisiga bog'liq bo'ladi.

5. Savdo terminlari savdo tarmoqlari va dunyoning turli mintaqalarida qo'llanilishi tufayli, ularni izohlashga ham, tomonlarning majburiyatlarini taqsimlashni tushunishga ham bitim tuzuvchi mamlakatlarning xususiyatlari va odatlari ta'sir qiladi. SHuning uchun shartnoma tuzish bo'yicha muzoqaralar davomida tomonlar bir-birlarini mintaqaviy savdo odatlari haqida xabardor qilishi, ular turlicha izohlanadigan bo'lgan hollarda esa shartnomaning tegishli moddalarida muayyan qoidalarini aniqlab olishlari talab etiladi.

Xalqaro tijorat terminlari bir qator muhim tijorat va yuridik masalalarni tartibga soladi. Ularning orasidan quyidagi asosiy holatlarni ajratib ko'rsatish lozim:

tovarni bir-biriga o'tkazish bo'yicha sotuvchi va xaridorning majburiyatlarini taqsimlash;

yukni transportda tashishni tashqil qilish (tashuvchini tanlab olish, yukni tashish shartnomasini tuzish va sh.k.);

tomonlar o'rtasida shartnoma bajarish bo'yicha, birinchi navbatda tovarni yetkazib berish bo'yicha sarf-xarajatlarni taqsimlab olish;

transportirovka jarayonida tovarning ehtimol tutilgan nobud bo'lishi yoki shikastlanishi tavakkalining sotuvchidan xaridorga o'tish paytini. Bu tovarning

sifati va soni o'zgarishining noqulay oqibatlari yo'lning muayyan uchastkasida yuk bilan bog'liq javobgarlik zimmasida bo'lgan tomonga tushishini bildiradi.

3. Transport operatsiyalariga xarajatlarni baholash.

Transport operatsiyalari xarajatlari bir tijorat termini ikkita asosiy qismdan iborat (A –sotuvchining majburiyatlari, B – xaridorning majburiyatlari) sxema bo'yicha tuziladi. Bunda har bir tomonning majburiyatlariga boshqa tomonning majburiyatlari qarama-qarshi turadi. Tomonlarning yetkazib berishning u yoki bu bazisidan kelib chiqadigan majburiyatlari quyidagi bir xil yo'nalishlar bo'yicha guruhlashtirilgan (*jadvalga qarang*).

Agar shartnomaning shartlarida biror pozitsiya bo'yicha sotuvchi yoki xaridorning “majburiyati yo'q” deb qayd qilingan bo'lsa, u holda ushbu tomon kontragentning u yoki bu majburiyatini uning topshirig'iga binoan va uning hisobidan bajarishi mukinligi ehtimoli nazarda tutiladi, lekin bu yetkazib berishning bazisidan kelib chiqadigan majburiyat hisoblanmaydi.

№	A–sotuvchining majburiyatlari	№	B–xaridorning majburiyatlari
1.	shartnoma shartlariga muvofiq tovarni taqdim qilish	1.	Tovarning narxini to'lash
2.	Litsenziyalar, ruxsatnomalarni va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish	2.	Litsenziyalar, ruxsatnomalarni va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish
3.	YUkni tashish va sug'urtalash shartnomasini tuzish	3.	YUkni tashish shartnomasini tuzish
4.	Etkazib berishni amalga oshirish	4.	qabul qilib olish
5.	Tavakkalning o'tishi	5.	Tavakkalning o'tishi
6.	Xarajatlarni taqsimlash	6.	Xarajatlarni taqsimlash
7.	Xaridorni xabardor qilish	7.	Sotuvchini xabardor qilish
8.	Etkazib berishning dalillarini taqdim etish	8.	Etkazib berishning dalillarini taqdim etish
9.	Tekshirish, o'rash-joylash, markirovkalash	9.	Tekshirish, o'rash-joylash, markirovkalash
10	Boshqa majburiyatlar	10	Boshqa majburiyatlar

Qo'llash va tushunishni qulaylashtirish maqsadida hamma terminlar sotuvchi xaridorga jo'natishga tayyor tovarlarni bevosita o'z binolarida (omborda, zavodda va sh.k.) taqdim etganligi holatidan boshlab, to'rt guruhga bo'lingan. Bu *E–EXW* guruhi termini bo'lib “zavoddan” degan ma'noni anglatadi. Bu termin ishlatilganda sotuvchi hech qanday javobgarlikni bo'yniga olmaydi, jumladan transportirovka bo'yicha ham, tovarni zavodda xaridorning ixtiyoriga topshirish bundan mustasno.

F guruhidagi terminlar shuni bildiradiki, tovar sotuvchi tomonidan xaridor tanlagan yuk tashuvchiga beriladi. Ayni paytda tovarning tasodifan nobud bo'lishi yoki shikastlanishi tavakkali ham xaridorga o'tadi (quyidagi jadvalga qarang).

S guruhining shartlariga ko'ra, yukni tashish shartnomasini tuzishni sotuvchi o'z bo'yniga oladi. Biroq u tovarning sifati yoki miqdori o'zgarishi yoxud jo'natish punktidan uni yuklagandan keyingi qo'shimcha sarf-xarajatlarni uchun tavakkalni o'z bo'yniga olmaydi.

Incoterms 1990ga muvofiq yetkazib berish shartlari

Terminlar guruhi	Etkazib berish shartlarining nomi	Kod	Terminlarning xususiyati
<i>E</i>	Zavoddan yuklash	EXW–EXB	Yukni tashish bo'yicha shartnoma tuzish bo'yicha majburiyatlar yo'q. Tavakkal xaridor zimmasida
<i>F</i>	Tashuvchida erkin holda kemandagi borti yoqasida erkin holda Bortda erkin holda	FCA–FSA FAS–FAS FOB–FOB	Xalqaro tashish shartnomasini xaridor tuzadi. Tavakkal xaridor zimmasida
<i>S</i>	qiymati va fraxta Narxi, sug'urtalash va fraxta Tashish ... gacha to'langan Tashish va sug'urtalash ... gacha to'langan	CFR–SFR CIF–SIF CPT–SPT CIP–SIP	Xalqaro tashish shartnomasini sotuvchi tuzadi. Transportirovka bahosi tovarning shartnoma narxiga kiradi. Tavakkal sotuvchi zimmasida
<i>D</i>	CHegarada yetkazib berish Kemadan yetkazib berish Ko'rfazdan yetk. berish Poshlinalarni to'lamay yetkazib berish Poshlinalarni to'lab yetkazib berish	DAF–DAF DTS–DES DEQ–DEK DDU–DDU DDP–DDP	Xalqaro tashish shartnomasini sotuvchi tuzadi. Transportirovka bahosi tovarning shartnoma narxiga kiradi. Tavakkal sotuvchi zimmasida

D guruhining terminlariga muvofiq sotuvchi transportirovkani tashqil qiladi, tovarni mamlakatdagi kelishilgan joyga yetkazib berish va uni xaridorga o'tkazish paytigacha tovarning yo'qolishi yoki shikast yetishi bilan bog'liq barcha tavakkallar va xarajatlarni o'z bo'yniga oladi.

Sotuvchi tovarni xaridorga o'tkazgan deb hisoblanadigan vaqtni aniqlashga kelganda D guruhi va boshqa guruhdagi terminlar o'rtasidagi farqni ta'kidlash lozim. Bu farq shundan iboratki, faqat ushbu guruhdagi shartlardagina sotuvchining tovarni yetkazib berish bo'yicha majburiyatlari yetkazib berish belgilangan mamlakatda amalga oshiriladi.

Boshqa guruhlarining shartlariga ko'ra, sotuvchi bu majburiyatlarini o'z mamlakatida amalga oshiradi.

Ayniqsa, S va D guruhlarining terminlari o'rtasidagi sotuvchi xalqaro tashishini ta'minlashidagi farqlarni ta'kidlab o'tish muhim.

S guruhidagi shartlarga ko'ra, hatto tovar orilganidan keyin biror narsa bo'lganida ham sotuvchi o'zining majburiyatini bajargan hisoblanadi. SHu bilan birga, D guruhining shartlariga ko'ra, shunga o'xshash holatlarda sotuvchi o'z majburiyatlarini bajarmagan hisoblanadi. Bunday hollarda u yo'qotilgan yoki shikastlangan tovarlarning o'rniga boshqasini berishi kerak.

Tovarni transportirovka qilish va transportning turi, shuningdek, ularni qo'llash bo'yicha Xalqaro savdo palatasining aniq tavsiyalariga bog'liq holda tovarlarni klassifikatsiya qilish terminlarning muhim xususiyati hisoblanadi. Masalan, FAS, FOB, CIF, DES kabi va boshqa bir qator shartlar faqat dengiz transportidatashishda qo'llanilishi kerak, DDU, DDP, DAF terminlari – har qanday transport turidan foydalangand yoki aralash tashishlarda qo'llaniladi. Bunda DAF termining xususiyati shundan iboratki, u faqat quruqlikda tashishda qo'llaniladi deya keng tarqalgan fikrga zid ravishda, XSP uni aralash tashishlarda ham, masalan yo'ning alohida qismlarida dengizda tashishlarda ham qo'llashni tavsiya qiladi.

Inkotermsning 1990 yildagi tahriri matniga FCA “YUk tashuvchida erkin holda”, CPT “Tashish ... gacha to'langan”, CIP “Tashish va sug'urtalash ... gacha to'langan” kabi yangi terminlar kiritilgan. Ular sotuvchi yuk tashuvchiga

xalqaro miqyosda yetkazib berish uchun yuklarni topshirgan paytidan boshlab, tovar xaridorga berganligininazarda tutadi. Bunda, shuni alohida ta'kidlash kerakki, tovarni berish punkti, muayyan ortish-tushirish joyini (kema, avtomobil, vagonlar va sh.k.) emas, balki aniq joyni ko'rsatish orqali belgilanadi. Shuning uchun ham bu terminlar tashishning har xil turlarida qo'llanilishi mumkin.

Xalqaro savdo palatasining ko'rsatishicha, tovarni bir nechta transport turida tashishda bu yangi savdo terminlari sotuvchi uchun alohida qiziqish uyg'otadi. U tovarni tashish paytida tovarning yo'qolishi yoki buzilishi bilan bog'liq tavakkallarni o'z zimmasidan soqit qilish imkoniga ega bo'ladi.

XSP tomonidan ishlab chiqilgan terminlar orasida yetkazib berishlarning bazislarini ajratib ko'rsatish zarur. Ular tovar oqimlarining harakatini tashqil qilishda logistik yondashuvdan to'la foydalanishga imkon beradi. Ularga FCA, CPT, CIP, EXW, DDU, DDP, bazis shartlarini kiritiq mumkin (quyida qarang).

Ular shunday vaziyatni yuzaga keltiradilarki, tomonlardan biri amalda transport menejmenti ya'ni tovarni yetkazib berish va nazorat qilish masalalarini to'laligicha o'z qo'liga oladi. Bu shuni bildiradiki, ushbu holatda yetkazib berishni tashqil qilishda sistemali yondashuvni qo'llash mumkin. Bu tizimni tashqil qiluvchi bo'g'inlar (tashish, ortish-tushirish ishlari, tovar zaxiralarini boshqarish va shu kabilar) butun tizimni optimallashtirish rejimida amal qiladigan bir zanjirning o'zaro bog'langan va o'zaro harakatda bo'luvchi qismlari sifatida qaraladi.

Oldi-sotdi bitimlarini bajarishda logistik tizimni yaratish va samarali faoliyat ko'rsatishining majburiy sharti unda barcha qatnashchilar – sotuvchi, xaridor, yukni tashuvchi va ekspeditorning manfaatdorligidir.

Tovarni yetkazib berishning bazis shartlarini tanlashga logistik yondashuv omillarning keng doirasini qamrab olishi kerak. Jumladan tomonlarning yetkazib beruvchi va oluvchining omborlari joylashganligini hisobga olgan holda, tovarni yetkazib berishning takomillashganroq va arzonroq sxemasini qo'llash imkoniyatlarini ham qamrab olishi kerak. Buning natijasida barcha tomonlar umuman shartnomani amalga oshirish bo'yicha xarajatlarni qisqartirish tarzidagi ma'lum ustunliklariga ega bo'ladilar.

Endi Inkoterm – 1990 bo'yicha bazis shartlariga kiritiladigan pozitsiyalardan har biri XSPning sharhlari, boshqa xalqaro hujjatlar, shuningdek, tijorat amaliyotining odatlariga muvofiq tahlil qilinadi².

Tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir/ – Toshkent: «O'zbekiston», 2010. – 80 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yuli. T., 1996 y.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009.
4. Alimov A. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati T., O'zbekiston. 1993 y. 6-20, 34-51 betlar.
5. Bekmurodov A.Sh., Tursunov R.T., Zaynutdinov K. Xalqaro biznes. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007, - 276 b.
6. J. J. Jalolov, I. A. Ahmedov, I. S. Hotamov Korxona tashqi iqtisodiy faoliyati va marketing. –T.: BILIM, 2004, -240 b.

5– Mavzu: Tashqi iqtisodiy faoliyatni sug'urtalash.

REJA.

1. Sug'urta faoliyati va uni ahamiyati.
2. Tashqi iqtisodiy aloqalarni sug'urtalashning mazmuni va uning turlari.
3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni sug'urta qilishni tashqil etish va uni hujjatlashtirish.
4. O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorining rivojlanishi.

1. Sug'urta faoliyati va uni ahamiyati.

Sug'urta - yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lum bir to'lov evaziga sug'urta qilingan shaxsga baxtsiz hodisa tufayli yetkazilgan zararni to'lash majburiyatini oladi. Yanada tushunarli qilib aytadigan bo'lsak, sug'urta -bu har xil noxush hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash hamda fuqarolarning hayotida tegishli sug'urta hodisalari ro'y berganda ularga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida tashqil etiladigan va undan foydalanish bilan bog'liq (maqsadli pul fondlari) iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. O'tkazish shartiga qarab, sug'urta majburiy va ixtiyoriy bo'ladi. Ob'ektiga ko'ra, mulkiy, shaxsiy va javobgarlik sug'urtasiga bo'linadi. Sug'urtaning asosini risk tashqil etadi. Sug'urta - bu riskni taqsimlash usulidir.

O'zbekistonda tadbirkorlikning rivoj topishi jarayonida turli risklarning yuz berishi ehtimoli mavjudligi, shuningdek, ijtimoiy hayotning o'zida namoyon

² Рамберг Ян. Комментарий к Инкотермс–1990 / Пер с англ. и предисловие Н. Г. Вилковой. М., 1995.

bo'lishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklar sub'ektlarning sug'urta faoliyatini ijobiy tomonga o'zgartirdi.

Sug'urta faoliyati deganda sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati tushuniladi. Bozor munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etuvchi faoliyatlardan biri sug'urta faoliyati bo'lib, ushbu faoliyatni sug'urta kompaniyalari amalga oshiradilar. Sug'urta kompaniyalari sug'urta bozorining asosiy qismini tashqil etadi. Sug'urta bozori sug'urta xizmatiga talabni ifoda etuvchi sug'urtachilar, bu talabni qondiruvchi sug'urta kompaniyalari, sug'urta vositachilari va sug'urta infratuzilmasi tashkilotlari harakat qiladigan iqtisodiy kenglikdir.

Sug'urta faoliyati iqtisodiy infratuzilmaning ajralmas qismi sifatida bir tomondan, ijtimoiy kafolatni ta'minlasa, ikkinchi tomondan, shartnomaviy majburiyat va tariflar mexanizmi orqali turli sug'urta risklaridan ogoh etish negizida iqtisodiyot sub'ektlari manfaatlarining himoyasini ham o'z zimmasiga oladi.

Sug'urta faoliyati jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilish, ularning risklar yuz berishi oqibatida ko'rishi ehtimol bo'lgan zararlarini qoplashning zaruriy vositasi sifatida paydo bo'ldi hamda rivojlandi. SHunday anglanilgan zarurat - aniq sug'urta manfaatlari negizida sug'urta munosabatlari yuzaga keldi.

Sug'urta faoliyatida o'z mohiyati nuqtai nazaridan, aynan «Xizmat» tushunchasi fundamental hisoblanadi. Sug'urtachi tomonidan taklif etilayotgan «Xizmat» o'zida dastlab moddiylikni aks ettirmaydi, ya'ni u o'z mijoziga faqat «Va'dani sotadi». SHu nuqtai nazardan xalqaro savdoda unga «Ko'rinmaydigan faoliyat» deb ham tasnif beriladi. Sug'urtalanuvchiga shartnoma tuzilganligini tasdiqlovchi dalil-hujjat sifatida «Polis» beriladi xolos. Sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchiga sug'urta voqeasiga ko'ra, ko'rishi ehtimol bo'lgan zararining ekvivalent qiymatidagi pul to'lovi (ayrim hollarda mol-mulk ko'rinishida) ta'minlanishi nazarda tutiladi. SHartnomaning bajarilishi unda qayd etilgan ma'lum davr oralig'ida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda bosqichma - bosqich bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi, iqtisodiyot sub'ektlarining yuksak darajadagi iqtisodiy mustaqilligi, erkinligi darajasi ortib borayotgan jarayonda doimo risklar mavjud bo'lishi kuzatiladi. Ular manfaatlariga zarar keltirishi mumkin bo'lgan va doimiy takrorlanib turadigan risklarni qayta taqsimlash, ya'ni o'ziga xos bo'lgan maxsus xizmat bilan sug'urta shug'ullanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2002 yilning 5 aprelida qabul qilingan va shu yilning 28 mayida amaliyotga joriy etilgan «Sug'urta faoliyati to'g'risida» gi Qonun sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonun hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, sug'urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning qonuniy manfaatlarini himoya etish maqsadida 1993 yili Oliy Majlis "Sug'urta to'g'risida" Qonun qabul qilgan edi. o'tgan yillar mobaynida mazkur qonunga ikki marta qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati sug'urtalanganlarga yetkazilgan zarar to'lanadigan va sug'urtachilarning ko'p sonli (badallari) evaziga shakllanadigan markazlashgan sug'urta jamg'armasini yaratadi. Hozirgi vaqtda aholi, korxonalar, muassasalar, ijtimoiy tashkilotlarning har xil sug'urta ko'rinishlari yetkazib berishga yo'naltirilgan tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan, mamlakat moliyaviy bazasini mustahkamlash uchun kasbdoshlar orasida tajriba almashish, umumiy masala va vazifalarni muhokama qiladigan "O'zbekiston sug'urta klubi" mutaxassislar birlashmasi tashqil etilgan, O'zbekiston sug'urtachilari Assotsiatsiyasini yaratish uchun tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda sodir bo'lgan voqealar bizning iqtisod, moliya, pul va sug'urtaga, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'zgartirdi. Hozirgi vaqtda sug'urta har bir oila, har bir xo'jalik, tadbirkor, korxona va butun davlat uchun katta ahamiyat kasb etadi.

2. Tashqi iqtisodiy aloqalarni sug'urtalashning mazmuni va uning turlari.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni sug'urtalash - davlatning, uning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari va fuqarolarining muayyan voqealar sodir bo'lganda (sug'urta hollari) ular tomonidan to'lanadigan sug'urta mukofotlari (ya'ni badallari)dan shakllanadigan pul fondlari hisobiga mulkiy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha xalkaro iqtisodiy munosabatlardir.

Sug'urta mukofoti (yoki badal) sug'urta uchun haq bo'lib, uni sug'urtalanuvchi sug'urtalovchiga sug'urta shahodatnomasiga (polisiga) muvofiq kiritishga majbur.

Sug'urta shahodatnomasi (polis) (frants. police, ital. polozza — tilxat, to'lov qog'ozi) - sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qilish to'g'risida guvohnoma sifatida beriladigan sug'urtalash (yoki Krita sug'urtalash) to'g'risida yozma shartnoma.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni sug'urtalash jarayonida ikkita sub'ekt ishtirok etadi: shahodatnoma (polis) sohibi va sug'urtalovchi.

Shahodatnoma (polis) sohibi (sug'urtalanuvchi) - sug'urta qiziqishini ifodalovchi, sug'urta mukofotini to'laydigan va qonun kuchi yoki ikki tomonlama bitim (sug'urta shartnomasi) ga ko'ra sug'urtalovchi bilan aniq sug'urta munosabatiga kiradigan xo'jalik yurituvchi sub'ekt yoki fuqarodir.

Shahodatnoma (polis) sohibi bo'lib sug'urtalovchi bilan sug'urtalash shartnomalari tuzgan yoki qonun kuchiga ko'ra sug'urtalanuvchi bo'lgan shaxs tan olinadi. Sug'urta shartnomasini tuzganda shahodatnoma (polis) sohibi sug'urtalovchiga tashqi iqtisodiy xatarni baholash uchun ahamiyatga ega bo'lgan, unga ma'lum bo'lgan barcha vaziyatlarni hamda sug'urta qilishning mazkur ob'ektiga nisbatan tuzilgan yoki tuzilayotgan barcha shartnomalar to'g'risida xabar berishi kerak. Sug'urta vaziyati sodir bo'lganda polis sohibi sug'urta qilingan mol-mulkka zarar etishining oldini olishi yoki kamayishi uchun barcha zarur choralarni ko'rishga majbur.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni sug'urtalash tashqi iqtisodiy xatarlarni sug'urtalashni anglatadi va u yoki bu shakldagi xalqaro hamkorlikning mahalliy va

xorijiy ishtirokchilari manfaatlarini ta'minlovchi sug'urta turlarining majmuidan iboratdir.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni sug'urtalash turli xalqaro sug'urta operatsiyalarini o'tkazish vositasida amalga oshiriladi. Xalqaro sug'urta operatsiyalari — turli mamlakatlar milliy iqtisodiyotlari o'rtasida sug'urta fondini ro'yobga chiqarish bo'yicha xo'jalik aloqalari sug'urtasidir.


Tashqi iqtisodiy aloqalarni sug'urta qilish umuman sug'urta kabi mol-mulkning shaxsiy sug'urtasi, javobgarlikni sug'urta qilishni o'z ichiga oladi.

Shaxsiy sug'urta fuqarolarning sug'urta himoyasini amalga oshirishni anglatadi. Mulkiy sug'urta qilishda sug'urta munosabatlarining ob'ekti bo'lib turli turdagi mol-mulk va mulkiy manfaatlar chiqadi. Mulkiy sug'urtaning iqtisodiy ahamiyati sug'urta vaziyati oqibatida vujudga kelgan zararni qoplash hisoblanadi.

Javobgarlikni sug'urta qilishda sug'urta munosabatlarining ob'ekti shahodatnoma (polis) sohibining (ya'ni sug'urtalanuvchining) biror-bir harakati yoki harakatsizligi oqibatida jismoniy yoki yuridik uchinchi shaxslar oldidagi javobgarlik hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni sug'urtalashning eng ko'p tarqalgan turlari-turistlarni sug'urta qilish, tashqi savdo yuklarini (yuk va yoki transportni) tashish, valyuta xatarlaridan sug'urta qilish, xorijiy investitsiyalarni sug'urta qilish, avtotransport egasining javobgarligini sug'urta qilish, to'lanmagan kredit uchun qarzdor javobgarligini sug'urta qilish hisoblanadi.

Sug'urtalashning ko'pgina turlari uchun ularning yuridik jihatdan tuzilishi ixtiyoriy hisoblanadi. Biroq tovar yetkazib berish to'g'risida, turistik xizmatlar to'g'risida, qurilish va tashishga pudrat to'g'risida, u yoki bu mol-mulkning ijarasi va boshqalar to'g'risida bitimlar tavsifi, qoidaga ko'ra, sug'urtalashni shartnoma amal qilishining zaruriy shart-sharoiti sifatida hisobga oladi. Tegishli shartnomalarning mazmuniga bog'liq holda sug'urtalash xarajatlarini taraflarning istalgani olishi mumkin, u o'z manfaatlariga va mahalliy sug'urta tashkilotlariga mo'ljal qilib sug'urta kompaniyasi va sug'urtalash shartlarini tanlaydi.



1 - Chzma. Tashqi iqtisodiy aloqalarni sug'urtalash shakllari

Cht yel investitsiyalarini sug'urtalashga doir xizmatlarni Jahon bankining a'zosi bo'lgan va 1988 yilning 12 aprelida asos solingan Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha xalqaro agentlik (MIGA) taqdim etadi.

MIGAning vazifasi rivojlanayotgan mamlakatlarga chet el investitsiyalarini:

- investitsiyalarga valyutani o'tkazish, ekspropriatsiya qilish, urush, fuqarolar tartibsizliklari va sarmoya ko'yilgan mamlakat hukumati tomonidan shartnoma shartlari buzilishi bilan bog'liq xatarlarga qarshi kafolatlar berish;
- agentlik a'zosi bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarga ana shu mamlakatlarni chet el sarmoyasini qo'yish uchun jozibaliroq qiladigan choralarni amalga oshirishga doir maslahat xizmatlarini taqdim etish yo'li bilan rag'batlantirish hisoblanadi.

Ekologik xatarlarni sug'urtalash sug'urtalovchining atrof-muhitni ifloslantirish bilan bog'liq xatarlar uchun mas'uliyatini nazarda tutadi. Bunday xatarlarga, masalan, tankerlardan neft mahsulotlarining dengizga oqib ketishi va u bilan suv hamda soxillarning ifloslanishi uchun kema egalarining mas'uliyatini sug'urtalash; yadro energiyasidan tinch maqsadda foydalanish jarayonida uchinchi shaxslarga yetkazilgan yadroviy zarar uchun mas'uliyatni sug'urtalash; yer osti suvlari, yer va havoni ifloslantirganlik uchun mas'uliyatni sug'urtalash; kon-qazuv faoliyatidan yetkazilgan zarar uchun mas'uliyatni sug'urtalash va hokazolar kiradi.

Ekologik xatarlarni sug'urtalash muayyan mamlakatda amal qiladigan tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining me'yorlariga asoslanadi. Mazkur sug'urtalashdan maqsad — polis sohibi (sug'urtalanuvchi)ning faoliyati tufayli atrof-muhitni ifloslantirish natijasida yetkazilgan zararni qoplash zarurati bilan bog'liq zararlarni qoplashdir.

Valyuta xatarlaridan sug'urtalash. Valyuta xatarlari (ya'ni valyuta kurslari o'zgarishidan zararlar) eksportchi hisob-varag'iga tushum tushgan paytdan boshlanadi. Tashqi iqtisodiy kontraktda valyutalarning ikki turi qayd qilinadi: narx valyutasi va to'lov valyutasi.

Narx valyutasi (yoki bitim valyutasi) — tovar (xizmat) narxi belgilanadigan yoki taqdim etilgan xalqaro kredit summasi ifodalanadigan valyutadir.

To'lov valyutasi — tovar (xizmat)ning haqiqatdagi to'lovi yoki xalqaro kreditni so'ndirish amalga oshiriladigan valyuta. Bu ikki valyutalar bir-birlariga mos kelish yoki kelmasligi mumkin.

Valyuta xatarlari tashqi savdo operatsiyasini amalga oshirish vaqtida to'lov valyutasi va eksportchining chiqimlari ifodalangan yoki uning valyuta tushumlari (valyuta narxlari) hisobga olinadigan valyuta bilan mutanosibligi o'zgarishida paydo bo'ladi. Valyuta xatarlarining qiymati valyutaning xarid qobiliyati yo'qolishi bilan bog'langan, shuning uchun u bitimni tuzish muddati va to'lov payti orasidagi vaqtdagi uzilishiga bevosita bog'liqliqda bo'ladi.

Depozitlarni sug'urtalash. Bu sug'urta qilishning banklar tomonidan amalga oshiriladigan bir turi bo'lib, unga ko'ra omonatchilarga bankni bankrot deb e'lon qilingan hollarda ularning omonatlari qaytarilishi kafolatlanadi. Depozitlarni sug'urta qilish sug'urta qilishning ixtiyoriy shakli hisoblanadi.

Avtotransport egalarining mas'uliyatini sug'urtalash. Avtotransport vositalari egalarining yo'l-transport hodisasini sodir etish chog'ida boshqa shaxslarga ehtimol bo'lgan zarar yetkazilishi uchun fuqarolik mas'uliyati ularni sug'urtalash ob'ekta hisoblanadi. yetkazilgan moddiy zarar va aziyat chekkan fuqarolarga shikast yetkazilishi bilan bog'liq boshqa xarajatlar sug'urta tashkiloti tomonidan qoplanishi kerak. Sug'urtaning ana shu turi bo'yicha shikastlangan transport vositalari va boshqa mol-mulkni tiklash bilan bog'liq moddiy zarar to'lanadi, aziyat chekkan fuqarolarni davolash, protezlash, ovqatlanishni kuchaytirish, malakasini o'zgartarish bilan bog'liq xarajatlar haqqi to'lanadi, aziyat chekkan kishilarning shikastlanishi yoki o'lim munosabati bilan oila daromadining talafotlari qoplanadi, shu jumladan, bolalar yoki boshqa qarindoshlarga umrbod nafaqa to'lanadi.

3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni sug'urta qilishni tashqil etish va uni hujjatlashtirish.

Zamonaviy tashqi savdo va dengiz tashuvlari sug'urtasiz mavjud bo'la olmaydi. Ko'p hollarda sug'urta shartnomalari savdo bitimlarining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Sug'urtani kim va kimning hisobidan olib borishi bu bitimlar tuzilayotganda hal qilinadi.

Xalqaro savdoda uning shakllarini ko'pligidan u yoki bu tovar bilan savdo shartlari va ular tomonidan kelishilgan savdo shartnomalari profillari ishlab chiqiladi. Bu profillarda bitimda tomonlar tomonidan olinadigan tovarlar bahosini yaratish mexanizmi beriladi.

SIF, KAF, FOB va FAS qisqartmalari bilan 4 xil asosiy savdo bitimlari keng tarqalgan.

SIF inglizcha so'z bo'lib tovarlar bahosi sug'urta va fraxt degan ma'noni anglatadi. Bu shartnomaning maxsus ko'rinishi bo'lib, unda asosiy oldi-sotdi shartnomalari masalalari maxsus asoslarda yechiladi.

SIF sharoitlarida tovar sotilganda sotuvchi yukni tushurishidan boshlab portiga olib borishi, uni kema bortiga ortishi, tonnajni fraxtlashi, fraxtni to'lashi, yukni yil davomida egasiga yetib borguncha dengiz xavflaridan sug'urta qilishi va xarid orga yukni jo'natish bo'yicha barcha kerakli hujjatlarni jo'natishi shart.

1936 yildan to 1956, 1980, 1990 yillargacha xalqaro savdo palatasi xalqaro savdo shartnomalarini interpretatsiyasi va norasmiy kodlash, shakllangan odatlar qabul qilib, keng tarqalgan tashqi savdo terminlari va tijorat tushunchalarini birlashtirish borasida katta ishlar qilgan.

Bu ish natijasida "Inkoterms 2000" deb nomlangan yig'ma axborot materiali chiqdi va xalqaro savdo amaliyotida, shuningdek SIF shartlaridagi bitimlarda keng qo'llanila boshladi. 2000 yilgacha (1936, 1953, 1967, 1976, 1980, 1990, 2000) yillar tahririda chiqdi. SHu yillarda xalqaro savdoda yuzaga kelayotgan amaliyotni hisobga oluvchi o'zgarishi va qo'shimchalar qoidalariga kiritildi.

"Inkoterms 2000"ning maqsadi tashqi savdodagi oldi-sotdi shartnomalarida qo'llaniladigan eng muhim atama va tushunchalarni talqin qilish bo'yicha yagona xalqaro qoidalarni o'rnatishdir.

KAF bitimlari - inglizcha so'z bo'lib qiymat va fraxt degan ma'noni anglatadi, yetkazib berish KAF bitimiga ko'ra sotuvchi o'z hisobidan manziligacha shartnomada ko'rsatilgan dengiz tashuvi shartnomasini tuzishi va yukni kemagacha olib borishi zarur. Sug'urta majburiyati xarid orda bo'ladi.

FOB bitimlari o'z nomini inglizcha "bortda erkin" ifodasidan olgan. Bu turdagi bitimga ko'ra sotuvchi, xarid or fraxtlashdan kemaga yukni ortishi zarur. U tovarni tashish vaqtiga sug'urta qiladi. Odatda ichki punktdan ortish partiyagacha va keyinchalik oxirgi yo'nalish nuqtasigacha.

FAS bitimlari inglizcha "Bort bo'yicha erkin yoki kema borti bo'yicha erkin" ifodasini bildiradi.

FAS bitimlarni mazmuni FOB bitimlariga o'xshaydi, birgina farqi shuki FOB bitimiga ko'ra sotuvchi tovarni kemaga ortadi va tovar kema bortiga o'tishi bilan xavf xarid or zimmasiga o'tadi, FAS bitimiga ko'ra esa sotuvchi yukni kemaga olib keladi, lekin javobgarlik uning o'zidan olinmaydi.

Dengiz yuklarini sug'urta qilish shartnomasi sug'urtachining yozma arizasi asosida tuziladi, unda quyidagilar bo'lishi zarur. YUkning aniq nomi, qadoqlash turi, joylar soni, yukning og'irligi, konosament yoki boshqa yo'l hujjatlari raqami va kunlari kemandi nomi, qurilgan yili, bayrog'i va yuk sig'imi; yukning joylashishi, joylashish nuqtalari, qayta ortish va borish nuqtalari; kemandi jo'natilish vaqti, yukning sug'urta summasi, sug'urta shartlari. U yoki bu modifikatsiyasi guruhlar London sug'urtachilari institutining butun xavflar uchun javobgarlik, qisman avariya uchun javobgarlik, bilan, haloqat holatlaridan tashqari shikastlanishlar uchun javobgarliksiz kabi namunaviy shartlariga to'g'ri keladi.

Barcha xavflar uchun javobgarlik sharti eng ko'p tarqalgan, ammo u "Barcha xavflarni" qoplamaydi. Bu shartlardan quyidagi shikastlar istisno. YUkni har xil harbiy harakatlar oqibatida shikastlanishi yoki radiatsiya xavfi, sug'urtachi yoki

uni vakillarini sovuqqonligi oqibatidagi shikast, yuk tashish, va saqlash qoidalarini qo'pol ravishda buzish, olov yoki portlash, sug'urtachiga bildirmasdan yuk bilan bir joyda portlash xavfi bo'lgan moddalar joylanishi, yukni kelishuvchi, hashoratlar tomonidan shikastlanish, yukni tashish va baho tushumida cho'zish.

Qisman avariya uchun javobgarlik shartlari birinchisidan farq qilib, unda qoplanishi kerak bo'lgan shikastlarning aniq ro'yxati mavjud. Tabiiyki bu yerda sug'urtachining javobgarligi kam. Bu shartga ko'ra "Barcha xavflar" sharti bilan qoplanmagan barcha xavflar bu yerda ham javobgarlikdan istisnodir.

SHikastlar uchun javobgarliksiz sharti sug'urta shartlarining ro'yxatidagi haloqatdan tashqari umuman avariya uchun javobgarlik bilan shartlariga mos keladi. Farq shundaki oxirgi shart bo'yicha sug'urtachi oddiy sharoitlarda faqat yuk yoki uning qismiga to'la nobud bo'lganligi uchun javobgar bo'ladi.

Polis bo'yicha huquq va manfaatlarini o'tkazish yoki sug'urta bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan summadan o'tkazish, sug'urtachi yoki uning vakilining shu o'tkazishlar to'g'risidagi imzolangan yozma roziligisiz amalga oshirilmaydi va tan olinmaydi ham.

Konteyner sotish hollarida uning sotilgan kunidan boshlab sug'urta bekor qilinadi. Sug'urta shartnomasi sug'urtachi tomonidan bekor qilinsa, netto mukofot ulushiga teng ulush qaytariladi. SHartnoma sug'urtalovchi tomonidan bekor qilinsa, tomonlar tomonidan kelishilgan mukofot qaytariladi.

Cug'urta, fuqarolar urushi, inqilob, qurolli chiqish, qo'zg'olon, fuqarolar to'qnashuvlari va qaroqchilik harakatlari oqibatidagi yo'qotishlar uchun ham javobgar bo'lmaydi. Sug'urta shartnomasini tuzish sug'urtachining yozma arizasi asosida olib boriladi, unda ob'ekt to'g'risidagi quyidagi asosiy axborotlar bo'lishi kerak: konteynerlar turi, hajm ko'rsatkichlari, baho, tashuvchi kema nomi, kemanding reysga chiqish vaqti, jo'nash nuqtasi, yukni yetib borish nuqtasi va boshqalar. Sug'urta qilingan yuk sug'urtada qayd qilingan hollarda shikastlanganini isbot qilish sug'urta qiluvchi zimmasida bo'ladi. Agar shikastlanish shartnoma shartlariga to'g'ri kelmasa, to'lov kemani yoki konteynerni ta'mirlash ishlariga teng summadan avariya vaqtidagi qismlarning eskirganligini hisobga olish bilan to'lanadi. Paydo bo'lgan bahslarni hal qilish uchun shartnomalarda arbitraj ajrimi joyi va tartibi ko'rsatiladi.

Yularni transportda sug'urtalash shartnomasiga ko'ra sug'urtachi tashkilot foydasiga shartnoma tuzilgan yuk egasiga yukka shartnomada kelishilgan shartlar asosidagi holatlarda xavf yoki shikast yetsa kelgan zarar uchun to'lov to'laydi. Shartnoma sug'urtachining yozma arizasi asosida tuziladi. Arizada quyidagilar ko'rsatilishi zarur. Yuk to'g'risidagi ma'lumot, transport turi, tashish yo'li, yukni jo'natish vaqti, tashish hujjatlari, yukni sug'urta summasi, sug'urta qilish shartlari. Sug'urta shartnomasi sug'urtachi tashkilot o'z imzosi uchun hujjat, ya'ni sug'urta polisini bergach va sug'urtachi sug'urta mukofotini to'lagan vaqtdan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Sug'urta to'la akkreditivda ko'rsatilgan sug'urta shartlariga to'liq mos keluvchi shartlarda yozilgan bo'lishi kerak.

Xalqaro aloqa yo'llardagi yuklarni transportda sug'urta qilish qoidalariga ko'ra sug'urtaning uch xil turi mavjud:

- "Barcha tavakkallar uchun javobgarlik bilan".

Sug'urtaning bu sharti - eng to'lig'idir. Maxsus kelishilgan hollardan tashqari, har qanday sababga ko'ra yukni shikastlanishi yoki butunlay yo'qolishidan kelgan barcha zarar to'lanadi.

- "Qisman avariya uchun javobgarlik bilan".

Bu shartga ko'ra sug'urtachi belgilangan sabablarga ko'ra kelgan zararni to'laydi asosan: olov, yashin va boshqa tabiiy ofatlar transport vositalari haloqati, ko'priklar qulashi oqibatida yukning bir qismi yoki hammasi nobud bo'lganligi uchun, yukni ortish, joylash va tushirish vaqtdagi baxtsiz hodisalar uchun.

- "Halokat hollaridan tashqari shikastlar uchun javobgarliksiz".

Bu shartga ko'ra transport vositalari halokati natijasida yuk butunlay yoki qisman nobud bo'lishidan bo'lgan zarar to'lanadi.

Sug'urta to'lovini talab qilishga sug'urtachi sug'urta qilingan yukdagi manfaatini, sug'urta holati borligini, o'zining zarar bo'yicha da'vosini hujjatlar asosida isbot qilishi zarur. Da'vo qila turib, sug'urtachi sug'urta kompaniyasiga quyidagi da'vo hujjatlari yig'indisini taqdim etadi:

- Sug'urta polisining asli;

- Konosament, charter yoki invoys (hisob-faktura);

- Sug'urta holatini ko'rsatuvchi hujjatlar - avariya sertifikat, xabar akti, ekspertiza akti, dengiz protesti, kema jurnalidan sug'urta holatining sababi ko'rsatilgan ko'chirmasi;

- Zararning ekspertiza hujjatlari bilan asoslangan hisobi.

Sug'urtachi da'vo berish va ilova qilinadigan hujjatlar berish muddatiga qattiq rioya qilishi zarur. YUk yo'qolgan holda sug'urta polisi yukni transport vositasidan tushirilganidan keyin 3 kun ichida tashuvchiga berishi shart. YUk avariya komissari tomonidan tekshirish va tushirilgan vaqtdan 10 kun ichida olib borilishi kerak.

Tashqi savdo operatsiyalarini olib borishda da'vo qilish muddatlari quyidagicha: eksport tashuvlarida sug'urta holati aniqlangan vaqtdan boshlab - 1 yil, import tashuvlarida esa - 6 oy. Transport shartnomasi bo'yicha barcha bahslar arbitraj sudlarida hal qilinadi.

Sug'urta hujjatlari. Ushbu hujjatlar sug'urta qiluvchi va sug'urta qilinayotgan shaxs o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Sug'urta qiluvchining roli shundan iboratki, u sug'urta qilingan shaxsga baxtsiz hodisa tufayli yetkazilgan zararni to'laydi. Sug'urta hujjatlariga quyidagilar kiradi:

1. Sug'urta polisi – sug'urta qiluvchi tomonidan beriladigan va sug'urta to'g'risidagi shartnomani tasdiqlaydigan hujjat. Polisda tuzilgan shartnomaning shartlari ko'rsatiladi. Unda sug'urta qiluvchi aniq ko'rsatilgan to'lov evaziga shartnomada ko'rsatilgan tavakkallar va baxtsiz hodisalar tufayli yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladi.

Sug'urta polisi sug'urta jamiyati tomonidan sug'urta qiluvchiga u sug'urta to'lovini to'lab bo'lganidan keyin beriladi. Sug'urta polislari sug'urtani rasmiylashtirish tartibi va tavakkalning xususiyatidan kelib chiqib turli ko'rinishlarda va nomlarda bo'ladi. Bosh polis sug'urta qiluvchi va sug'urta qilinayotgan shaxs o'rtasidagi uzoq muddatli shartnomadan iborat bo'ladi. Reysli

sug'urta polisi sug'urta ob'ektini ma'lum muddatga sug'urta qiladi. Aralash polis bo'yicha ob'ekt ham ma'lum reysga, ham ma'lum muddatga sug'urta qilinadi.

2.Sug'urta sertifikat – sug'urta jamiyati tomonidan sug'urta qilinuvchiga beriladigan hujjat bo'lib, u sug'urta o'tkazilganligi va va polis berilganligini tasdiqlaydi. Aniq yukka nisbatan bunday sertifikat asosan agar tovarlar bosh yoki valyutalashtirilmagan polis shartlariga mos ravishda sug'urta qilingan bo'lgan hollardagina to'ldiriladi. Sug'urta qilinuvchining talabiga binoan, bu hujjat sug'urta polisiga almashtirilishi mumkin, chunki ko'plab mamlakatlarning qonunlari sug'urta hujjati sifatida faqat sug'urta polisinigina tan oladi.

3.Sug'urta e'loni (bordero) – sug'urta qilinuvchi o'z sug'urta qiluvchisiga taraflar o'rtasida tuzilgan shartnomaning kuchi ta'sir qiladigan alohida yuk jo'natishlar haqida batafsil ma'lumotlar beradigan hujjatdir.

4.Kovernot – sug'urta qilinuvchi tomonidan sug'urta qiluvchini uning sug'urta haqidagi yo'riqnomalari (sug'urta agenti tomonidan sug'urta qilinuvchi foydasiga tuzilgan) bajarilganligi haqida xabar qilib beradigan hujjatidir.

4. O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorining rivojlanishi

Ma'lumki, har qanday bozorda sotuvchi va xaridor bo'ladi hamda ular o'rtasida tegishli tovarlar (xizmatlar) ayirboshlanadi. Xuddi shunday, sug'urta bozorida ham sotuvchi (sug'urtalovchi) va xarid or (sug'urtalanuvchi) ishtirok etadi.

Sug'urta bozori hududiy joylashuviga qarab xalqaro, mintaqaviy va milliy sug'urta bozorlariga bo'linadi. Milliy sug'urta bozori biron-bir mamlakat hududidagi sug'urta muassasalarini va ularni faoliyatini o'z tarkibiga oladi. Jahondagi eng yirik milliy sug'urta bozori Amerika Qo'shma SHtatlaridir. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda yig'iladigan sug'urta tushumlarining 43 foizdan ortig'i AQSH hissasiga to'g'ri keladi. Bu yerda hayotni sug'urta qiluvchi 2600 dan ortiq va boshqa umumiy turdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi 3800 ta kompaniya faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan ba'zi birlari dunyo sug'urta bozorida ham oldingi o'rinlardadir. Masalan, "Prudenshial of Amerika" kompaniyasi mamlakat ichki bozorida birinchi va 1992 yil boshida mavjud aktivlari, to'plagan sug'urta mukofotlari bo'yicha uchinchi o'rinni egalladi.

Sug'urta bozorlari hududiy bo'linish bilan bir qatorda sug'urta turlariga qarab ham xilma-xil bo'lishi mumkin. Iqtisodi rivojlangan mamlakatlar amaliyotida sug'urta bozori ikkiga bo'linadi: 1) Hayotni sug'urta qilish bilan bog'liq sug'urta xizmatlari bozori; 2) Umumiy sug'urta xizmatlari bozori.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tashabbuslari bilan moliyaviy bozorni yanada rivojlantirish, uning oshkoraligi va barqaror faoliyatini ta'minlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan investitsiyalar jalb etilishini faollashtirish borasida tegishli vazirlik va idoralar tomonidan jadal ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida, aholi turmush tarzini yaxshilanishiga, ishsizlikni oldini olishga va eng asosiysi kambag'allikni yo'qotishga turtki bo'ladi. Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi

iqtisodiyotining barcha sohalarida shu jumladan, sug'urta sohasida ham chuqur islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi 618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2008 yil 21 maydagi 872-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, sug'urta, sug'urta faoliyati va sug'urta nazoratining qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirishning yaqqol misolidir.

Bundan tashqari, Prezidentning mazkur qarori asosida, mol-mulk sug'urtasi va hayotni uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha aholi va korxonalarning to'lagan sug'urta mukofotlari ularning daromad solig'i bazasidan chiqarilishi belgilandi, bu bilan shaxsiy sug'urtani va avvalo jamg'arib boriladigan sug'urta turlarini rivojlanishiga ulkan baza yaratib berildi. Hozirda O'zbekistonda 29 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sug'urta kompaniyalaridan 4 tasi davlat ulushiga ega sug'urta kompaniyalari hisoblanadi, bular "O'zbekinvest" YEIMSK, "O'zagrosug'urta" DASK, "Kafolat" DASK va "Madad" Sug'urta agentligidir. "O'zbekinvest hayot" sug'urta kompaniyasi hayot sug'urtasi sohasida faoliyat yuritadi va yana bitta qayta sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi "Transinshurans" sug'urta kompaniyasi mavjud. Qolgan 25 ta sug'urta kompaniyasi umumiy sug'urta sohasida faoliyat yuritmoqda.

Yalpi sug'urta mukofotlari hajmining yalpi milliy mahsulotdagi ulushi, sug'urta bozori rivojlanishini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich oxirgi yillarda 0,3% atrofidagi barqarorlikka erishdi, bu mahalliy sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta xizmatlariga bo'lgan to'lovga qobil talabning to'liq qondirilganligidan dalolat beradi. SHunday qilib, shuni ta'kidlab o'tish joizki O'zbekistonda sug'urtalash va qayta sug'urtalash faoliyati yuqori o'sish sur'atlarini saqlab turibdi va sug'urtaning iqtisodiyotdagi ahamiyati kundan kunga oshib bormoqda.

Asosiy tayanch tushunchalar

Sug'urta - yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lum bir to'lov evaziga sug'urta qilingan shaxsga baxtsiz hodisa tufayli yetkazilgan zararni to'lash majburiyatini oladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni sug'urtalash — davlatning, uning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari va fuqarolarining muayyan voqealar sodir bo'lganda (sug'urta hollari) ular tomonidan to'lanadigan sug'urta mukofotlari (ya'ni badallari)dan shakllanadigan pul fondlari hisobiga mulkiy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha xalkaro iqtisodiy munosabatlardir.

Sug'urta hodisasi — sug'urtalovchi sug'urta qoplami yoki sug'urta summasini to'lashga majbur bo'lgan voqea.

Sug'urta polisi – sug'urta qiluvchi tomonidan beriladigan va sug'urta to'g'risidagi shartnomani tasdiqlaydigan hujjat

Sug'urta sertifikati – sug'urta jamiyati tomonidan sug'urta qilinuvchiga beriladigan hujjat bo'lib, u sug'urta o'tkazilganligi va va polis berilganligini tasdiqlaydi.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. TIF ning rivojlanishida sug'urtaning roli va uning mohiyati ?
2. O'zbyokinvest" va uning vazifalari ?
3. Sug'urta shartnomalari ?
4. TIFni sug'urtalash texnikasi va uni tashqil etish ?
5. "Inkoterms" qoidalari ?

6-Mavzu: Tashqi iqtisodiy faoliyatda investitsiyalar.

REJA:

1. Investitsiya mohiyati va shakllari
2. O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati va dasturi
3. Tashqi iqtisodiy faoliyatda investitsiyalarning tutgan o'rni
4. Qo'shma korxonalarni tashqil etish xususiyatlari va faoliyati

1. Investitsiya mohiyati va shakllari


«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so'zidan kelib chiqqan bo'lib «qo'yish», «mablag'ni safarbar etish», «kapital qo'yilmasi» ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida tarflanadi. Investitsiya deyilganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991 yildan boshlab qabul qilingan bo'lib, ular o'tgan vaqt ichida ancha takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya to'g'risida"gi qonunida ko'rsatilishicha, "investitsiya bu - iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aktsiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir". Bu iqtisodiy tarif investitsiyaning bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos kelishini to'raligicha tasdiqlaydi. Jumladan, unda, birinchidan, investitsiyaning o'ziga va investitsiya faoliyatining ob'ektlariga keng ta'rif berilgan. Ikkinchidan, investitsiyaning bevosita iqtisodiy va ijtimoiy samara

olishga muqarrar bog'liqligi ta'kidlab o'tilgan. Demak, investitsiyaga bozor munosabatlaridan kelib chiqib berilgan ta'rifning o'zidayoq investitsiya jarayonning hajmi, asosiy bosqichlari, yani jamg'armalar (resurslar), qo'yilma mablag'lar (sarf-xarajatlar), samara (daromad, foyda) aniq va ravshan ko'rsatib o'tilgan. Xuddi shu kabi yondashuv investitsiya faoliyatning bozor munosabatlariga o'tishi uchun zamin yaratadi, bu esa, moliyaviy moddiy va aqliy boyliklarni qayta taqsimlashning vertikal va gorizontal usullaridan bir xilda foydalanishni ta'minlab beradi.

Investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyati to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, bu o'rinda "investitsiya" tushunchasining moliyaviy, mulkiy va intellektual (aqliy) qimmatini takror ishlab chiqarishning dastlabki va asosiy tushunchasi bo'lib maydonga chiqishini unutmaslik kerak. Ko'pgina iqtisodchi olimlar va amaliyotchilarning asarlarida investitsiya va u bilan bog'liq bo'lgan boshqa muammolar to'g'risida fikrlar bor. Masalan, professor ye. V. Mixaylovaning fikricha, investitsiya bu sub'ekt ixtiyoridagi barcha moliyaviy, moddiy va boshqa boyliklarni kelajakda iqtisodiy samara olish uchun biror ob'ektga sarflashdir. Bu o'rinda investitsiyaning mohiyati bilan mazmunini bozor iqtisodiyotiga moslashtirib ochib berishga harakat qilingan.

Investitsiya to'g'risida O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunda ko'rsatilishicha, investitsiya bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aktsiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.



2-chizma. Investitsiya turlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir investitsiya turining o'ziga xos o'rni bo'ladi.

Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, yani binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi.

Aqliy (intellektual) investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid shakldagi

investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat. Mulkiy huquqlar guruhiga kiradigan investitsiyalarning turlari bozor munosabatlarining nechog'lik rivojlanganligiga, milliy bozorlarning o'ziga xos tomonlariga qarab har xil bo'ladi. Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, "nou-xau", kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.

Hududiy joylashtirilishi bo'yicha investitsiyalar ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi.

Tarkibiy tuzilishiga ko'ra investitsiyalar yalpi va sof investitsiyalarga ajratiladi. Yalpi investitsiyalar - bu ishlab chiqarish vositalarining iste'mol qilingan qismini qoplash hamda ularni qo'shimcha o'sishi maqsadida ishlab chiqarish jamg'armalari va aholi mablag'lari qo'yilmalaridir. Boshqacha so'z bilan aytganda, yalpi investitsiyalar o'z ichiga amortizatsiya va sof investitsiyalarni oladi. Sof investitsiyalarni aniqlash uchun yalpi investitsiyalardan amortizatsiya ajratmalari chiqarib tashlanadi. Yalpi investitsiyalar va amortizatsiya o'rtasidagi nisbatga qarab iqtisodiyotning ahvoli qanday ekanligini, ya'ni yuksalish, yo turg'unlik yoki pasayish davrini boshidan kechirayotganligini aniqlash mumkin. Agarda, yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan ortiq, ya'ni sof investitsiya yuqori bo'lsa, iqtisodiyot yuksalishda bo'ladi, chunki uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi. Yalpi investitsiya va amortizatsiya bir-biriga teng bo'lgan chog'da iqtisodiyotda turg'unlik holati vujudga kelishi mumkin. Bu vaziyatda sof investitsiyalar nolga teng bo'lib, iqtisodiyotda shu yili qancha kapital iste'mol qilingan bo'lsa, uni qoplash uchun shuncha kapital qo'yilmalar kerak bo'ladi.

Qo'yilish ob'ektiga, yo'naltirilayotgan sohalar va ularni ishlatishdan olinadigan natijalarga qarab investitsiyalar real va moliyaviy shakllarga ajratiladi. Real investitsiyalar – pul mablag'larini korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat. Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Xususiy investitsiyalar nodavlat yuridik shaxslarining va fuqarolarning mablag'larini tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga qo'yilishini anglatadi. Davlat investitsiyalari - bu davlat tomonidan milliy daromadning davlat byudjeti mablag'lari ko'rinishida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uchun sarflayotgan mablag'laridir. Xorijiy investitsiyalar - bu chet yel investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.


2. O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati va dasturi

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ularning iqtisodiy yuksalishida faol investitsiya siyosati markaziy o'rinni egallashini tasdiqlaydi. SHu bois O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari uning investitsiya siyosatida to'liq aks ettirilishini taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzasida - “Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan navbatdagi muhim ustuvor yo'nalish – bu asosiy yetakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat” -deb ta'kidladi.

Mustaqillikka erishilgandan boshlab, mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'lidan bormoqda. Bu yo'lda investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. SHu jihatdan O'zbekiston o'z tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib bormoqda (- chizma)

Tuzilmaviy investitsiya siyosati hududlar, tarmoqlar va korxona investitsiya siyosatlaridan tarkib topib, ular o'zaro bog'liqdir. Hududlar investitsiya siyosati - investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora-tadbirlar majmui.



3-chizma. O'zbekiston Respublikasining tuzilmaviy investitsiya siyosati

Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Davlat tuzilmaviy investitsiya siyosatida yangi tarmoqlarni tashqil etish va rivojlantirish, aholining iste'mol tovarlari, ish joylarga bo'lgan talabini qisqa vaqt ichida yuqori darajada ta'minlashga erishish yo'lida quyidagi vazifalarga amal qilmoqda:

- Eskirgan ishlab chiqarishlarni sekin-asta muomaladan chiqarib tashlash;
- Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash;

-To'lov qobiliyatiga ega bo'lgan va talabga mos holda ishlab chiqarish tuzilmalarini yaratish;

-Ishlab chiqarish resurslaridan va ilmiy-texnika salohiyatidan imkon qadar yuqori darajada foydalanishni ta'minlash;

-Mamlakatning ekologik va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va uni kuchaytirish;

-Samarali, raqobatga asoslangan ishlab chiqarishlar, bozor infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish soxasi va intellektual faoliyatlar rivojlanishini uyg'unlashtirish;

-Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish va yangi tarmoqlarni barpo etish;

-Aholining ish bilan bandligini va hamda iqtisodiy faolligini oshirish;

-Hududlar ijtimoiy infratuzilmasini to'liq shakllantirish.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari orasida quyidagilarni alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin:

-Investitsiya jalb qilish uchun xalqaro me'yorlar va konventsionalarga mos keladigan, sanoati rivojlangan mamlakatlar investorlari tomonidan tan olinadigan huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga intilish;

-Respublikaga jahon darajasidagi texnologiyalarni yetkazib beradigan va iqtisodiyotning zamonaviy tuzilishini vujudga keltirishga yordam beradigan investorlar uchun ochiq eshiklar siyosatini izchillik bilan amalga oshirish;

-Ishlab chiqarish bilan bog'liq investitsiyalarni kiritishga ko'maklashish;

-Mamlakatning kredit qobiliyatini qo'llab-quvvatlash;

-Mamlakatning ayrim mintaqalarida ijtimoiy va ekologiya muammolarini hal qilishga qaratilgan investitsiyalarni kiritishga yordam berish.

O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi bu - davlat tomonidan xorijiy investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun ustuvor va birinchi galda bajarilishi kerak bo'lgan davlat tomonidan rag'batlantiriluvchi yo'nalishlarni ishlab chiqish vositasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va ular kiritgan mablag'larning yuqori iqtisodiy samaradorligiga erishish uchun mukammal huquqiy baza, tegishli institutlar yaratish tizimidir. O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi – ichki va tashqi siyosatning umumiy yo'nalishi hisobga olingan ijtimoiy-iqtisodiy va xususiy xo'jalik qarorlari majmuasi bo'lib, mablag'lardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida mamlakat ichiga va xorijga kiritilgan sarmoyalarning yo'nalishi va joylashuvini belgilaydi. Ishlab chiqarish salohiyatining o'sishi, iqtisodiy o'sish sur'atlari, moddiy va manaviy boyliklarni ishlab chiqarish hajmi va sifatining ko'tarilishi va butun infratuzilmasining rivojlanishi ko'p jihatdan investitsiya va investitsiya dasturiga bog'liq. Investitsiya dasturi davlatning investitsiya mablag'larini mamlakatda moddiy boyliklar ishlab chiqarishni tashqil etish uchun safarbar qilish vazifasidan iboratdir. Tashqiliy-huquqiy jihatdan davlat siyosatining bu sohasi uning tegishli idoralari tomonidan ushbu siyosatning maqsad va vazifalari amalga oshiriladigan faoliyatdir. Investitsiya dasturining tashqi tomoni ham bor bo'lib, u iqtisodiyotni zamonaviy texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni tashqil etish asosida jadal rivojlantirish

vazifasini hal etish uchun iqtisodiyotga chet yel investitsiyalarini jalb etishni o'z ichiga oladi. Bu vazifani qo'shma korxonalar barpo qilish, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy xususiy investitsiyalardan foydalanish yo'li bilan hal etish mumkin. SHu munosabat bilan xorijiy investitsiyalarni huquqiy tartibga solish masalalari dolzarblashadi. Aniq, samarador va hayotiy rioya qilinadigan qonunlariga ega bo'lgan ochiq va liberal investitsiya dasturi xorijiy investitsiyalarni jalb etishning qudratli qurolidir. Bunday siyosatni ishlab chiqish respublikaning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolishi kerak.

Davlat investitsiya jarayonini tashqil qiluvchi va asosiy investor bo'lib xizmat qilishi kerak – ijtimoiy siyosat nuqtai nazaridan bu uning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Investitsiya dasturining aniq maqsadga yo'naltirilgan va ilmiy asoslangan asosiy vazifasi davlatning jamiyatda moddiy va manaviy boyliklarni ishlab chiqarishni tashqil etish uchun investitsiya mablag'larini safarbar qilish bo'yicha faoliyat yuritishidan iborat. Investitsiya faoliyati– bu investitsiya kiritish va investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha olib boriladigan amaliy harakatlarning yig'indisidir.

Investitsiya dasturi tovar-pul munosabatlarini takomillashtirish sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur siyosat rivojlangan tovar-pul munosabatlarida uncha katta ahamiyatga ega emas. CHunki o'z-o'zini boshqaruvchi iqtisodiyot sharoitida investitsiya dasturi asosan tartibga soluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Investitsion loyihalarning manziliy dasturi har yili ishlab chiqilib , moliyalashning asosiy manbalari asosida investitsion loyihalarning kerakli ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Investitsion loyihalarning manzilli dasturiga kiritishning zarur shartlari mavjud:

- Texnik - iqtisodiy asoslarning mavjudligi;
- Shartnomada ko'rsatilgan kreditlarning vaqtida qoplanganligi va moliyalashtirish manbalari tasdig'ining mavjudligi ham zarur.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 420-sonli "O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha me'yoriy huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi qarori ishlab chiqildi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi investitsion dasturi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashning muhim qismi bo'lib davlat investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlarini aks ettiradi. Dasturning asosiy maqsadi bo'lib, O'zbekiston iqtisodiyotini dinamik rivojlanishiga, O'zbekiston iqtisodiyotning zarur strukturaviy o'zgarishlarni amalga oshirishga, iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar asosida jahon iqtisodiy tizimiga keng integratsiyasi, tabiiy mineral xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga erishish hisoblanadi.

Dastur quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari yordamida prognoz qilish ;
- Muhim investitsion takliflarning taqqoslama ro'yxati;
- Investitsion loyihalarning manzilli dasturi.

Dastur quyidagilarni amalga oshirishga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar prognozini o'z ichiga oladi:

- Tabiiy mineral xom ashyo moliyaviy moddiy va mehnat resurslaridan foydalanishning samarasini oshirish;

- Davlat byudjeti respublikaning ichki va tashqi qarzдорligi bilan bog'liqligi;

- Moliyaviy mablag'lar bilan tasdiqlangan ob'ektlarni va kreditlar qaytarilishi, shuningdek, qurilish va qurish materiallari sanoatidagi kuchlarning balanslashtirishni kiritish;

- Iqtisodiy va ekologik jihatdan asoslangan yangi korxonalarni joylashtirish va regionlarning kompleks rivojlanishini hisobga olgan holda faoliyat yurituvchi korxonalarda qo'shimcha kuchlarni yaratish hamda ishlab chiqarish, noishlab chiqarish infrastrukturasidagi va mehnat resurslaridagi tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish.

Mamlakat miqyosidagi investitsiya faoliyatini samarali amalga oshirish maqsadida investitsiya dasturi ishlab chiqiladi.

3. Tashqi iqtisodiy faoliyatda investitsiyalarning tutgan o'рни

O'zbekiston Respublikasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p tomonlama aloqalarni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Respublikamizning Yaqin Sharq va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarga yaqinligi, chegaradoshligi, yevropa va Osiyo mamlakatlari savdo yo'lida joylashganligi tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning natijasida eksportga ixtisoslashgan qo'shma sub'ektlarni tashqil etish, erkin iqtisodiy hududlarni shakllantirish negizida tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada rivojlantirish imkoniyatlari vujudga keladi.

Hozirgi kunda respublikamizda importning o'rnini qoplash va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab – quvvatlash dasturi amalga oshirilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish uchun xorijiy sarmoyalarni ustuvor yo'nalishlarga jadalroq jalb qilishga, ularga kafolat va imtiyozlar berishga, litsenziyalar, “nou xau”lar sotib olishga, valyuta tushumlarini kadrlarni tayyorlashga sarflashda erkinliklar berishga qaratilgan izchil siyosat olib borilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirish – ushbu sohadagi boshqaruvni takomillashtirish, eng avvalo, sanoat yo'nalishidagi sub'ektlarini boshqarish va iqtisodiy rag'batlantirish tizimini yaratishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Jahon andozalari darajasidagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun sub'ektlarni zamonaviy ilg'or texnologiya, eng yangi uskunalar, ayniqsa kichik sub'ektlar uchun mo'ljallangan ixcham uskunalar bilan jihozlash talab qilinadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, hamda zarur bo'lgan infrastrukturallarni yaratishga katta ahamiyat berilmoqda. Bular jumlasiga, tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Xorijiy sarmoyalar bo'yicha agentlik, “O'zbekinvest” eksport-import milliy sug'urta

kompaniyasini kiritishimiz mumkin. Bu tashkilot va muassasalarning respublikamizga xorijiy sarmoyalarning kirib kelishini tezlashtirishda, ustuvor yo'nalishlarni aniqlashda, ularni sug'urtalashda, bank va konsalting xizmatlari ko'rsatishda beqiyos ahamiyatga egadir.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirishni muhim shartlaridan biri muomalada bo'lgan pul birligini qadrsizlanishini oldini olishdir. Investitsiya faoliyatidan olinadigan samarani ko'paytirish maqsadida investitsiyalar hajmini, yo'nalishlarini va manbalarini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. SHu bilan birgalikda yangi moliyalashtirish, kredit bilan ta'minlash, bahoni tahlil qilish, soliqqa tortish tizimlarini takomillashtirishdir. SHuni ta'kidlab o'tish joizki, investitsiya faoliyatini tartibga solishda eng muhim va asosiy muammolardan biri chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni respublika mintaqalari bo'ylab bir tyokis joylashtirishdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishning kengayib borishi darajasiga qarab investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, bevosita chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga, shuningdek, xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilishni ham nazarda tutadi. Bunda chet yel investitsiyalar oqimini rag'batlantirish, shu bilan birga milliy iqtisodiyot sub'ektlarining bu faoliyatda ishtirok etishini taqdirlash muhim o'rinda turadi. Shunday qilib davlat tomonidan investitsiya munosabatlarini tartibga solishning vazifasi, bir tomondan, bevosita chet el investitsiyalari oqimini oshirishdan, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotdagi xususiy mulkchilik sub'ektlarining qo'yilmalarini kengaytirishdan iborat bo'ladi.

Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarining jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Malumki, har qanday davlat dunyodan ajralgan holda jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning yetakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas. O'zbekiston iqtisodiyotida chuqur iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilar ekan, xorijiy investitsiyalar rivojisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'lumki xorijiy investitsiyalar iqtisodiy rivojlanish garovi, iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Yaqin yillargacha faqat xom ashyo mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan O'zbekiston bugun dunyo haritasida o'zining munosib o'rnini egallashga, boshqa taraqqiy topgan mamlakatlar, avvalambor, AQSH, G'arbdagi demokratik davlatlar, Sharqdagi Yaponiya, Koreya, Malayziya yoki shunga o'xshash davlatlarga teng bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, bunda birinchi galdagi chet el sarmoyalari, chet el investitsiyasi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu davlatlarning tarixi shuni ko'rsatadiki, agar bu xorijiy malakatlarga sarmoya kelmasa, investitsiya kelmasa, hech qachon bu davlatlar bugungi rivojlanish darajasiga ko'tarila olmas edi.

4. Qo'shma korxonalarni tashqil etish xususiyatlari va faoliyati

Chet el sarmoyasi qatnashgan korxonalar mamlakatimiz biznes amaliyotida qo'shma korxonalar (QK) nomini oldi. Ular Vatanimiz va xorijiy sheriklarning

umumiy (birgalikda) foydalanadigan kapitallarini birlashtirish asosida tuziladi va ish olib boradilar. Ular milliy iqtisodning butunlay yangi xo'jalik tuzilmasi bo'lib qoldilar. QK rivojlanishi mamlakatni jahon bozoriga ko'proq, tabiiy va kengroq kirib borishi, xorijdan ilg'or texnologiyalarni olish uchun zarur bo'lgan valyuta olishga, xorijiy mamlakatlarga davlat qarzini to'lashga qaratilgan edi.

Zamonaviy QK lar o'z faoliyat ixtisosi, mulk tuzilmasi, tovar sotish bozoriga chiqish uslublariga ko'ra ko'p farq qiladi. Ular iste'mol uchun mo'ljallangan tovarlar, ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish va sotish, xizmat ko'rsatish, vositachilik, moliyaviy sug'urta va boshqa operatsiyalar bilan, shou biznes va boshqa tadbirkorlik turlari bilan shug'ullanadilar. Xorijiy sarmoyali korxonalar to'g'risidagi qonunchilikka ko'ra QKlarning Nizom fondlari faqat so'mdagi bevosita pul to'lovlari va valyutada emas balki pulda ifodalash yo'li bilan hisoblangan. Binolar, ishlab chiqarish va savdo korxonalari, xom-ashyo, texnik uskuna va jihozlari hamda "nou-xau", ilg'or texnologiyalar, ilmiy g'oyalar, material va moddiy ulushlari berish yo'li bilan ham shakllantirildi. erkin tadbirkorlikni tushunish uchun korxona faoliyatining sotish va reja faoliyati istiqbolli belgilash (ma'nosiga ko'ra bu narsa marketing strategiyasining o'zi). Berilgan QK bozorlariga chiqmoqchi bo'lgan territoriyaning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy xususiyatlarini hisobga olmasdan tuzila olmaydi. qimmatli qog'ozlar bozorlarini tahlil qilish, xosh-ashyo, mehnat bozorlarini, qo'llanadigan texnologiyalarni, baholash iste'molchilar talabini kuzatish va istiqbolini belgilash, ham shunga kiradi.

Bozorni tezkor boshqarishga kelsak (marketing taktikasi) u berilgan hududlardagi iste'molchilarning psixologiyasi va tadbirkorlikning ko'pgina asoslarini (faqat iqtisodiy emas) bilmasdan amalga oshirila olmaydi. Aytaylik yevropada mahsulot uchun javobgarlik keltiradigan tovarning shartnomada shartlangan sifatiga ham shartlanmagan sifatiga ham ammo bitimning mohiyatiga tegishli bo'lgan sifatga taalluqli kafolatlar institutlari orqali amalga oshiriladi. SHu vaqtning o'zida shartnoma imzolalanayotgan paytida sodir bo'lgan kamchiliklar to'g'risida gap ketsa kafolatlar bermaydi. Umuman olganda kafolat doirasida da'volar qilish extimolini shartnoma yo'li bilan istisno qilish mumkin.

QK faoliyatida faqat ichki bozor bitimlariga suyanish mumkin emas raxbarlar va mutaxassislar QK o'z maxsulot va xizmatlari bilan chiqmoqchi bo'lgan regionlardagi hayotning tabiiy iqlimi tarixiy, ijtimoiy - siyosiy va boshqa sharoitlari tomonidan qo'yilgan barcha cheklanmalarni tahlil qilishlari va miqdoriy baholashlari zarur.

Qatiy gapirganda QK dagi sarmoyalar bo'yicha ishlar majmuasini tashqil etish va olib borish, bu ishni boshqa xo'jalik tuzilmalari va doimo foydalaniladigan namunalardan ham farq qilmaydi. Ularning umumiy o'lchami bitta, ammo aniq to'ldirish doimo o'ziga xosdir. Bu yerda tashqi bozor xususiyati bilan birga ichki qonunchilikdagi xorijiy sarmoyalar to'g'risidagi huquqiy munosabatlar bilan bog'liq bir qator o'ziga xosliklarni hisobga olish joizdir. Bu avvalo QK ni sarmoyalash manbalari, unga beriladigan bojxona va soliq imtiyozlariga, xom-ashyo bilan butlov buyumlari bilan ta'minlash tartibi, ta'sislar orasidagi o'zaro hisob-kitoblarga tegishlidir. SHunday qilib QK moliya iqlimida qulay ashyolar

mavjud. Soliq solish asosining kamayishi (korxona rivojlanish jamg'armasi yo'naltirilgan summalarni soliq solinadigan kirim yoki foydadan chiqarish yo'li bilan), to'g'ri pasayish va hatto soliqdan butunlay ozod qilish, soliqdan ozod qilish yoki bir qancha muddatga ularni to'lashni kechiktirish ko'rinishidagi soliq ta'tillari, QK faoliyatiga qulaylik yaratuvchi maxsus zonalar yaratish, erkin iqtisodiy zonalar yaratish va boshqalar.

Sarmoya dasturlarini tuzish va amalga oshirishga foydadan soliq olish tartibigina emas, balki bojxona boji hamda QK ga valyuta jamg'armalarini shakllantirish tartiblari ham ta'sir etadi. O'zining material ishlab chiqarishini ta'minlashga mo'ljallangan mulkni xorijdan olib kirganda bojxona boji va soliqdan ozod qilinishi, sarmoya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish nuqtai-nazaridan qaraganda qo'shma korxonalarining muxim imtiyozlaridan biridir. QK korxonalar nizom fondiga ulush sifatida hududga olib kirilayotgan tovarlar uchun ustama qiymat solig'idan ularni qayd etilgan vaqtdan boshlab bir yil mobaynida ozod qilinadi. Ular tomonidan olib kirilayotgan texnologik jihozlar va ularga qismlar hamda qo'shma ilmiy ishlar olib borish va bir qatorda meditsina dorilarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan materiallar ustama qiymat solig'idan ozod bo'ladi. QK eksport qiladigan o'z ishlab chiqarish va sotib olingan eksport qilinadigan ish va xizmatlar shu qatorda O'zbekiston Respublikasi hududi orqali o'tuvchi xorijiy yuklar tranziti bo'yicha xizmatlar ham ustama qiymat solig'idan ozod bo'ladi.

QK faoliyati xususiyati bilan shartlangan TIF ni sarmoyali taktikasining asosiy xususiyatlarida to'xtalib o'tamiz.

Balki sarmoyalar bozorlarini uzoq va tezkor boshqarishning eng qimmat va shu bilan birga eng zarur sharti bo'lib bozor to'g'risidagi axborotlarni to'plash, tahlil qilish, ishlov berish, va uning sig'imi istiqbolini belgilashdir. SHeriklarning o'zlari alohida yoki birgalikda axborot olib kelish, uni birlashtirishi eng ma'qul yo'ldir. Albatta axborotni olish jarayonini tashqil etish sarflarini baholash qiyinchiliklar tug'diradi, lekin jahon amaliyotida shakllangan "Sarmoyalar bahosiga" suyanish mumkin.

Korxonaning bozor bilan qayta aloqasini ta'minlovchi axborotga egalik qilishi va uni tezkor choralar bilan boshqaruv asosida qo'llanilishi QK ni bozorda ushlab turish va uni egallashning eng muhim sharoitlaridir.

Asosiy tayanch tushunchalar

Investitsiya — ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital (sarmoya, texnika va texnologiya) kirgizish.

Yalpi investitsiyalar - bu ishlab chiqarish vositalarining iste'mol qilingan qismini qoplash hamda ularni qo'shimcha o'sishi maqsadida ishlab chiqarish jamg'armalari va aholi mablag'lari qo'yilmalaridir.

Sof investitsiyalar — yalpi (umumiy) investitsiyalar bilan eskirgan ishlab chiqarish vositalarini almashtirishga sarflangan summalar o'rtasidagi farq sifatida belgilanadigan investitsiyalar.

Real investitsiyalar – pul mablag’larini korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat.

Moliyaviy investitsiyalar – mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog’ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklardan iborat.

Qo’shma korxona – chet el mamlakati va uning sarmoyasi ishtirokidagi tashqil etilgan korxona.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Investitsiyaning iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering ?
2. Investitsiya dasturining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ?
3. TIF ni rivojlanishida investitsiyalarning ahamiyati ?
4. Qo’shma korxonalarning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o’rni ?
5. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilishning qanday shakllari mavjud?

7-Mavzu: Tashqi iqtisodiy faoliyatda raqobat va narxning shakllanishish REJA.

1. Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari.
2. Monopoliyalarning iqtisodiy asosi va ularning turlari
3. O’zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik
4. Narxning mazmuni, vazifalari va turlari
5. Narx siyosati va uning O’zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari


Bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o’z shakllarini o’zgartirib boradi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov raqobatning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko’rsatib, «Raqobat bo’lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo’lmaydi. Raqobat - bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir», deb ta’kidlaydi.¹

1. Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari

Raqobat ko’p qirrali iqtisodiy hodisa bo’lib, u bozorning barcha sub’ektlari o’rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Raqobat – bozor sub’ektlari iqtisodiy manfaatlarining to’qnashuvidan iborat bo’lib, ular o’rtasidagi yuqori foyda va ko’proq nafililikka ega bo’lish uchun kurashni anglatadi.

Bu munosabatlarni qiymatning mehnat va nafililik nazariyalarini sintez qilish usulini davom ettirgan holda quyidagi ko’rinishda ifodalash mumkin (1-chizma).

¹ Каримов И.А. «Ўзбекистон XXI асрга интилоқда». Т.: Ўзбекистон, 1999, 34-бет.



1-chizma. Raqobat ishtirokchilarining asosiy maqsadlari.

Raqobatning mazmuni uning vazifalarini ko'rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo'ladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) tartibga solish vazifasi;
- 2) resurslarni joylashtirish vazifasi;
- 3) innovatsion vazifa;
- 4) moslashtirish vazifasi;
- 5) taqsimlash vazifasi;
- 6) nazorat qilish vazifasi.

Raqobatning tartibga solish vazifasi ishlab chiqarishni talab (iste'mol)ga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta'sir o'tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijtimoiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya'ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning resurslarni joylashtirish vazifasi ishlab chiqarish omillarini ular eng ko'p samara beradigan korxona, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.

Raqobatning innovatsion vazifasi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti sub'ektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli ko'rinishdagi yangiliklarning joriy etilishini anglatadi.

Raqobatning moslashtirish vazifasi korxona (firma)larning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo'naltirilgan bo'lib, ularning shunchaki o'zini-o'zi saqlab, iqtisodiy jihatdan yashab qolishidan xo'jalik faoliyati sohalarining ekspansiyasi (kengayishi)ga o'tishini bildiradi.

Raqobatning taqsimlash vazifasi ishlab chiqarilgan ne'matlar yalpi hajmi (yalpi ichki mahsulot)ning iste'molchilar o'rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadi.

Nihoyat, raqobatning nazorat qilish vazifasi bozordagi ba'zi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik o'rnatishiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltiriladi.

Raqobat kurashining mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko'rib chiqish zarur.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular erkin raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyadir.

Erkin raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Yuqori darajada tashqil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar.

Erkin raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarsiz nazoratni amalga oshiradi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo'lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak mahsulot narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Erkin raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan yangi korxonalarning paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

Sof monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo'lishi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakka hukmronlik shakllanadi.

Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy. U mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

Monopolistik raqobat o'z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning o'nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotini tabaqalashtirish, ya'ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo'yicha farqlantirish orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko'p bo'lmagan korxonalarning mavjud bo'lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisidir. Qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko'pchilik sanoat mahsulotlari: po'lat, mis, alyuminiy, qo'rg'oshin, temir va shu kabilar – fizik ma'noda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste'molchilik tovarlari: avtomobillar, yuvish vositalari, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashgan oligopoliya hisoblanadi.

Oligopoliya sharoitida korxonalar o'rtasidagi raqobat o'zaro bog'liq bo'ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o'zining narx siyosatini mustaqil o'zgartirishga botina olmaydi.

Biz qarab chiqqan raqobatning to'rtta shaklining har biri milliy iqtisodiyotda alohida-alohida, ya'ni sof holda uchramaydi. Iqtisodiyot sohalarini batafsil o'rganish, cheksiz ko'p har xil raqobatli vaziyatlar mavjudligi sharoitida, ikkita bir xil tarmoqni topish qiyinligini ko'rsatadi.

Hozirda turli darajadagi monopolistik tuzilmalar rivojlanib borishi bilan ular o'rtasidagi raqobatning shakllari ham turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib bormoqda. Jumladan, turli monopollashuv darajasidagi tuzilmalar o'rtasida mavjud bo'lishiga ko'ra quyidagi raqobat turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) monopollashmagan korxonalar o'rtasidagi raqobat;
- 2) monopoliyalar hamda monopolistik birlashmalarga kirmagan ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat;
- 3) turli monopoliyalar o'rtasidagi raqobat;
- 4) monopolistik birlashmalar o'zining ichidagi raqobat.

O'z miqyosiga ko'ra raqobat ikki turga - tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi.

Tarmoqlar ichidagi raqobat ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Har bir tarmoqda texnika bilan ta'minlanish darajasi va mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo'lgan korxonalar borligi sababli shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovarlarning ijtimoiy qiymatini, boshqacha aytganda, bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat, odatda, o'rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining anchagina qismini tashqil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi.

Tarmoqlar ichidagi raqobat natijasida texnikaviy darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan korxonalar qo'shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa, o'zlarida ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo'qotadilar va zarar ko'radilar.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga kapitallarning oqib o'tishiga sabab bo'ladi. Yangi kapitallar ko'proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko'payishiga olib keladi. Shu asosda, narxlar pasaya boshlaydi. Shuningdek, foyda normasi ham pasayadi. Kam foyda keltiruvchi tarmoqlardan kapitalning chiqib ketishi teskari natijaga olib keladi: bu yerda ishlab chiqarish hajmi o'zgaradi, tovarlarga bo'lgan talab ular taklif qilishidan oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko'tariladi, shu bilan birga foyda normasi oshadi. Natijada tarmoqlararo raqobat ob'ektiv ravishda qandaydir dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat kapital qaerga sarflanganligidan qat'iy nazar, teng kapital uchun teng foyda olinishiga intilishni ta'minlaydi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa kiritilmasin, xuddi shu tarmoq foyda normalarini o'rtacha foyda normasiga «baravarlashtiradi».

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda g'irrom va halol raqobatlashuv usullari ham ajratib ko'rsatiladi. Raqobatlashuvning noan'anaviy, jamiyat tomonidan e'tirof etilmagan, ijtimoiy ahloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy

(ya'ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obro'siga putur yetkazish va h.k.) usullaridan foydalanish g'irrom raqobat deb yuritiladi. G'irrom raqobat orqali firmalar o'z raqiblarining tarmoqqa kirib kelishini tajovuzkorona va shafqatsiz bartaraf qilishi mumkin. Bank va resurslarni yetkazib beruvchilarni material va kredit berishdan voz kechirish, yetakchi mutaxassislarni og'irib olish, narxni keskin pasaytirish g'irrom raqobatning oddiy usullaridir.

Halol raqobat – raqobat kurashida jamiyat tomonidan tan olingan, iqtisodiy usullarni qo'llash, o'zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo'llamaslik kabi qoidalarga asoslanadi.

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat.

Narx vositasida raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli bo'lib ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarining shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi.

Uning asosiy va eng ko'p qo'llaniladigan ko'rinishi – «narxlar jangi» deb ataladiki, bunda yirik ishlab chiqaruvchilar raqiblarini tarmoqdan siqib chiqarish uchun narxni vaqti-vaqti bilan yoki uzoq muddat pasaytirib turadi. Bu usulni qo'llash uchun ishlab chiqaruvchi boshqa raqiblariga qaraganda unumliroq texnologiyani kiritishi, malakaliroq ishchilarni yollashi va ishlab chiqarishni yaxshiroq tashqil qilishi keraq bo'ladi. Faqat shundagina uning tovarining individual qiymati bozor qiymatidan past bo'lib, mazkur tovar narxini tushurish imkoniyatini beradi.

Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri - demping narxlarni qo'llashdir. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o'zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxidan ham past bo'lgan narxlarda sotadi.

Shu orqali ular ichki bozorda narxlarning barqarorligiga erishish mamlakatdagi ortiqcha mahsulotni yo'qotish, yangi bozorlarga kirib olish va unda o'zlarining iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga xaraqat qiladi.

Ayrim hollarda narx yordamida raqobatlashishning belgilangan narxlardan chegirma qilish, asosiy xarid qilingan tovarlarga boshqa tovarlarini qo'shib berish, muayyan hollarda imtiyozli narxlarni belgilash kabi usullaridan ham foydalaniladi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda narx yordamida raqobat qilish o'z o'rniga ega emas, chunki ishlab chiqaruvchilardan birining o'z mahsulotiga narxni pasaytirishi uning raqobatchilarining ham shunday xaraqat qilishini taqozo qiladi. Bu bozorda firmalarning mavqeini o'zgartirmaydi, faqat tarmoq bo'yicha foydani kamaytiradi.

Narxsiz raqobat shu bilan tavsiflanadiki, bunda raqobat kurashining asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro'-e'tibori hisoblanadi.

Narxsiz raqobat bilan bir vaqtda yashirin narx yordamidagi raqobat ham bo'lishi mumkin. Buning uchun yangi tovarlarning sifati oshishi va iste'mol xususiyatlarining yaxshilanishi ular narxlarining oshishiga qaraganda tez ro'y berishi keraq. Hozirgi davrda bir turdagi mahsulotlarning ko'payishi ularning sotishni rag'batlantiruvchi reklama, tovar belgilari va fabrika muhrlaridan

foydalanishni keltirib chiqarmoqda. Iste'molchilik bozorida qo'shimcha xizmat ko'rsatish orqali xaridorlarni o'ziga jalb qilish keng tarqalmoqda.

Narxsiz raqobatning tovar sifatini tabaqalashtirish kabi usuli ham mavjudki, bunda tovarlar bir xildagi ehtiyojni qondirishi va bir turga mansub bo'lishi, lekin turli-tuman iste'mol xossalari ega bo'lishi mumkin.

Tovarlar talabga nisbatan ortiqcha bo'lgan sharoitda ishlab chiqaruvchilar tovarlarini kreditga sotish usulidan foydalanib raqiblaridan ustun kelishlari mumkin. Bunda dastlab tovar narxining faqat bir qismi to'lanadi, uning qolgan qismi esa shartnomada kelishilgan aniq muddatlarda to'lanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti avj olgan hozirgi sharoitda, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlari ustidan nazorat qilish uchun kurash raqobatning asosiy usullaridan biriga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi korxonalar xaridorlarni jalb qilish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan iste'molchilik tovarlariga kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatishni amalga oshirmoqdalar. Masalan, kompyuter ishlab chiqaruvchi firma, o'z mahsulotini sotibgina qolmasdan, balki uni o'rnatadi, korxona xodimlarini ulardan foydalanishga o'rgatadi, kafolatlangan muddatda va undan keyingi davrda ta'mir ishlarini bajaradi, texnikaviy xizmatni amalga oshiradi; maxsulotlari o'lchamlarini buyurtmachi ehtiyojlariga yaqinlashtiradi.

Narxsiz raqobat usullari ichida marketing muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga moslashtiruvchi tadbirlar tizimidan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida talabni yaxshi o'rgangan va iste'molchilar ehtiyojlarini to'laroq qondira oladigan korxonalar har doim raqobat kurashida yutib chiqadi.

Yirik ishlab chiqaruvchilar bozordagi vaziyatni o'zgartirish uchun o'zlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni kamaytirib tovar taklifini qisqartiradilar. SHu sababli iqtisodiy beqarorlik davrlarida ham narx barqorligicha qolaveradi.

Shunday qilib, monopoliyalar hukmron bo'lgan sharoitda narxsiz raqobat muhim o'rin tutadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, monopoliyalar tovar sifatini oshirish, iste'molchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash yo'li bilan sotiladigan tovar hajmini ko'paytirishi mumkin. Ikkinchidan, ular moliyaviy jihatdan kuchli bo'lganligi sababli masulotini yangilash, ishlab chiqarishni qayta jihozlash va reklamaga zarur bo'lgan mablag'ni sarflay oladilar.

2. Monopoliyalarning iqtisodiy asosi va ularning turlari

«Monopoliya» atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya'ni, grekcha «monos» - yagona, bitta va «poleo» - sotaman) tarkib topsada, biroq uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishga borib taqaladi. Monopoliyani quyidagicha ta'riflash o'rinli deb hisoblaymiz: monopoliya – monopol yuqori narxlarni o'rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar,

bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari.^{3[28]}

Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to'planishi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning to'planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to'planishini namoyon etadi.

Ishlab chiqarish to'planishining asosiy sababi bo'lib olinayotgan foyda hajmining ko'payishi hisoblanadi. Foydani muntazam ravishda ko'paytirib borish maqsadida tadbirkor olingan qo'shimcha mahsulot (foйда)ning bir qismini kapitallashtiradi, ya'ni unga qo'shimcha ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib oladi. Bu esa ba'zi bir korxonalarning o'sishi hamda ishlab chiqarish miqyoslarining kengayishiga olib keladi. SHu bilan birga raqobat amaldagi kapitalarning ixtiyoriy yoki majburiy birlashtirish, markazlashtirish tendentsiyasini keltirib chiqaradi. SHunday qilib, ishlab chiqarish to'planishining moddiy asosi bo'lib kapitalning to'planishi va markazlashuvi hisoblanadi.

Kapitalning to'planishi – bu qo'shimcha qiymatning bir qismini jamg'arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishidir. Bu jarayon quyidagi ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi: korxonadagi ishlovchilar soni, korxonaning ishlab chiqarish quvvati, qayta ishlanayotgan xom ashyo miqdori, tovar aylanmasi hajmi, foyda hajmi.

Kapitalning to'planishi kapitalning markazlashuvi jarayoni bilan yanada to'ldiriladi. Kapitalning markazlashuvi – bu bir kapital tomonidan boshqa birining qo'shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitalarning aktsiyadorlik jamiyati shaklida ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o'sishidir.

Monopoliyalarning mohiyatini ochib berishda uning turlarini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Monopoliyalarning turlarini bir necha mezonlarga ko'ra ajratish mumkin.

1. Bozorni qamrab olish darajasiga ko'ra: sof monopoliya, oligopoliya va monopsoniya.

Sof monopoliya – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. O'zbekistonda sof monopoliyalar sifatida «O'zbekiston havo yo'llari» DAK, «O'zbekiston temir yo'llari» DAK, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasini misol keltirish mumkin. Darhaqiqat, ular o'z tarmoqlaridagi tegishli faoliyatlarning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadilar. SHuningdek, ba'zi hollarda tarmoqdagi monopolist ishlab chiqaruvchilar sonining ko'payib borishi monopolistik raqobat holatining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Monopolistik raqobat – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko'p hamda ular o'rtasida ma'lum darajada raqobat mavjud bo'lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o'z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi

^{3[28]} Bu mazmundagi ta'riflar quyidagi manbalarda ham berilgan: SHishkin A.F. ekonomicheskaya teoriya: Uchebnoe posobie dlya vuzov. 2-e izd. Kn.1. – M.: Gumanit. izd. tsentr VLADOS, 1996, 597-b.; Borisov ye.F. ekonomicheskaya teoriya: ucheb. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005, 208-b.; Основы экономической теории. Политекономия: Учебник /Под ред. д-ра экон. наук, проф. Д.Д.Москвина. Изд. 3-е, исправл. – М.: yeditorial URSS, 2003, 499-b.

sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada hukmronlik holati hisoblanadi. Bunga misol tariqasida ko'plab mebel, kiyim-kechak turlari, kir yuvish vositalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarini keltirish mumkin.

Oligopoliya – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi. Oligopolist-ishlab chiqaruvchilarga O'zbekistonda tsement (asosan Bekobod, Quvasoy, Ohangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan), ko'mir (Angren shahri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (Sharg'un) va Boysun (To'da) tumanlarida joylashgan) ishlab chiqarishni misol keltirish mumkin.

Monopsoniya – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko'p bo'lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste'molchisi yoki xaridori mavjud bo'lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. Bunga «O'zDEUavto» korxonasi yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur yirik korxona mamlakatimizdagi yengil avtomobillarni ishlab chiqarishda zarur bo'lgan ko'plab ehtiyot va butlovchi qismlarni ularning nisbatan mayda ishlab chiqaruvchilaridan sotib olishda yakkahukmronlik mavqeiga ega bo'ladi.

2. Monopoliyaning vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko'ra: tabiiy monopoliya, legal monopoliya, sun'iy monopoliya.

Tabiiy monopoliya tarkibiga kamyob va ishlab chiqarishning erkin tarzda takror hosil qilib bo'lmaydigan unsurlari (masalan, nodir metallar, foydali qazilmalar va h.k.)ga ega bo'lgan mulkdorlar va xo'jalik tashkilotlari kiradi.

Shuningdek, mazkur monopoliya tarkibiga o'ziga xos texnologiyaning qo'llanishi sababli raqobatni rivojlantirib bo'lmaydigan ba'zi bir tarmoqlar va ishlab chiqarish turlari ham kiritiladi.

Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo'lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati. Bunday samaradorlik ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi bilan tovar birligiga to'g'ri keluvchi xo'jalik xarajatlarining ahamiyatli darajada pasayib borishida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, tabiiy monopoliya sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste'molini boshqa turdagi mahsulotlar bilan almashtirib bo'lmaydi.

Legal (qonuniy) monopoliya – bu qonuniy tarzda tashqil etiluvchi monopolistik holat. Ular tarkibiga raqobatdan himoya qiluvchi quyidagi monopoliya shakllarini kiritish mumkin:

1) patent tizimi – bu ixtirochi va mualliflar tomonidan yaratilgan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarini tasdiqlovchi hamda ularga mutloq huquqni taqdim etish tizimi. Bu jarayon maxsus guvohnomalar – patentlar orqali amalga oshiriladi;

2) mualliflik huquqi – ilmiy, badiiy va san'at asarlari, ijro san'ati fonogrammalari, ko'rsatuvlar, efir to'lqini yoki kabel orqali tasvir uzatish kabilarni yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarini qonuniy tarzda tartibga solish shakli. Mualliflik huquqi faqat mualliflar tomonidan o'z mahsulotlarini ma'lum vaqtga yoki butunlay sotish, ulardan nusxa olish va ko'paytirishga ruxsat berish imkonini ta'minlaydi;

3) tovar belgilari – bu savdo belgilari, nishonlari, maxsus ramzlari, nomi va boshqalarni ro'yxatga olish, huquqiy jihatdan himoya qilish va ulardan foydalanish bo'yicha paydo bo'lgan munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli.

Sun'iy monopoliya – monopol foyda olish maqsadida tashqil etiluvchi birlashmalarning shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi.

Sun'iy monopoliya o'z manfaatlari yo'lida bozor muhiti tuzilishini ataylab o'zgartiradi, ya'ni:

- bozorga yangi raqiblarning kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun turli to'siqlar hosil qiladi (xom ashyo va energiya manbalarini egallab oladi; banklarning yangi korxonalarga kredit berishini taqiqlashga harakat qiladi va boshqalar);

- ishlab chiqarishning eng yuksak darajadagi texnologiyasiga erishib, qolgan raqiblarini bu darajaga chiqishiga imkon bermaydi;

- ishlab chiqarish miqyosi samarasidan unumliroq foydalanish imkonini beruvchi nisbatan yirik hajmdagi kapitalni qo'llaydi;

- o'z faoliyatini yuqori darajada reklama qilish orqali boshqa raqobatchilarni bozordan siqib chiqarishga harakat qiladi.

Cun'iy monopoliyalar kartel, sindikat, trest, konsortsium, kontsern kabi aniq shakllarda namoyon bo'ladi.

Kartel – bitta sanoat tarmog'idagi bir necha korxonalarning uyushmasi bo'lib, uning ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o'z mulkiy egaligini saqlab qoladi, yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmidagi har bir ishtirokchining ulushi, sotish narxlari, bozorlarning bo'lib olinishi va h.k. bo'yicha kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Sindikat – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarning birlashmasi. Bunda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining o'zida saqlanib qolgani holda, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot maxsus tashqil etilgan yagona sotish tashkiloti orqali amalga oshiriladi.

Trest – ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta'minlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs ko'rinishidagi birlashmasi.

Konsortsium – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi (masalan, yirik miqyosli loyihalarga juda kata miqdorda va uzoq muddatli kredit berish yoki investitsiyalar qo'yish).

Kontsern – rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan, ko'p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalari) ning majmuini o'z ichiga oluvchi birlashma. Odatda bunday birlashma ma'lum ishlab chiqarish faoliyatini bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan turli soha korxona va tashkilotlaridan tuziladi. Bunda bosh tashkilot qolgan ishtirokchilar faoliyati ustidan moliyaviy nazorat olib boradi. Hozirda sun'iy monopoliyalarning sanab o'tilgan shakllari orasida kontsernlar keng tarqalgan.

Monopoliyaning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy tomoni mavjud. Uning ijobiy tomoni asosan quyidagi ikkita jihat orqali namoyon bo'ladi:

- 1) monopoliya ma'lum tarmoqlarda nisbatan samarali amal qiladi va xarajatlarning tejalishiga olib keladi;

2) monopolist bo'lmagan, mayda, raqobatlashuvchi soha korxonalariga nisbatan monopolistik korxonalarda ishlab chiqarishga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish uchun ko'proq rag'bat va imkoniyat mavjud bo'ladi.

Monopoliyaning salbiy tomoni sifatida quyidagi jixatlarni ko'rsatish mumkin:

- 1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi;
- 2) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi;
- 3) iqtisodiy turg'unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi;
- 4) iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to'sib qo'yilishi.

Bundan ko'rinadiki, monopolistik faoliyat iqtisodiy rivojlanishiga ancha jiddiy ta'sir ko'rsatishi, taraqqiyot yo'liga g'ov bo'lishi ham mumkin. SHunga ko'ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo'llanilib, bu monopoliyaga qarshi siyosat deb ataladi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati asosini monopoliyaga qarshi qonunchilik tashqil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan bo'ladi.

Odatda AQSHdagi monopoliyaga qarshi qonunchilik nisbatan ilgariroq va mukammalroq ishlab chiqilgan, deb hisoblanadi. U quyidagi uchta qonunchilik hujjatlariga asoslanadi:

1. Sherman qonuni (1890 yilda qabul qilingan). Bu qonun savdoni yashirin monopollashtirish, u yoki bu tarmoqdagi yakka nazoratni qo'lga olish, narxlar bo'yicha kelishuvlarni taqiqlaydi.

2. Kleyton qonuni (1914 yilda qabul qilingan). Bu qonun mahsulot sotish sohasidagi cheklovchi faoliyatlarni, narx bo'yicha kamsitish, ma'lum ko'rinishdagi birlashib ketishlar, o'zaro bog'lanib ketuvchi direktoratlar va boshkalarni taqiqlaydi.

3. Robinson-Petmen qonuni (1936 yilda qabul qilingan). Bu qonun savdo sohasidagi cheklovchi faoliyatlar, «narxlar qaychisi», narx bo'yicha kamsitishlar va boshqalarni taqiqlaydi.

1950 yilda Kleyton qonuniga Seller-Kefover tuzatishi kiritildi. Unda noqonuniy birlashib ketishlar tushunchasiga aniqlik kiritilib, aktivlarni sotib olish orqali birlashib ketish taqiqlandi. Agar Kleyton qonuni yirik firmalarning gorizontal ravishdagi birlashib ketishlariga to'siq qo'ygan bo'lsa, Seller-Kefover tuzatishi vertikal ravishdagi birlashib ketishlarga cheklov kiritdi.

3. O'zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik

Raqobatning amal qilishi ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo'lishi mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi.

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhiti uzoq davr davomida, o'z-o'zidan, evolyutsion yo'l bilan vujudga kelgan. Bu asta-sekin erkin raqobat muhitini keltirib chiqargan.

Iqtisodiyotda monopollashuv printsiplari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa, yuqorida ta'kidlanganidek, davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o'z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya'ni iqtisodiyotning monopollashuv darajasi uning miqyosi va tavsifiga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo'lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi.

Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, bizning respublikada sog'lom raqobatga shart-sharoit hozirlash, iqtisodiy sub'ektlar mustaqilligini kengaytirish orqali ularni raqobatchilikka jalb qilish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning muhim jihatlari hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlanganidek, bugungi kunda «... kuchli talab va raqobat iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ob'ektiv shart qilib qo'ymoqda. Bu borada ham juda ko'p yechilmagan muammolar bor. YA'ni, eski ma'muriy-taqsimot tizimi qoliplaridan butunlay voz kechish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini yanada cheklash, erkin tadbirkorlik faoliyati uchun amaliy kafolatlarni ta'minlash, iqtisodiyot va biznesni barqaror rivojlantirish, to'laqonli bozor infratuzilmasini shakllantirish yo'lidagi mavjud g'ov-to'siqlarni bartaraf etishimiz zarur».^{4[29]}

Bugungi kunda O'zbekistonda ham uyushmalar, kontsernlar, korporatsiyalar, kompaniyalar shaklidagi monopoliyalar saqlanib qolgan bo'lib, ular ko'pincha tarmoq vazirliklari mavqe va vazifalariga ega bo'ladilar. Mahsulot va xom ashyolarning alohida turlarini limit va fond ko'rinishida taqsimlashning eskicha tizimi, shuningdek, biznesni amalga oshirish uchun ruxsat, litsenziya, sertifikatlar berish, kelishish kabi mavjud ma'muriy to'siqlar monopolistik tendentsiyalarga ko'proq imkon yaratadi.

Shunga ko'ra, O'zbekistonda samarali raqobat muhitini yaratish uchun quyidagilar bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi taqozo etiladi:

a) iqtisodiyotda davlat monopolizmining har qanday namoyon bo'lishini maksimal darajada bartaraf etish;

b) bozor sharoitida vujudga kelayotgan monopoliyalarning bozordagi o'z ustunlik mavqelarini suiste'mol qilish imkoniyatlarining oldini olish.^{5[30]}

Shunday qilib, O'zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo'li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli xo'jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor tizimiga o'tishdir. Bu yerda raqobatchilik munosabatlarini shakllantirish, avvalo, mustaqil erkin tovar ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mas'uliyat asosida o'z manfaatiga ega bo'lgan va tadbirkorlik tahlikasini

^{4[29]} Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Т.: «Ўзбекистон», 2005, 76-77-б.

^{5[30]} Шадыбаев Т. и др. Особенности антимонопольной политики в Узбекистане: общие принципы и правовая база. - Экономическое обозрение, №2, 2004, с.5.

zimmasiga oluvchi erkin xo'jalik sub'ektlarining mavjudligi, ularning bozor orqali aloqa qilishidir.

Shu maqsadda O'zbekistonda «Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida»gi qonun (1992 yil, avgust) kuchga kiritildi hamda uning asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir turkum me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Mazkur qonunga ko'ra, bozorda ataylab taqchillik hosil qilish, narxlarni monopollashtirish, raqobatchilarning bozorga kirib borishiga to'sqinlik qilish, raqobatning g'irrom usullarini qo'llash man etiladi. Qonunni buzuvchilar raqibiga yetkazgan zararni qoplashlari, jarima to'lashlari, g'irromlik bilan olgan foydadan mahrum etilishlari shart.

Iqtisodiyot va monopoliyaga qarshi amaliyot sohasidagi ahamiyatli o'zgarishlar tegishli qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishni taqozo etdi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996 yil 27 dekabrda «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi yangi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun monopolistik faoliyat va g'irrom raqobatning oldini olish, uni cheklash, to'xtatishning tashqiliy va huquqiy asoslari belgilab berib, respublikaning tovar bozorlarida raqobat munosabatlarini shakllantirish va samarali amal qilishga qaratilgan.

Shuningdek, qonunda asosan ikkita muhim yo'nalish, ya'ni birinchidan, monopoliyaga qarshi taribga solishning printsipliy yangi ko'rinishi bo'lib, u mavjud va saqlanib qolgan monopolistlar tomonidan bozorda hukmronlik mavqeini suiste'mol qilishning oldini olish va unga barham berishni ko'zda tutsa, ikkinchidan, eng asosiy muhim masalalardan bo'lib hisoblangan monopoliyadan chiqarish va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish ekanligi belgilab qo'yilgan.

Monopoliyaga qarshi faol choralarni amalga oshirish uchun 1992 yilda O'zbekistonda monopoliyaga qarshi organ Moliya vazirligining Monopoliyaga qarshi va narx siyosati bosh boshqarmasi sifatida tashqil etildi. Boshqarmaga ro'yxatga kiritilgan monopoliya mavqeidagi korxonalar mahsuloti bo'yicha narxlarni va rentabillikni tartibga solib turish huquqi berildi. 1996 yilda ushbu boshqarma negizida Moliya vazirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi tashqil qilindi. 2000 yilda Respublika Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashqil etish to'g'risida»gi Farmoniga asosan monopoliyaga qarshi organ Moliya vazirligi tarkibidan chiqarildi va mustaqil davlat qo'mitasiga aylantirildi. Keyinchalik mazkur qo'mitaning faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 30 apreldagi Farmoniga binoan u Monopoliyadan chiqarish, raqobatni va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasiga aylantirildi.^{6[31]}

Respublikada monopol mavqeiga ega bo'lgan korxonalarni Davlat reestriga kiritish uchun mezonlar belgilashda jahon tajribasi hamda o'tish davrining o'ziga xos jihatlari hisobga olinadi.

^{6[31]} Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони. Ўзбекистон Республикаси Монополиядан чиқариш, рақобат ва тadbirkorlikни қўллаб-қувватлаш давлат қўмитасини ташкил этиш тўғрисида. 2005 йил 30 апрель.

Hozirgi davrda Respublikada agar korxona ishlab chiqargan muayyan mahsulotlar bozordagi shu turdagi mahsulotning 35% dan ortiq bo'lsa, bu korxona monopolistik korxona sifatida Davlat reestriga kiritiladi. Oziq-ovqat tovarlari guruhi uchun bunday mezon darajasi 20% deb belgilangan.

Respublikada monopoliyalalar ro'yxatiga kirgan korxona (tarmoq) larning bozordagi mavqeini tartibga solishda davlat bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullardan ikkitasini ajratib ko'rsatish lozim:

1. Monopol mavqeidagi korxonalar mahsulotlariga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabellikning chegarasini belgilab qo'yish.

2. O'z monopol mavqeini suiiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo'lib tashlash yoki maydalashtirish. Bu usul Vazirlar Mahkamasining (1994 yil 18 iyuldagi 366-sonli) qarori bilan tasdiqlangan «Ob'ektlarning xo'jalik yurituvchi jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to'g'risidagi Nizom» asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» (1996 yil, aprel) qonuni asosida g'irrom raqobatga, shu jumladan Respublika bozorlariga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarishga yo'l qo'ymaydigan mexanizmni yaratishga ham alohida e'tibor beriladi.

Tabiiy monopoliyalarni davlat yo'li bilan tartibga solish ular mahsulot (xizmat)lariga narxlar va tariflar darajasini, shuningdek taklif etiladigan tovarlar va xizmatlar turiga doir asosiy ko'rsatkichlarni belgilashni o'z ichiga oladi.

Respublikada raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda amalga oshirilayotgan barcha ishlar bozor iqtisodiyotini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

4. Narxning mazmuni, vazifalari va turlari

Tovarlar qiymati va ularning nafliligi o'zlarining namoyon bo'lishini narxda topadi. Amaliy hayotda qiymat tovar ishlab chiqaruvchilarni, naflilik esa iste'molchilarni rag'batlantiruvchi, ularni harakatga keltiruvchi kuch sifatida amal qiladi.


Tovarning xarid qilinishi uning alohida olingan bir kishi uchun emas, balki jamiyat uchun nafliligini va shu bilan birga ijtimoiy qiymatini ham tan olishni bildiradi. Shu sababli, «ijtimoiy naflilik» tushunchasining o'zi biror tovar (xizmat) ning jamiyat uchun nafliligi, qadr-qiymatga egaligini ko'rsatadi. SHu mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, narx o'zida faqatgina naflilik yoki sarflarning birini emas, balki har ikkalasining bir vaqtda mavjudligini va ularning ma'lum miqdorini pul ko'rinishida ifoda etadi.

Tovardagi ikki xususiyat birdaniga tan olinmasa, u pulda ifodalanmasa oldi-sotdi sodir bo'lmaydi. Chunki tovarning qiymati tomonida sotuvchining manfaati, nafliligi (iste'mol qiymati) tomonida esa xaridorning manfaati yotadi. Tovar egasi o'z tovari uchun ketgan sarflarni qoplab, ma'lum darajada, iloji boricha ko'proq foyda olishni ta'minlashi mumkin bo'lgan qiymatni pul shaklida o'zlashtirishga intilsa, xaridor iloji boricha sarf qilayotgan pulining har bir birligiga ko'proq naflilikka (iste'mol qiymatiga) ega bo'lishga harakat qiladi. Ularning manfaatlari

to'g'ri kelgan nuqtada, darajada narx o'rnatilib, tovar pul almashuvi, oldi-sotdi sodir bo'ladi.


Bu holatni yaxshiroq tasavvur qilish uchun biz quyidagi 2-chizmaga e'tiborni jalb etamiz.

Bulardan xulosa qilib aytish mumkinki, narx – real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasidir.




2-chizma. Tovardagi ikki xil xususiyatlarning narxdagi ifodasi.

Bu yerda shuni yana bir bor ta'kidlash joizki, narxda alohida olingan ishlab chiqaruvchilarning individual sarflari emas yoki alohida olingan individual shaxslarning psixologik jihatdan naflilikka bergan bahosi ham emas, balki jamiyat tomonidan tan olingan ijtimoiy sarflar va jamiyat uchun zarur bo'lgan miqdorda va sifatda yaratilgan va tan olingan ijtimoiy naflilik (iste'mol qiymat) o'z ifodasini topadi. Tovarlar va xizmatlar uchun qilingan ijtimoiy sarflarning asosli ravishda o'sishi yoki tovar va xizmatdagi sifat ko'rsatkichlarining o'sishi ushbu tovar narxining oshishiga olib keladi.



3-chizma. Tovardagi ikki xil xususiyatni ifodalovchi narxlarning mansurot najmini nisoblashda qo'llanishi.



4-chizma. Narxga ta'sir qiluvchi omillar.

Shuning uchun real hayotda turli tovarlar va xizmatlardagi ikki xil xususiyat o'zgarishlari ularning hajmini hisoblashda ikki xil narxda hisobga olinadi (3-chizma).

Narxning mazmunini to'laroq tushunishda, uning darajasiga ta'sir etuvchi omillarni bilish muhim ahamiyatga egadir. Bularndan asosiylari bo'lib qiymat yoki ishlab chiqarish sarflari; tovarning naflilik darajasi; mazkur tovarga talab va taklif nisbati; raqobat holati; davlatning iqtisodiy siyosati va h.k. hisoblanadi. Bu omillar ichida tovar qiymati va nafliligi uning narxini belgilovchi asos bo'lib xizmat qiladi (4-chizma).

Boshqa omillar esa narxning ijtimoiy qiymat bilan ijtimoiy naflilik miqdori atrofida goh birinchisining, goh ikkinchisining foydasiga tebranishiga sabab bo'ladi.

Narxning iqtisodiy mazmuni uning vazifalari ko'rib chiqilganda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Narx quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Muvozanatlikni ta'minlash vazifasi. Bunda narx bozorda talab va taklifning hajmi va tarkibiga ta'sir etish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi.

2. Qiymat va naflilikni o'lchash vazifasi. Narx qiymat va naflilikning puldagi ifodasi deb aytamiz, chunki qilingan sarf-xarajatlar va olingan natijalar (foyda yoki zarar) narxlar asosida hisob-kitob qilinadi. Ishlab chiqarish va uning natijalarining natural ko'rsatkichlari ham mavjud (tonna, kg, m^2 , m^3 kv-tsoat va hokazo). Bu ko'rsatkichlarni shu holicha taqqoslab umumiy ko'rsatkichga keltirib bo'lmaydi. Barcha natural ko'rsatkichlarning umumiy o'lchovi ularning pulda ifodalangan narxidir. Hisob-kitob uchun joriy va qiyosiy narxlar qo'llaniladi. Joriy narxlar amaldagi narxlar bo'lib, ular yordamida yil davomidagi ishlab chiqarish natijalari hisoblanadi. Qiyosiy narxlarda ma'lum yil asos qilib olinib (baza yil) ishlab chiqarishning natijalari shu narxda hisoblanadi va boshqa yillar bilan taqqoslanadi.

3. Tartibga solish vazifasi. Bozor holati (kon'yunktura) talab va taklif hamda ularning nisbatiga bog'liq. Talabning ortishi muayyan tovarni ishlab chiqarishni kengaytirishi, askincha hol esa tovar ortiqchaligini, uni ishlab chiqarishni qisqartirish zarurligini bildiradi. Narx tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga

ularning daromadlari orqali ta'sir ko'rsatadi. Muayyan ishlab chiqarish harajatlari saqlangan holda narx yuqori bo'lsa, foyda miqdori ortadi, narx tushsa, foyda kamayadi va hatto ishlab chiqaruvchilar zarar ko'rishi ham mumkin. Bu ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Narx oshsa ishlab chiqarish kengayadi. Boshqa kapitallar ham foyda yuqori bo'lgan soha va tarmoqlarga oqib kela boshlaydi. Xullas, narx ishlab chiqarishni tartibga solib, uni o'zgartirib turadi va rivojini ta'minlaydi.

4. Raqobat vositasi vazifasi. Narx raqobat kurashining eng muhim vositasi hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchilar o'z raqiblarini yengish uchun narxni pasaytirish usulidan foydalanishlari mumkin. Demak, narxni o'zgartirib turish usuli raqobatda keng qo'llaniladi.

5. Ijtimoiy himoya vazifasi. Narx aholining kam daromad oluvchi ayrim qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish vazifasini ham bajaradi. Narxning bu vazifasi tovar (xizmat)lar ijtimoiy dotatsiyalashgan narxlar bo'yicha sotilganda bajariladi. Bunda ular davlat byudjeti va turli hayriya mablag'lari hisobiga moliyaviy ta'minlanadi.

Iqtisodiyotning turli sohalari va tarmoqlaridagi ishlab chiqarish va sotish sharoitlarining xilma-xilligi hamda bozor munosabatlarining rivojlanishi darajasidagi farqlar narx turlarini farqlash zaruriyatini tug'diradi. Iqtisodiyotda amal qilib turgan barcha narx turlari narx tizimini tashqil qiladi. Narxlar tizimida ularning ayrim turlarining iqtisodiy mazmunini qisqacha qarab chiqamiz.

Ulgurji narxlar. Ishlab chiqaruvchilar tomonidan katta partiyadagi tovarlar bir yo'la ko'tarasiga sotilganda ulgurji narxlardan foydalaniladi. Ulgurji narxlar ishlab chiqaruvchilar va ta'minlash-sotish tashkilotlari xarajatlarini qoplashi hamda ularning ma'lum miqdorda foyda ko'rishini ta'minlashi zarur. Ulgurji narxlar tovar birjalari va savdo uylarida ham qo'llaniladi.

Shartnoma narxlar. Bu sotuvchi va xaridorning roziligi bilan belgilanadigan, ular tomonidan tuzilgan shartnomada qayd qilingan narxlardir. SHartnoma narxlar odatda shartnoma bitimi amal qilib turgan davrda o'zgarmaydi. Mazkur narxlar ham milliy va ham xalqaro bozorda qo'llaniladi. U xalqaro bozorda qo'llanilganda tovar (xizmat)larning jahon narxlariga yaqin turadi.

Chakana narxlar. Bu narxlarda tovarlar bevosita iste'molchilarga sotiladi. Chakana narxga tovarning ulgurji narxi, chakana savdo tashkilotlarining xarajatlari va ularning oladigan foydasi kiradi. Chakana narx tovarlarga bo'lgan talab va taklifni bog'lovchi rolini o'ynaydi hamda ularning nisbatiga qarab yuqori yoki past bo'lishi mumkin.

Davlatning narxlarni tartibga solish faoliyati chegaralangan (limitlangan) va dotatsiyali narxlarni vujudga keltiradi. Chegaralangan narxlarda davlat narxlarning yuqori va quyi chegarasini belgilaydi, ular shu doirada o'zgarishi mumkin. Bunday narxlar yordamida davlat inflyatsiyani jilovlaydi, narxlarni nazorat qiladi.

Dotatsiyalangan narx – bu davlat byudjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxlardir. Bunday narxlardan kam daromadli oilalar, beva-bechoralar, ishsiz va nogironlarni hayotiy zarur ne'matlar bilan eng kam darajada ta'minlab turishda foydalaniladi.

Demping narx. Bozorda o'z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarish uchun firmalar maxsus narxdan foydalanadiki, ular demping narx yoki bozorga kirib olish narxi deb ataladi. Demping narxda rasmiy narxning bir qismidan kechib yuboriladi.

Sotish hajmini o'zgartirmasdan yuqori foyda olishga erishish uchun firmalar nufuzli narxdan foydalanadi. Bu narxni qo'llash uchun bozorda raqobat cheklangan bo'lib, monopol vaziyat mavjud bo'lishi zarur. Mazkur vaziyatda talab narxga bog'liq bo'lmaydi, shu sababli narxning ko'tarilishi tovar sotilishini keskin kamaytirmaydi. Bundan tashqari aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan nufuzli tovarlar ham mavjudki, ular nufuzli narxlarda sotiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda yuqori daromad oluvchi aholi qatlami uchun dala hovliga ega bo'lish, mashhur kurortlarda dam olish, oxirgi nusxadagi kiyimlar kiyish, yangi modeldagi avtomashinada yurish — martabali yoki obro'talab iste'mol hisoblanadi. Martabali iste'mol nufuzli narxlarni yuzaga keltiradi. Ular odatdagi narxlardan ancha yuqori bo'ladi. Nufuzli narxlarni qo'llashda tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari va rentabellik darajasi, bozordagi talab, uning o'zgarishi va bozordagi raqobatlashuv sharoiti hisobga olinadi. SHunga qarab, ma'lum davrgacha o'zgarmaydigan qat'iy (standart) narxlar va o'zgaruvchan narxlar qo'llaniladi. SHunday tovarlar borki, iste'molchilar ularning narxi o'zgarماسligini afzal ko'radi. Masalan, kommunal xizmat, transport xizmati ta'riflari shunday narxlar jumlasiga kiradi.

Erkin bozor narxlari – bu talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxlaridir. Madaniylashgan bozor sharoitlarini vujudga keltirishda erkin narxlar jamiyat va bozor munosabatlari barcha sub'ektlari manfaatlarini eng maqbul tarzda uyg'unlashtirishga imkon beradi.

Narx diapazoni narxlar oralig'ining puldagi ifodasidir. Narx diapazoni quyi, o'rta va yuqori narxlarni o'z ichiga oladi. Narx diapazoni qanchalik katta bo'lsa, tovar muomalasi shunchalik tez yuz beradi, chunki talab bilan narx o'zaro bog'lanadi.

Bozor ko'lamini hisobga olinganda hududiy (mintaqaviy), milliy va xalqaro narxlar mavjud bo'ladi. Hududiy narx faqat ma'lum hududiy bozorga xos bo'lib, u shu hudud doirasidagi omillar ta'siridan hosil bo'ladi. Milliy bozor narxi bir mamlakat doirasida amal qiluvchi va ularning xususiyatini aks ettiruvchi narxlardir. Milliy narx mamlakat doirasidagi ijtimoiy sarf-harajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni, tovar nafliligini, uning qanchalik qadrlanishini hisobga oladi. Jahon bozori narxi muayyan tovarga ketgan baynalminal harajatlarni, tovarning jahon standarti talabiga mos kelish darajasini va xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini hisobga oladi.

Narx xilma-xil turlardan iborat bo'lsada, ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan, chunki ularda jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning ishlatilish samarasi o'z ifodasini topadi. Iqtisodiyot nazariyasida narx nisbati degan tushuncha bor, u narx pariteti deb ham yuritiladi. Iqtisodiyot va undagi jarayonlar bir-biriga bog'liq bo'lganidan narxlar bir-birini yuzaga chiqaradi.

5. Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari

Narxlarni erkinlashtirish – iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ko'p jihatdan shu muammoning hal etilishiga bog'liq bo'ladi.

Narxlarni erkinlashtirish xom-ashyo bilan mahsulot ayrim turlarining narxlari, narx bilan aholi va korxonalar daromadlari o'rtasida mutanosiblikka erishishga qanday yondashilishi bilan farqlanadi. SHu yondashuvlarga asoslanib, narxlar quyidagi yo'llar bilan erkinlashtiriladi:

- a) narxlarni birdaniga, yoki «esankiratadigan» tarzda qo'yib yuborish;
- b) narxlarning o'sishini sun'iy ravishda to'xtatib qo'yish;
- v) narxni davlat tomonidan boshqarish va nazorat qilishni ma'lum darajada saqlab qolish.

Bozor munosabatlariga o'tayotgan har bir mamlakat, shu yo'llardan birini tanlashda ulardan har birining mavjud real shart-sharoitlarga qanchalik mos kelishi, aholi asosiy qismining moddiy ahvoriga qanday darajada ta'sir ko'rsatishi, isloh qilishning tanlab olingan yo'liga qanchalik darajada javob berishi va kutiladigan salbiy oqibatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilishning o'ziga xos tamoyillari, mamlakatdagi vaziyat va aholining turmush darajasi hisobga olinib, narxlarni asta-sekinlik bilan va bosqichma-bosqich erkinlashtirish yo'li tanlab olindi. SHu yo'l bilan narxlarni erkinlashtirishning dastlabki bosqichida (1992 yilning boshida) keng doiradagi ishlab chiqarish-texnika vositasi bo'lgan mahsulotlar, ayrim turdagi xalq iste'moli mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning erkin narxlari va tariflariga o'tildi. Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qo'yildi, ayrim turdagi xizmatlarning eng yuqori tariflari joriy qilindi.

Narxlarni erkinlashtirishning keyingi bosqichida (1993 yil) kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'xtatildi. Qat'iy belgilangan va davlat tomonidan tartibga solib turiladigan narxlarda sotiladigan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning soni ancha qisqardi.

Narxlarni erkinlashtirishning navbatdagi bosqichida (1994 yil oktyabr-noyabr) xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxlari erkin qo'yib yuborildi, transport va kommunal xizmatlarning tariflari oshirildi. SHunday qilib, respublikada iqtisodiyotni isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarni bosqichma-bosqich (uch bosqichda) to'liq erkinlashtirish bilan tugadi. Narxlarni erkinlashtirish aholini ishonchli iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash tadbirlari bilan birga olib borildi. Davlat tomonidan turli kompensatsiyalar maqsadidagi jamg'armalar tuzildi, ish haqi, pensiya va stipendiyalarning eng kam miqdori muntazam suratda oshirib borildi, bolalar uchun nafaqalar joriy etildi. Aholining muhtoj qismiga yordam ko'rsatildi, imtiyozli soliq stavkalari joriy etildi.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Raqobat – bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi.

Tarmoqlar ichidagi raqobat – ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boruvchi kurash.

Tarmoqlararo raqobat – turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurash.

Monopoliya – monopol yuqori narxlarni o'rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari.

Sof monopoliya – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi, va binobarin, foyda olishdagi yakkahukmronlik holati.

Oligopoliya – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati.

Monopolistik raqobat – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko'p hamda ular o'rtasida ma'lum darajada raqobat mavjud bo'lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o'z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada hukmronlik holati.

Monopsoniya – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko'p bo'lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste'molchisi yoki xaridori mavjud bo'lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati.

Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo'lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati.

Kartel – bitta sanoat tarmog'idagi bir necha korxonalarning uyushmasi bo'lib, uning ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o'z mulkiy egaligini saqlab qoladi, yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmidagi har bir ishtirokchining ulushi, sotish narxlari, bozorlarning bo'lib olinishi va h.k. bo'yicha kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Sindikat – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarning birlashmasi. Bunda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining o'zida saqlanib qolgani holda, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot maxsus tashqil etilgan yagona sotish tashkiloti orqali amalga oshiriladi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Raqobatning mohiyati va maqsadini tushuntirib bering.
2. Raqobatning asosiy vazifalari nimalardan iborat? Bu vazifalarning bir-biridan farqini ajratib ko'rsating.
3. Raqobat shakllariga tushuncha bering va ularning har biriga xos belgilarini ko'rsating.

4. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatning farqini tushuntirib bering.
5. Raqobatlashuvning demping narxlarini qo'llash usuli qanday sharoitlarda amalga oshiriladi?
6. Monopoliya nima va uning vujudga kelishining iqtisodiy asoslari nimalardan iborat? Monopoliyaning qanday turlari mavjud?
7. Kapitalning to'planishi va markazlashuvi o'rtasida qanday farq bor?
8. Tabiiy, legal va sun'iy monopoliyalarning bir-biridan farqlanishini ko'rsating.
9. Monopoliyaning ijobiy va salbiy tomonlari nimalarda namoyon bo'ladi?
10. Monopoliyaga qarshi siyosat va monopoliyaga qarshi qonunchilikning mohiyati qanday?
11. Raqobat muhitining shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
12. Narxning iqtisodiy mazmunini uning vazifalari orqali tushuntirib bering. Narx asosiy turlarining qisqacha tavsifini bering.
13. Narxning tashqil topishi borasida qanday nazariyalar mavjud? Ularning afzallik va kamchilik tomonlarini ko'rsatib bering.

8-Mavzu: Tashqi iqtisodiy faoliyatda bojxona tizimi

Reja:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatda bojxonaning tutgan o'rni va ahamiyati.
2. O'zbekiston Respublikasi bojxona xizmatining tashqil topishi va rivojlanishi.
3. Tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosati.
4. Tashqi iqtisodiy faoliyatda bojxona vositachilarining ishtirok etishi.

1.Tashqi iqtisodiy faoliyatda bojxonaning tutgan o'rni va ahamiyati.

Xalkaro savdoni davlat tomonidan tatibga solishda, jaxon amalietida kup kullaniladigan usullardan biri tarif usulidir. Tarif usulini asosini boj tarifi, ya'ni bojxona chegarasi orkali olib utilaetgan tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi printsiplari va koidalariga asosan bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan kullaniladigan boj stavkalari tuplami tashqil etadi.

Boj tarifini ta'rifidan shuni aytish mumkinki, ixtieriy mamlakatni boj tarifi bojxona bojlarini anik stavkalaridan iboratdir.

Bojxona boji – tovarlarni import yeki eksport kilishda, bojxona organlari tomonidan undiriladigan va eksport yeki importni sharoitini belgilovchi tulanishi lozim bulgan vzosdir.

Bojxona bojlari moxiyatiga kura, uchta asosiy vazifani bajaradilar:

- Fiskal, bu vazifa xam import va xam eksport bojlariga teishlidir. CHunki bu bojlar davlat byudjetini tuldirish manbalaridan biridir.
- Protektsinistik (ximoya), bu vazifa fakat import bojlariga taalluklidir. CHunki ular yerdamida davlat maxalliy ishlab chikaruvchilarni chet el rakobatchilaridan ximoya kiladi.

- Balanslashtiruvchi, ya'ni mamlakat ichki bozoridagi narxi jaxon bozoridagi narxlardan past bulgan tovarlarni mamlakat xududan eksport kilinishini oldini olish. Bu vazifa eksport bojlariga tegishlidir.

Dune xujaligi amalietida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda davlat tomonidan kullaniladigan bojlarni kullanilish maksadiga, tartibiga, ob'ektiga va yana boshka belgilarga kura kuyidagicha klassifikatsiyalash mumkin. Bojnlarni bunday klassifikatsiyalanishi ularni kullashni iqtisodiy mazmunini aniklash imkoniyati beradi.

Bojxona bojlari undirilish tartibiga kura:

Advalor – bu boj turi bojxona chegarasi orkali olib utilaetgan tovarlar va transport vositalarini bojxona kiymatidan foizda xisoblanadi. Odatda bunday bojlar bir tovar guruxiga mansub bulgan xar xil sifat kursatkichlariga ega bulgan tovarlarga nisbatan kullaniladi. Advolar bojlarni, shu guruxga mansub boshka boj turlaridan farklantiruvchi kuchli tomoni shundaki, bojga tortiladigan tovarni narxini tebranishidan kat'iy nazar, advolar boj ichki bozorni bir darajada ximoya kiladi. Fakat davlat byudjetiga tushaetgan daromad mikdori uzgarishi mumkin.

Misol: Agar boj tovarni baxosini 20%ni tashqil etsa, tovarni narxi 200 dollarga teng bulgan xolda davlat byudjetini daromadi 49 dollarni tashqil etadi. Tovar narxi 300 dollargacha ohsa, byudjet daromadi 60 dollarni, agarda 100 dollarga kamaysa, daromad mikdori 20 dollarga kamyadi. Lekin ikkala xolda xam ichki bozorni ximoya kilish darajasi 20%ni tashqil etadi, ya'ni tovarni narxi 20%ga oshgan xolda ichik bozorga kirib boradi.

